O'quvchilar turli janrlardagi musiqa asarlarini idrok etishi barobaridan xilma-xil cholg'u asboblari, ularning sadolari, tovush temblari bilan ham tanishadilar. Ular asarni takror-takror eshitganlaridagina uni puxta o'zlashtirib, uzoq muddat esda saqlashlari mumkin. Ayniqsa, yirik janrli va mumtoz asarlarni tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralari ochilib tinglovchini badiiy tafakkuretishga, asarga baho berishga undaydi. Shu sababli asar bir darsdagina emas, balki keyingi darslarda ham takror tinglanib turilmog'i maqsadga muvofiqdir. Asar bilan tanishish jarayonida u haqda o'qituvchining qisqa, ammo qiziqarli va obrazli kirish so'zi, asar janri, tuzilishi, mazmuni, ifoda vositalari muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, asarning badiiy obrazlari haqidagi qiziqarli suhbatlar ham tinglovchi-o'quvchilarda juda katta ma'naviy ozuqa beradi.

Badiiy tarbiya, shu jumladan musiqa tarbiyasi-nafosat tarbiyasining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Musiqa – barcha san'atlar singari kishilarga voqelikdagi turli-tuman hodisalarni badiiy obrazlar vositasida bayon etadi.

Umumiy o'rta umumta'lim maktablarida musiqa darsini asosiy vazifasi o'quvchilarni o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash, ularga yuksak axloqiy-estetik hissiyotni oshirish, yoshlar san'atga bo'lgan qobiliyatini va muhabbatini o'stirishdan iborat. Ma'lumki, musiqa darsi – keng ma'nodagi san'at darsidir. Musiqiy tarbiya har bir boladagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga, har tomonlama barkamol bo'lib o'sishiga katta yordam beradi. Bunda "jamoaviy aytim" faoliyatining imkoniyatlarini alohida e'tirof etish o'rinli.

Maktabda musiqa madaniyati fani o'qituvchisining asosiy maqsadi bolalarni musiqa san'atiga qiziqtirish, ularni musiqiy iste'dodini rivojlantirishdan iborat ekan, bunda milliy musiqa merosimiz va umumbashariy musiqa boyliklarining ahamiyati katta.

O'quvchilarni faqat musiqani amaliy jarayonidagina emas, balki nazariy asos va maxsus ta'lim yo'nalishiga asoslangan holda musiqa san'atiga o'rgatish lozim. Mana shu sabablarga ko'ra, eng tushunarli, ommaviy va chuqur hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan jamoaviy qo'shiqlar maktabda bolalar musiqa tarbiyasining omili hisoblanadi. O'quvchilar faqatgina musiqa savodxonligini egallash bilan chegaralanib qolmasdan, balki o'qituvchi ijrosida musiqa asarlarini tinglaydilar, uni idrok etadilar. O'quvchilarga musiqa san'ati asoslarini tushuntirish, musiqaviy bilim saviyasini, dunyoqarashini kengaytiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish o'rinliki, bolalarda musiqa ijrochiligiga nisbatan uning idrok qilish imkoniyatlari ancha kengdir. Buni albatta hisobga olib, musiqiy faoliyatlarni tashkil etish kerak,

Asarlarni tinglash faoliyatini olib borish, o'quvchilar idrokini takomillashtiradi, darsntng mazmunli, qiziqarli hamda hayajonli o'tishini ta'minlaydi. Musiqa asarlarini

chuqur egallashi, tushunishi uchun o'quvchilardan musiqiy savodxonlik talab etiladi. Maktabda o'tiladigan musiqa madaniyati darsi esa bolalarga dastlabki tayyorgarlik malakalarini beradi, xolos. Musiqa madaniyati mashg'ulotlaridan ijro etiladigan asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmog'i, ularning mazmuni va badiiyligi yuksak darajada bo'lishi kerak. O'quvchilarda musiqa madaniyatini tarbiyalash faqatgina dars davomida emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalarda ham davom ettiriladi, albatta.

Tanlangan musiqa asari bolalarning yoshiga, xususiyati, imkoniyati, musiqiy ehtiyojiga mos bo'lishi muhimdir. Tajribada shu narsa kuzatiladiki, ayrim musiqa o'qituvchilarimiz asarlar tanlaganda yuqorida bayon etgan talablarni nazardan chetda qoldirishadi. Natijada ular o'rgatadigan asarlar hamisha ham o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini qondira olmaydi. Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar zerikarli bo'ladi. Shu bois tanlanadigan asarlar bolalarning yoshiga mo'ljallangan bo'lib ularning tushunchasi va ichki dunyosiga yaqin bo'lmog'ini ta'minlash lozim. O'quvchi – yoshlar tabiati, fe'l – atvori turlicha, bolalar quvnoq va qayg'uli musiqani ham tantanavor ko'tarinki ruh hamda hajviy musiqalarni ham qiziqib eshitadilar. Har o'quv yilida eshittiriladigan musiqaviy asarlar ham shakl, ham mazmun jihatidan murakkablashib borilishi kerak.

O'quvchilar birinchi va ikkinchi sinflarda asosan bolalar uchun yozilgan musiqa asarlarini eshitadilar va o'zlari o'qituvchi yordamida ijro etadilar.

Uchinchi sinfdan boshlab maktab o'quv dasturiga o'zbek xalq qo'shiqlaridan tashqari bastakorlarning ashulalar shuningdek, kichik hajmli mumtoz asarlari va keng tarqalgan ommaviy asarlar kiritiladi. Shu asarlardan tashqari o'rta maktablar musiqa o'qituvchilarining o'zlari o'quvchilarning yoshi va qobiliyatiga mos musiqiy asarni tanlash imkoniyatiga ham egadirlar.

O'quvchilarning musiqaga havasini uyg'otish uchun ularning eshitayotgan musiqa asarlarini e'tibor bilan o'zlashtirishi katta ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham pala-partish ijro etilgan asarlar bolalarda bekorchilik hissini uyg'otadi va aksincha, badiiy jihatdan mukammal ijro etilgan asarlar esa ularda chuquir badiiy taassurot qoldiradi. Ayniqsa, sinfda o'qituvchi tomonidan yoki musiqaga havas qo'ygan ijrochi o'quvchi tomonidan ijro etiladigan asarlar hayajon bilan qabul qilinadi. Musiqa asarlarni eshitishdan oldin sinfda tinchlik bo'lishini ta'minlash lozim. Musiqani jimlik bilan madaniyatli tarzda tinglashga o'rganish yoshlikdan boshlanadi va ulg'ayganda yuksak madaniyatga ega shaxsni tarbiyalashga katta yordam beradi.

O'qituvchi musiqa asarini eshittirishdan oldin bolalar bilan shu mavzuda qisqa suhbat o'tkazadi. Bu suhbatda asarning mazmuni va xarakteri, shu bilan birga asarning mualliflari haqida ma'lumot beradi, "takrorlash – bilimning onasi", - deydi

donolarimiz. Asarni mukammal o'zlashtirish uchun vaqt-vaqti bilan takrorlab turish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Bolalar musiqa asarini qanchalik diqqat e'tibor bilan tinglasalar, uni shunchalik ko'p tushunadilar, biladilar, mazkur musiqaga bo'lgan muhabbatlari oshib boradi va asarni qiziqib eshitadigan bo'ladilar.

Darslarga tinglanishi lozim bo'lgan musiqa asarining ko'pchiligini o'quv yilining birinchi yarmiga mo'ljallash kerak.

Musiqa asarlari maxsus jihozlangan sinflarda o'tkazilsa, samarali natijalar berishi mumkin. Maxsus jihozlangan xonada cholg'u asboblari (pianino, rubob, doyra, akkordion, afg'on rubobi) musiqa savodigan doir tablitsalar, kompozitorlar rasmi, doskada chizilgan nota yo'li, magnitafon, plastinkalar disk va hokazolar bo'lishi kerak. Maxsus jihozlangan sinf bo'lmagan taqdirda musiqa mashg'ulotlari oddiy sinflarda ham o'tkazilaveradi. Eng muhimi musiqa tinglash faoliyati, uni idrok etish jarayoni qanday sharoitda amalga oshirilmasin, baribir o'quvchilarning yosh xususiyatlari qiziqishlari va imkoniyatlari hisobga olingan holda jarayoni uyushtirish talab etiladi.

Musiqani idrok etishda o'quvchi – yoshlarning psixologik, pedagogik va fiziologik tayyorgarlik darajasi muhim o'rin egallaydi.

Biz ishimizning navbatdagi qismida mavzuimiz ob'ekti (V-XII) kichik yoshdagi o'smirlarga bag'ishlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O'zbek Folklorining O'zini Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Conferencea -

Virtual International Conferences, “International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education.” [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)

6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG‘U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO‘GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ](#) INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL_. Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich [.O‘QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). Vol. 75 No. 1 (2025): [PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1](#).
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO ‘SHIQLARINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal ogli, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal-spark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O‘Quvchilarni Ma’naviy-Axloqiy Shakllantirishda O‘zbek Xalq Qo‘Shiqlari

Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023):
Progress Annals.Published: 2023-12-06

14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19.
<https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. “O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H.,Nurullayev F.G. O‘ZBEK FOLKLOR QO‘SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O ‘ZBEK ESTRADA SAN’ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE.Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI.Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)
23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.

24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI XODIMLARINI MOLIYAVIY KOMPETENTLIGINI
BAHOLASH USULLARI**

*Xo'janova Maftuna Usmonqulovna,
"Pedagogik va psixologiya" mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xujanovmaftuna1155@gmail.com*

***Annotatsiya:** Korxonada moliyaviy menejmentini maktabda qanday tashkil etilishi. Maktabgacha va maktab ta'limi rahbar xodimlarining zimmasidagi asosiy vazifalar, xodimlarini boshqarishda moliyaviy muammolarni hal qilishi. Korxonada rahbarning oldida turgan iqtisodiy-moliyaviy boshqaruv vazifalari.*

***Kalit so'z:** ta'lim, boshqaruv, moliya, DUK, kompetent, menejment, rag'batlantirish.*

Ta'limning sifati va natijadorligi ta'limga ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanishga bog'liqligi haqida ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Shu bois, ta'lim sifati va uzluksizligiga to'sqinlik qiladigan eng muhim omillardan biri ham cheklangan iqtisodiy imkoniyatlardir. Hududlarda, viloyatlarda va hattoki bir viloyatning turli tumanlarida va tumanlarning turli turar joylarida daromad darajasidagi farqlar ta'lim olish imkoniyatlari jihatdan farqlarni keltirib chiqarmoqda. Shaxslarning ta'lim tizimi imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olmasligi, maktablarning infratuzilmasi va jismoniy kuchning etishmasligi, malakasiz ta'lim, maktabdagi jihozlarning yetishmasligi, o'qituvchilar va sinflarning yetishmasligi va boshqa omillarning mavjudligi ta'lim tizimidagi shaxslar o'rtasida mavjud bo'lgan tengsizlik va adolatsizlikni yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi rahbar xodimlaridagi muammo ta'lim tizimidagi muammo hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim sifatini yaxshilashda ta'lim uchun ajratilgan byudjet mablag'larining ahamiyati va miqdori ortib borayotgan bir paytda, ushbu mablag'larni samarali, ko'zlangan maqsad sari ishlatish Maktabgacha va maktab ta'limi rahbar xodimlarining zimmasidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Maktabda moliyaviy muammolarni hal qilishda maktab direktorining oldida ko'plab qiyinchiliklar yotadi. Maktab uchun zarur manbalarni topish va shunga muvofiq maktabning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashi kerak. Agar direktor mas'uliyatsiz bo'lsa, muammolardan qochsa, iqtisodiy muammolarni hal qilishda o'zida jasorat va harakat topa olmasa, u

boshqarayotgan maktabda jiddiy kamchiliklar va muammolar vujudga keladi. Birinchi navbatda, ta'lim sifati tushub, o'quvchilarning bilim olishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhit paydo bo'ladi. Shu bois, maktab direktorlarida moliyaviy kompetentlik yuqori bo'lishligi talab qilinadi. Bir korxonada rahbarning oldida turgan iqtisodiy-moliyaviy boshqaruv vazifasiga odatda quydagilar kiradi:

➤ aktivlarni boshqarish – aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va ularning miqdorini aniqlash, aktivlar tarkibini optimallashtirish, aylanma aktivlarning ayrim turlarini likdivligini ta'minlash, ularni moliyalashtirishning samarali shakllarini topish;

➤ kapitallarni boshqarish – korxonada aktivlarini moliyalashtirish uchun kapitalga bo'lgan umumiy ehtiyojni aniqlash, undan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida kapital tarkibini optimallashtirish, kapitalni eng samarali aktiv turlariga qayta moliyalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

➤ investitsiyalarni boshqarish – korxonaning investitsiya faoliyatini shakllantirish, real loyihalar va moliyaviy vositalarning investitsiya jozibadorligini baholash va ulardan eng samaradorini tanlash, real investitsiya dasturlari va moliyaviy investitsiyalar portfelini shakllantirish;

➤ pul oqimlarini boshqarish – korxonaning kiruvchi va chiquvchi pul oqimlarini shakllantirish, ularni kelgusi alohida davrlar uchun hajmda va o'z vaqtida sinxronlashtirish, vaqtincha bo'sh pul mablag'lari qoldig'idan samarali foydalanish.

Moliyaviy xatarlarni boshqarish va bankrotlikni oldini olish – korxonaning xo'jalik faoliyatida mavjud bo'lgan asosiy moliyaviy xatarlarni aniqlash, ushbu xatarlar darajasi va ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar hajmini baholash, muayyan moliyaviy xavflarni oldini olish va minimallashtirish, shuningdek ularni sug'urtalash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini shakllantirish, doimiy monitoring asosida bankrotlik xavfi darajasini aniqlash va uning yuqori darajasida korxonani inqirozga qarshi moliyaviy boshqarish mexanizmlaridan foydalanish.

Korxonada moliyaviy menejmentni maktabda qanday tashkil etish mumkin? Albatta, korxonadagi moliyaviy menejmentni bir maktabga to'g'ridan to'g'ri joriy qilib bo'lmaydi. Maktab asosan davlat byudjetidan moliyalashtirilganligi bois, uni nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organ ham asosan davlat moliyasi va ta'lim boshqarmasi hisoblanadi. Ammo bu maktab ma'muriyati uchun hech qanday javobgarlik yuklamaydi degani emas.

Aksincha, mutasadilarimiz aytganidey, jahonda qaror topayotgan yangi – bilimga asoslangan iqtisodiyot (knowledge based economy) ta'lim tizimiga, jumladan umumiy o'rta ta'limi tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bu o'z navbatida, soha xodimlariga va ayniqsa rahbar xodimlarning malakasi va ko'nikmalariga yuqori talab va

mas'uliyatlarni talab qilmoqda. Shunday talablardan biri maktab direktorlarining iqtisodiy-moliyaviy kompetentligining yuqori bo'lishi talabidir.

Maktab direktorlarining moliyaviy kompetentligi birinchi navbatda umumta'lim sohasiga oid qaror va qonunlarni yaxshi bilishi bilan o'lchanadi va oshiriladi. Boshqa so'z bilan aytganda, ta'lim sohasida olib borilayotgan makrosiyosatdan (islohotlardan) xabardor bo'lishi va ushbu islohotlarga o'zini daxldor his qilishidir. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 apreldagi 243-son qarori bilan «Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Nizom va boshqa hujjatlar ta'lim siyosatini yuritishda va xalq ta'lim muassasalarini boshqarishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarni, qonun va qarorlarni bilish xalq ta'limdagi rahbar xodimlarga qo'yiladigan birinchi darajali talablardandir. Binobarin, maktab turli dunyoqarash, qiziqish va ijtimoiy kelib chiqishi va e'tiqodi har xil bo'lgan yoshlarni va shuningdek, ularga ta'lim beradigan o'qituvchilarni o'zida qamrab olgan ijtimoiy maskan bo'lib, uni davlatning ta'lim sohasidagi yagona siyosati asosida va doirasida boshqarish kerak bo'ladi. Mazkur hujjatlar asosida ta'lim muassasasini boshqarish, moliyalashtirish ishlarini tashkil etish qonun doirasida faoliyat yuritishni anglatadi. Xususan, Ta'lim to'g'risidagi Qonuning 62-moddasida: «Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi», deb ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi PQ-3231-sonli qarori bilan maktab va tibbiy muassalarda buxgalteriya xizmatlari bekor qilindi va ularning o'rniga Maktabgacha va maktab ta'limi tuman (shahar) bo'limlarida va tibbiyot birlashmalar markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari joriy qilindi. Mazkur qarorda belgilab qo'yilganidek, moliya-buxgalteriya xizmatlari - markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, ish haqining hisoblanishi va to'lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash, shuningdek, ularning faoliyati profili bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushadigan daromadlar monitoringini yuritadi.

Mazkur qarorlarda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyat va tuman (shahar) bo'limlarining faoliyatlari va vazifalari takomillashtirilib, vazirlik huzurida Ko'maklashish jamg'arma tuzilishi va Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish ob'ektlari sifatini

monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi DUK tashkil etilishi belgilab qo'yildi. DUK va jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri umumta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash, shu jumladan zarurat bo'lganda o'quv korpuslarini o'quv ustaxonalari va laboratoriyalar tashkil etgan holda kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma ob'ektlarini barpo etish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish hisoblanadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, birinchidan, davlatimiz tomonidan qarorlar va farmonlar quyi bo'g'inlarga yetib borishda muammolar bor va quyi bo'g'inlarning qonun, farmon va qarorlarga amal qilishda mas'uliyatsizlik mavjud. Ikkinchidan, kun. uz nashrida ham yozganidek, ota-onalar mavjud islohotlardan, chiqayotgan qonun, farmon va qarorlardan bexabar va o'zlari bu kabi korruptsion holatlarni (bilib-bilmasdan) rag'batlantiradi. Albatta, beg'araz yordam va xayriyalar bundan mustasno.

Jamiyatda iqtisodiy va moliyaviy savodxonlik shunaqa holatlarda o'ta muhim bo'lib, ajratilgan mablag'lar qayerga va nima maqsadlarga yo'naltirilganligi ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishini taqozo qiladi. Boshqa tomondan, balki hali ham maktabning yillik ta'miri, texnik ta'mirlash ishlari, obodonlashtirish va hakoza maktab direktorining (rasmiy bo'lmagan holda) zimmasidadir. Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentligini o'lchash va oshirish yo'llari ta'limning iqtisodiy asoslari haqida bilimlarga ega bo'lishi, mamlakat miqyosida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni, qabul qilinayotgan qaror va qonunlarni bilishi (makro darajada) va maktab moliyaviy boshqaruvi (menejmenti), maktabning moliyaviy hisobotlarini to'g'ri va samarali tashkil etish (mikro darajada) bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish bilan belgilanadi va amalga oshiriladi.

Xulosa. Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligi ta'lim sifatining oshishida muhim o'rin tutadi. Ta'limga ajratilayotgan byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish, ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlash bilan birga, teng imkoniyatlar asosida ta'lim olinishiga xizmat qiladi. Ammo moliyaviy resurslardan foydalanishdagi cheklovlar, rahbar xodimlarning moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi, qonun va hujjatlardan bexabarlik, mavjud imkoniyatlarning to'liq ishga solinmasligiga olib kelmoqda. Maktab rahbarlari iqtisodiy-moliyaviy kompetentlikka ega bo'lmasalar, bu bevosita ta'lim sifati va natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun rahbar xodimlarning moliyaviy boshqaruv sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Takliflar:

1. **Moliyaviy savodxonlikni oshirish:** Maktabgacha va maktab ta'limi rahbarlari uchun muntazam ravishda moliyaviy boshqaruv, byudjet tuzilishi, xarajatlar monitoringi va hisobot yuritish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

2. **Qonun hujjatlari bilan tanishtirish:** Rahbar xodimlar uchun «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa huquqiy hujjatlar asosida maxsus amaliy seminarlar o'tkazish.

3. **Moliyaviy mas'uliyat tizimini kuchaytirish:** Maktab rahbarlarining byudjet mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoring tizimini joriy qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

4. **Tajriba almashuv dasturlari:** Yuqori natijalarga erishgan maktab rahbarlari tajribasini o'rganish va boshqa hududlarga tatbiq etish orqali moliyaviy menejmentda ilg'or tajribalarni targ'ib qilish.

5. **Axborot tizimlarini keng joriy etish:** Maktab moliyaviy faoliyatini avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali yuritish, buxgalteriya xizmatlarini raqamlashtirish va shaffoflikni ta'minlash.

6. **Ota-onalar va jamoatchilikni jalb etish:** Ota-onalar va mahalla vakillarini maktabning moliyaviy faoliyatidan xabardor qilish va ularning ishtirokida xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 2020 yil 23 sentyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi PQ–3231-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 apreldagi 243-son qarori – "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom".

4. Maxkamova, G. (2021). *Ta'lim tizimida menejment asoslari*. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.

5. Sharipov, A. (2022). *Moliyaviy menejment asoslari*. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA".

6. Kamilov, R. (2020). *Ta'lim tizimida boshqaruv psixologiyasi*. – Toshkent: "Fan va texnologiya".

7. OECD (2020). *Education at a Glance 2020: OECD Indicators*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>

8. UNESCO (2021). *Education finance and accountability in Central Asia*. Paris: UNESCO Institute for Statistics.

9. Kun.uz maqolalari – Ta'limda korrupsiya va jamoatchilik nazorati masalalari. <https://kun.uz>

10. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti – <https://www.maktab.uz>

BOSHLANGICH SINFLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Raxmatqulova Nafisa Asatullayevana

GulDU "Pedagogik va psixologiya" mustaqil izlanuvchisi

E-mail: raxmatqulovanafisa23@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi, afzalliklari va istiqbollari yoritilgan. Muallif raqamli vositalarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri, bolalarda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va kreativlikni rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z yuritadi.*

***Kalit so'z:** raqamli texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy pedagogika, interaktiv o'qitish, ta'lim innovatsiyalari.*

Zamonaviy jamiyatda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni interaktiv, o'zaro muloqotli o'rganish muhitiga jalb qilishda raqamli vositalar muhim o'rin tutadi. Bu bosqichda qo'llaniladigan texnologiyalar bolalarda mustaqil fikrlash, tafakkur qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini erta shakllantirish imkonini beradi.

Axborotni taqdim etishning vositalari va usullarini qo'llash - hozirgi axborot texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemaning asosiy komponentlaridir. Bugungi kunda o'qitishning metodi va mazmuni muammosini hal etish oldingilardan farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari timsolida ularning kompyuter savodxonligini oshirishda fanlar misolida oladigan bo'lsak, masalan, matematik tafakkurini o'stirishda informatikani qo'llash bugungi kun muammolaridan biridir, o'quvchilar matematikani o'rganishni davom ettirishga tayyorlanadilar. Son tushunchasi, geometrik figura, ifoda, funksiya, tenglama, geometrik yasash, koordinata va vektor haqida boshlang'ich tushunchalar boshlang'ich sinfda o'rgatiladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv darslarida axborot majmui ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar,

chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozli obrazlardan (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan AKT savodxonlik elementlariga ega bo'lishlik - ta'lim jarayoniga AKTni samarali joriy etishning tashkiliy bir qismi hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchilarning AKT sohasiga oid kasbiy mahoratini oshirish yo'nalishida asosiy e'tibor ularning kompyuterdan foydalanuvchi sifatida tayyorlashga qaratilgan.

O'qituvchilar AKT savodxonligiga ega bo'lish bilan chegaralanib qolmasdan, AKT vositalaridan ta'lim samaradorligini oshirish yolida to'g'ri foydalanish metodikasi bilimiga ham ega bo'lishlari zarur. Ya'ni, har bir fan o'qituvchisi o'zining darsida AKT vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olishlari zarur. Shu sababli, malaka oshirish kurslarida muammo yechimi hal etish uchun nafaqat kompyuter savodxonligiga oid mashg'ulotlarni, balki AKTdan foydalanish metodikasiga oid mavzularni «Fanni o'qitishda AKTdan foydalanish» mutaxassislik darslarida ham o'qitish va amaliy mashg'ulotlar orqali tinglovchilarning bajarish imkoniyatlariga zamin yaratmog'imiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasiga oid ko'nikmalarga matn va jadval muharrirlari yordamida pedagogik vositalar yaratishda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni (matn muharririda son va raqamlar kiritish, jadval muharririda geometrik grafiklarini yaratish va b.) ta'kidlab o'tish mumkin. Bundan tashqari ushbu metodika darsning qaysi qismida, qancha vaqt davomida foydalanishni nazarda tutadi.

Ushbu fikrlarni tasdig'i sifatida YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan O'qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lishlik bo'yicha tavsiyalari»ni keltirish mumkin.

zamonaviy o'qituvchining texnologik jihatdan savodxon bo'lishligi va o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish yetarli emasligi alohida ta'kidlanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim mazmunining maqsadini ko'zlagan holda uning muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili sifatida quyidagicha amallarni to'g'ri tashkil etishga e'tibor berish lozim:

-mutaxassis kadrlar salohiyatining zamon talabiga mos bo'lishi;

- barcha ta'lim bosqichlari va ta'lim muassasalari bilan samarali natijaviylikni ta'minlay olish darajasidagi uzviy hamkorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilishi va nazoratga olinishi

-metodist va fan o'qituvchilari o'zaro hamkorlikda ijobiy natijani ko'zlagan va mazkur tavsiyalarda ham samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish kafolatlagan holda ta'lim- tarbiya jarayoniga yondashishi;

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan muntazam xabardor bo'lishi va uni ijodkorlik, mohirlik san'ati ila amaliyotga joriy etishi;
- yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashni bosh maqsad etgan holda ularning ham imkoniyat darajalari va qobiliyatlarini hisobga olishi;
- o'qituvchi kasbiga innovatsion yondashgan holda jarayonlarga ko'rgazma va didaktik jihozlarni foydalanishda xilma - xillikka e'tibor qaratishi;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlay olishi;
- axborot texnologiyalari haqida ma'lumotlarni mazmunan maqsadga muvofiq fanlar kesimida to'g'ri taqdim etish mahoratiga ega bo'lishi;
- malaka oshirish tizimida doimiy ravishda o'qituvchilarning kursdan keying faoliyatini o'rganish va ularning yutuqlarini namuna sifatida tatbiq etish;
- muntazam ravishda reja asosida shahar va tumanlar kesimida ilmiy – amaliy konferensiya va seminarlarni tashkil etish;
- tarbiyachi va o'qituvchilarning ish- tarjibalarini ommalashtirish va ularni malaka oshirish tizimida kurs tinglovchilari bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazish orqali faolligini rag'batlantirishga e'tibor berish;
- umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan fan oyliklarini o'tkazishda axborot texnologiyalardan foydalana olish darajalariga e'tibor berish va baholash;
- tarbiyachi va o'qituvchilar tarafidan tayyorlangan tavsiya, ishlanmalarning zamon talabiga mosligini tahlil etgan holda mualliflik huquqini saqlab, amaliyotga tatbigi'ni nazoratga olish lozim.

Zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin darslarini tashkil etish va fan xonalarining jihozlangan holatini moslash, internet va axborot vositalaridan ma'lumotlar olish va ulardan foydalanish; chet tilini o'rganishda, shuningdek, bugungi kunda 1 - sinfda 7 ta fan kesimida multimediyali ta'lim dasturlari asosida unumli qollash kabi dolzarb muammolar o'z yechimini topmoqda. Fanlar kesimida yaratilgan elektron darslik va qo'llanmalar sonini qozoq tilida ham namunalarini multimediya va animatsion shakllarda ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish - yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'pchiligida mavjud bo'lmaganligi vajidan 1-sinf o'quvchilari orasida nuqsoni bor bolalar ham uchramoqdaki, bu holat o'qituvchi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ular bilan ko'proq mashqlar bajarishni taqozo etmoqda. Modomiki, texnologiyalari o'qitishning samarali vositasi bo'lib, ta'lim tizimidan korreksion mashg'ulotlar o'tkazishning qo'shimcha interaktiv materiali sifatida xizmat qilgan ekan, nutqida nuqsoni bor maktabgacha

yoshdagi bolalar ta'limining samaradorligi axborot- kommunikatsion texnologiyalari asosidagi logopedik mashg'ulotlarga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqining asosiy komponentlari: fonetik, fonematik, leksik - grammatik, nutqni rivojlantirish, shakllantirish va korrektsiyalash uchun mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Animatsion dasturlarda berilgan mashg'ulotlar ularning havas va rang barangliklarga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, bevosita qo'l harakatlari bilan mashqlar bajarishga intiladi. Zamonaviy o'qituvchi AKTdan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda «har bir bola alohida bir sayyora» degan tushuncha mohiyatiga bugungi kunning eng dolzarb masalasi sifatida kompetensiyaviy yondashsa - bu asosiy yutug'imizdir.

Xulosa. Raqamli texnologiyalarni boshlang'ich sinflarda joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotga ishlov berish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Muhimi, bu jarayon pedagoglar tomonidan puxta rejalashtirilgan va didaktik jihatdan asoslangan holda amalga oshirilishi zarur. Shu tariqa, raqamli avlod uchun raqamli ta'limning eshiklari keng ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent. 2019.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1998. 64b.
3. Umumta'lim fanlari metodikasi. Ma'naviy - ma'rifiy, ilmiy, metodik nashr. 2018-yil sonlari

AGROBIZNESNI TASHKIL QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR

Xolboyeva Farangiz

TerDMAU talabasi

Annotatsiya: Agrobiznesni tashkil qilishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularning barchasi qishloq xo'jaligi sektori, ishlab chiqarish jarayonlari, marketing va sotish strategiyalariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada har bir muammoning kelib chiqish sabablarini, ularni bartaraf etish usullarini va agrobiznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur choralari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: capital, kredit, moliyaviy, biznes, texnika, uskunalar, agrobiznes

ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ АГРОБИЗНЕСА

Аннотация: При организации агробизнеса возникает ряд проблем, каждая из которых влияет на сельскохозяйственный сектор, производственные процессы, маркетинг и стратегии продаж. В статье рассматриваются причины возникновения каждой проблемы, методы их устранения и необходимые меры для обеспечения устойчивого развития агробизнеса.

Ключевые слова: капитал, кредит, финансы, бизнес, технологии, оборудование, агробизнес

PROBLEMS IN ORGANIZING AGRIBUSINESS

Abstract: When organizing an agribusiness, a number of problems arise, each of which affects the agricultural sector, production processes, marketing and sales strategies. The article examines the causes of each problem, methods for eliminating them and the necessary measures to ensure sustainable development of agribusiness.

Keywords: capital, credit, finance, business, technology, equipment, agribusiness

Kirish. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi yoki noto'g'ri taqsimlanishi agrobiznesni tashkil qilishda duch keladigan eng katta muammolardan biridir.

1.Moliyaviy Muammolar

Moliyaviy resurslarning etishmasligi: Agrobiznesni boshlash uchun katta moliyaviy investitsiyalar talab etiladi, ayniqsa, yer, texnika va xodimlar bilan bog'liq xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin. Ko'plab fermerlar va agrobiznes boshqaruvchilari o'zlarining boshlang'ich kapitaliga ega bo'lmasliklari sababli kreditlar yoki investorlar izlashlari kerak.

Muammoning sabablari: Yuqori boshlang'ich xarajatlar: Yer va texnikalar sotib olish, ishlab chiqarish uskunalari joriy etish va xodimlarni ishga olish uchun katta

kapital kerak bo'ladi. Kredit olishdagi qiyinchiliklar: Qishloq xo'jaligi sektori o'zining o'zgaruvchanligi va yuqori xavfli tabiati bilan banklar va moliyaviy tashkilotlar uchun kamroq jozibador bo'lishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligi bizneslariga kredit olishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Muammoni hal qilish yo'llari: Soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalari: Ko'plab mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga subsidiya yoki soliq imtiyozlari beriladi, bu esa fermerlarga va agrobiznes tashkilotlariga moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Investorlar va kreditlar: Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qiziqqan xususiy investorlar yoki banklardan kredit olish orqali moliyaviy manbalarni topish mumkin.

Jamg'armalar va grantlar: Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar qishloq xo'jaligi bizneslariga maxsus grantlar yoki jamg'armalar taqdim etishi mumkin.

2. Texnik Muammolar

Agrobiznesda texnik nosozliklar yoki eskirgan texnologiyalar ko'pincha samarali ishlab chiqarishga to'sqinlik qiladi.

Texnik muammolar va nosozliklar: Texnikalarning eskirishi: Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnika va uskunalar tez eskiradi, bu esa ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Texnologik jihatdan orqada qolish: Agrobiznesni tashkil qilayotgan fermerlar ko'pincha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Yangi texnologiyalarni qabul qilish va ular bilan ishlash ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Muammoning sabablari: Yuqori texnik xarajatlar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish uchun katta kapital kerak bo'ladi, bu esa ko'plab fermerlar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Texnik xodimlarning yetishmasligi: Yangi texnologiyalarni samarali ishlatish uchun malakali xodimlar kerak bo'ladi, ammo qishloq hududlarida malakali mutaxassislar yetishmaydi.

Muammoni hal qilish yo'llari: Texnologiyalarni takomillashtirish: Agrobiznesni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni o'z vaqtida joriy etish zarur. Bu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslarni tejash mumkin. Xodimlar tayyorlash: Malakali mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash dasturlari orqali texnik muammolarni bartaraf etish mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish: Zamonaviy texnikalarni doimiy ravishda texnik xizmat ko'rsatish orqali ishlashini ta'minlash kerak.

3. Bozor Muammolari

Agrobiznesning muvaffaqiyati bozor talabiga bog'liq bo'lib, bozorni tahlil qilish va unga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish zarur.

Bozorni prognoz qilishdagi qiyinchiliklar: Agrobiznesda bozor talabini aniq prognoz qilish juda qiyin. Narxlarning o'zgarishi, talabning kamayishi yoki ortishi kabi noaniqliklar ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Raqobatbardosh bo'lishdagi qiyinchiliklar: Bozor o'zgargan sari, yangi raqobatchilar paydo bo'ladi. Bu raqobatni yengish va o'z mahsulotlarini bozorga chiqarishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Muammoning sabablari: Bozorni tahlil qilishda yetarli resurslarning yo'qligi: Ko'plab fermerlar bozorni tahlil qilish uchun yetarli resurslarga ega emaslar, bu esa ularni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majbur qiladi.

O'zgaruvchan narxlar: Agrobiznesda narxlar tez-tez o'zgarib turadi, bu esa ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini murakkablashtiradi.

Muammoni hal qilish yo'llari: Bozorni doimiy tahlil qilish: Bozorni muntazam ravishda tahlil qilish va talab o'zgarishlarini o'rganish, ishlab chiqarishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bozor segmentatsiyasini amalga oshirish: Mahsulotni o'zgaruvchan bozorga mos ravishda segmentatsiya qilish va turli bozorlarga moslashtirish orqali raqobatni engish mumkin.

Yangi bozorlarni izlash: Mahsulotlarni yangi bozorga chiqarish orqali riski kamaytirish mumkin. Onlayn savdo, eksport va boshqa alternativ bozorlar bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

4. Iqlim O'zgarishlari va Ekologik Muammolar

Agrobiznesda eng katta qiyinchiliklardan biri - iqlim o'zgarishlari va atrof-muhitning salbiy ta'siri.

Iqlim o'zgarishlari ta'siri: Qurg'oqchilik yoki ortiqcha yomg'ir: Iqlim o'zgarishi sababli qurg'oqchilik yoki ortiqcha yomg'irlar yuzaga kelishi mumkin. Bu mahsulot yetishtirishni murakkablashtiradi va hosilni kamaytiradi. Iqlimga mos ekinlarni tanlash: Iqlim sharoitlariga mos keladigan ekin turlarini tanlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Muammoning sabablari: Iqlim sharoitlarining barqarorsizligi: Har yili o'zgarib turadigan iqlim sharoitlari hosilni barqaror yetishtirishni murakkablashtiradi. Ekologik izni cheklangan resurslar: Suv, yer va boshqa resurslarning cheklanganligi ham agrobiznesni qiyinlashtiradi.

Muammoni hal qilish yo'llari:

Ekologik jadal o'zgarishlarga moslashish: Agrobiznesni iqlim o'zgarishlariga moslashtirish uchun ekin turlarini tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish: Suv resurslarini tejash va samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash kerak. Barqaror qishloq

xo'jaligi: Ekologik toza va barqaror ishlab chiqarish usullarini joriy etish, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yurtimizda Agrobiznesda uchrayotgan muammolar o'rganilib, ularni hal qilish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ilmiy maqolalar to'plami. Agrobiznesni boshqarish. Toshkent., Ekonomika, 2020
2. O'zbekiston Davlat Statistika Qo'mitasi: Qishloq xo'jaligi, agrobiznes va sanoat sohalariga oid statistik ma'lumotlar.
3. ilmiybaza.uz
4. <https://agroxizmatlar.uz/>
5. <https://www.agro.uz/>

YOSHLAR ORASIDA ICHKI TURIZM O'RNI

Ermatova Malika Hikmat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlari orasida ichki turizmning o'rni, uning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda ichki turizmning yosh avlod tarbiyasiga ta'siri, milliy qadriyat va tarixiy merosni anglashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, statistika va raqamlar asosida tahlillar berilib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Maqola yoshlar ongida vatanparvarlik, ekologik madaniyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ichki turizmning kuchli vosita ekanini isbotlab beradi.

Kalit so'zlar: Ichki turizm, yoshlar, tarixiy meros, madaniy qadriyatlar, vatanparvarlik, turistik infratuzilma, O'zbekiston, milliy g'urur, ekologik ong, sayohat, ijtimoiy faollik, turizm statistikasi, turizm siyosati, yoshlar turizmi, madaniy-ma'rifiy sayohatlar.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan. Turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlovchi, inson tafakkurini kengaytiruvchi va jamiyat ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Ayniqsa, ichki turizmni rivojlantirish orqali aholi, xususan, yoshlarning vatanparvarlik ruhini oshirish, tarixiy meros va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirish mumkin.

O'zbekiston yoshlari orasida ichki turizmning o'rni ayni paytda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni sog'lom va har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda sayohat va turizmning roli juda katta.

Ichki turizm nima va uning yoshlar hayotidagi o'рни

Ichki turizm deganda, fuqaroning o'z mamlakati hududida sayohat qilishi, madaniy, tarixiy, tabiiy maskanlarni ziyorat qilishi tushuniladi. Bu jarayonda odamlar yurt ichidagi turli hududlarga borib, o'z diyoringing boy tarixiy merosi, tabiati, urf-odatlarini bilan bevosita tanishadi.

Yoshlar uchun ichki turizm – bu nafaqat hordiq chiqarish, balki o'rganish, tajriba orttirish va ruhiy o'sish imkoniyati hamdir. Sayohat davomida ular o'zlarining yurti haqida ko'proq bilib, milliy identifikatsiyani chuqurroq anglaydilar. Bundan tashqari, ichki turizm orqali yoshlar o'z yurti go'zalliklarini kashf etadi, o'zlariga bo'lgan ishonch ortadi va yurtga bo'lgan muhabbat mustahkamlanadi.

Ichki turizmning yoshlar uchun foydali jihatlari

1. **Tarixiy va madaniy ongni rivojlantiradi.** Yoshlar tarixiy obidalar, madaniy maskanlar bilan tanishish orqali o'z milliy merosiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
2. **Vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi.** O'z yurtining tabiiy go'zalliklari va tarixiy yodgorliklarini ko'rgan yoshda g'urur hissi paydo bo'ladi.
3. **Ijtimoiy faollikni oshiradi.** Turizm tadbirlari ko'pincha guruhlar shaklida tashkil etiladi, bu esa yoshlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik, ijtimoiy muloqotni rivojlantiradi.
4. **Sog'lom turmush tarzini shakllantiradi.** Sayohatlar – bu harakat, yurish, toza havoda bo'lish demakdir, bu esa yoshlar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
5. **Ekologik ongni rivojlantiradi.** Tabiiy maskanlarga borish, ularning holatini ko'rish orqali yoshlar atrof-muhit muhofazasiga befarq bo'lmaydi.

O'zbekistonda ichki turizm imkoniyatlari

O'zbekiston hududi tarixiy obidalar, noyob tabiiy maskanlar va madaniy merosga boy mamlakat hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlar ko'hna tarixni o'zida mujassam etgan bo'lsa, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Zarafshon vodiysi, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston kabi hududlar o'ziga xos tabiiy va madaniy xilma-xillikka ega.

Yoshlar uchun maxsus yo'nalishlar, turizm marosimlari, tarixiy-obidalar va madaniyat markazlariga tashriflar tashkil etilishi ularning bilim va dunyoqarashlarini boyitishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 2021–2025 yillarda ichki turizmni

rivojlantirish strategiyasi doirasida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda, xususan yoshlar sayohatlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy qilinmoqda.

Ichki turizmga duch kelinayotgan muammolar

Shunga qaramay, ichki turizmni yanada rivojlantirish yo‘lida ayrim muammolar mavjud:

- **Axborot tanqisligi.** Ko‘plab yoshlar yurt ichidagi turistik joylar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas.
- **Narxlar siyosati.** Ba’zi sayohat yo‘nalishlari yoshlar uchun iqtisodiy jihatdan qulay emas.
- **Transport va infratuzilma muammolari.** Ayrim turistik hududlarga yetib borishda transport vositalari yoki yo‘l sharoitlari yetarli darajada emas.
- **Madaniy xizmatlar yetishmasligi.** Sayohat chog‘ida qo‘shimcha madaniy tadbirlar, ko‘ngilochar dasturlar yetarli emasligi kuzatiladi.

Taklif va xulosalar

Ichki turizmni yoshlar orasida ommalashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Maktab, kollej va universitetlarda turizmga oid fanlar, seminar va sayohatlar sonini ko‘paytirish;
- “Yosh sayyohlar klubi” kabi ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish;
- Turistik xizmatlar narxini yoshlar uchun maqbul qilish;
- Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ichki turizm bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini olib borish;
- Mahalliy hokimiyatlar tomonidan yoshlar uchun bepul yoki arzon sayohat dasturlarini tashkil etish.

Tahlil va statistik ma'lumotlar

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tegishli tashkilotlar tomonidan ichki turizmni rivojlantirish borasida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Bu boradagi rasmiy statistik ma’lumotlar yoshlar orasida ichki turizmga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Raqamlar orqali ichki turizm:

- 2023-yilda O‘zbekistonda **6,5 milliondan ortiq ichki turistlar** ro‘yxatga olingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan **20%** ga oshgan.
- Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlariga ko‘ra, ichki sayohat qiluvchilarning **taxminan 60 foizini yoshlar** tashkil etmoqda.
- 2022–2024 yillarda “**Yoshlar turizmi**” dasturi asosida **300 mingdan ortiq talabalar** uchun madaniy-tarixiy obidalarga sayohatlar tashkil etildi.
- “**O‘zbekistonda sayohat qil!**” milliy loyihasi doirasida yoshlar uchun **70 dan ortiq yo‘nalishda chegirmali paketlar** taklif qilindi.

Ushbu raqamlar mamlakatda ichki turizm bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning amaliy samara berayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida tarixiy va madaniy meros obyektlariga, tabiiy go‘zal maskanlarga qiziqish ortib borayotgani quvonarlidir.

Yoshlarda kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlar

Ichki turizmga ishtirok etgan yoshlar orasida quyidagi ijobiy natijalar ko‘zga tashlanmoqda:

- **Milliy g‘urur hissi oshgan.** So‘rovnomalarga ko‘ra, sayohat qilgan talabalar va o‘quvchilarning 85 foizi o‘z yurtining tarixi va madaniyatiga nisbatan qiziqishi oshganini bildirgan.
- **Ijodiy fikrlash kuchaygan.** Ichki sayohatlarda qatnashgan yoshlarning 60 foizi o‘zlarining yangi loyihalar, bloglar va ijtimoiy tarmoq sahifalarida O‘zbekistonning turistik salohiyatini yoritishni boshlagan.
- **Sog‘lom turmush tarzi shakllangan.** Faol sayohatlarda ishtirok etish natijasida yoshlarning jismoniy faolligi oshib, sportga bo‘lgan qiziqish kuchaygan.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari – real misollar

O‘zbekistonning turli hududlarida ichki turizmni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tajribalar muhim natija berdi:

- **Samarqand viloyatida** tashkil etilgan “Yoshlar sayohati festivali” doirasida 2023-yilda **20 mingdan ortiq yoshlar** Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi va boshqa obidalarga sayohat qildi.

- **Surxondaryo viloyatida** “Eco Youth Tour” dasturi orqali yoshlar Boysun tog‘lari va Termiz arxeologik yodgorliklariga olib borildi. Ishtirokchilarning 90% dasturdan mamnun bo‘lgan.
- **Farg‘ona vodiysida** talabalar uchun “Madaniyat va mehnat” ekspeditsiyalari tashkil etilib, yoshlar mehnat ta‘tilini turizm bilan birgalikda o‘tkazishga imkon topdi.

Bu kabi tajribalar boshqa hududlarda ham tatbiq qilinadigan bo‘lsa, ichki turizm infratuzilmasi yanada kengayadi va yoshlar ishtiroki chuqurlashadi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ichki turizm yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik hissini shakllantirish va bilim doirasini kengaytirishda muhim omildir.
2. So‘nggi yillarda davlat siyosati natijasida ichki turizm bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ammo hali qilinadigan ishlar ko‘p.
3. Yoshlar orasida ichki turizmni rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:
 - Maxsus mobil ilovalar va interaktiv xaritalar orqali turistik yo‘nalishlar haqida ma‘lumot tarqatish;
 - Ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda muntazam sayohatlar tashkil etish;
 - “Yosh sayyoh elchisi” kabi ijtimoiy tashabbuslarni yo‘lga qo‘yish;
 - Turistik obyektlarda yoshlar uchun chegirmali tariflar va bepul xizmatlarni kengaytirish.

Ichki turizmni yoshlar orasida ommalashtirish – bu nafaqat turizm rivoji, balki jamiyatning ma‘naviy taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash va kelajak avlodni ongli tarbiyalash yo‘lida muhim qadamlardir. Shu sababli, har bir ta‘lim muassasasi, mahalliy hokimiyat, nodavlat tashkilotlar va yoshlarning o‘zlari ham bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Xulosa

Ichki turizm – bu yoshlar tarbiyasi, bilim doirasini kengaytirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali vositadir. O‘zbekiston yoshlarining ichki turizmga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash orqali kelajakda o‘z diyorini chin dildan

sevuvchi, tarixiy merosiga e'tiborli, faol va ongli avlodni shakllantirish mumkin. Shunday ekan, ichki turizmni rivojlantirish – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning muhim yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. *Turizm asoslari*. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020.
2. Alimov A.A. *Turizm geografiyasi*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
3. Bobojonov U.S. *Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda turizmning o'rni*. – Toshkent: TDPU, 2022.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” haqidagi PF–60-sonli farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti – www.merostourism.uz
7. Saidov A. *O'zbekistonning turistik salohiyati va rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
8. To'xtayeva D.K. *Ichki turizmni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
9. Turizm sohasidagi islohotlar va statistik tahlillar // “Yoshlar va innovatsiyalar” ilmiy-amaliy jurnal. – 2023. №2.
10. Yusupov B. *Yoshlar va zamonaviy turizm*. – Farg'ona: Farg'ona politexnika instituti nashriyoti, 2021.

SHAXS PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sobirov Abdulaziz Abduroziqovich

Buxoro davlat pedagogika instituti psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya:

Bugungi kunda shaxsda psixologik salomatlikni tadqiq qilish va uni musthkamlash barcha davlatlarda turlicha ko‘rinishlarda amalga oshirilmoqda. Aynan shaxs bilan bog‘liq psixologik salomatlikni shakllantirish tizimining takomillashtirilishi tadqiqot metodikalarini tanlashimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi kunda o‘sib kelayotgan har bir yoshning o‘ziga xos psixologik imkoniyatlarini to‘g‘ri talqin qilish va shu asosda uni hayotga, turli xil ijtimoiy vazifalarni bajarishga yo‘naltirish barcha sohalar kabi psixologiyaning ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik salomatlik, psixologik salomatlikni shakllantirish, tadqiqot metodlari,shaxs.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ЛИЧНОСТИ

Собиров Абдулазиз Абдурозикович

Доцент кафедры психологии Бухарского государственного педагогического
института

Аннотация:

Сегодня исследования и укрепление психологического здоровья личности проводятся во всех государствах в различных формах. Именно совершенствование системы формирования психологического здоровья, связанного с личностью, становится важным в нашем выборе методик исследования. Более того, сегодня одна из главных задач психологии, как и всех отраслей, - правильно интерпретировать специфические психологические возможности каждого подрастающего возраста и на этой основе ориентировать его на жизнь, на выполнение различных социальных задач.

Ключевые слова: психологическое здоровье, формирование психологического здоровья, методы исследования, личность.

Qolaversa, har bir shaxsning o‘ziga xos tabiati, ma’naviyati, qiziqishlari va o‘ziga xos dunyoqarashlari mavjudki, ushbu xususiyatlar asosida shaxs hayotini har jihatdan to‘g‘ri va mazmunli tarzda shakllantirish mumkin bo‘ladi. Albatta, ushbu

ishni amalga oshirish uchun esa ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan shaxsda psixologik salomatlikni shakllantirish bo'yisha amaliy tavsiyalarni ishlab shiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, psixologik salomatlikni o'lchash mezonlari, darajalari, ko'rsatkichlari, o'ziga xos xususiyatlari, test yaratish va undan turli yoshdagi kishilar psixologik salomatligini tekshirishda foydalanish xilma-xil ilmiy-nazariy negizlarga qurilgandir. Ana shu boisdan, biz ularni tahlil qilganda, bir nechta yo'nalishga ajratib, talqin mohiyatini osonroq tushunish, idrok qilish, muayyan xususiyatga, shaklga, darajaga, mantiqiy izshillik bilan fikrlarning uyg'unlashishiga murojaat qilishga harakat qildik. Ushbu holatdan kelib chiqib tadqiqot metodikalari tanlandi. Shu nuqtai nazardan ham tadqiqotimizning keyingi bosqichida tadqiqot metodikalari va ularni amaliyotda qo'llash tartiblari haqida ma'lumot beramiz. Ma'lumki, har bir ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishi, avvalo shu tadqiqot salohiyatini belgilovchi metodikalarga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan tadqiqot maqsadiga mos ravishda tanlangan har bir metodika mazkur dissertatsiyada belgilangan vazifalarning bajarilishini empirik jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Albatta har bir metodikani qo'llash va uning natijalarini tahlil qilish orqali shaxsda psixologik salomatlikning pedagogik-psixologik o'rni va istiqbollari empirik jihatdan baho berish mumkin, deb o'ylaymiz.

Bir qator mualliflar psixologik va psixologik salomatlikni sinonim tushunchalar deb bilishadi biz boshqacha nuqtai nazarga ega bo'lishimizga qaramay, Derogatisning metodikasidan foydalangan holda shaxs psixologik salomatligini va ularda namoyon bo'ladigan psixologik salomatlik omillarini o'rganishga harakat qildik(1-jadvalga qaralsin):

1-jadval

Shaxsda psixologik salomatlik omillarining namoyon bo'lishi (Derogatis)

Shkalalar	25-35 yoshgacha bo'lgan respondentlar	40-50 yoshgacha bo'lgan respondentlar	Manna-uitni U-ko'rsatkichi	P-ko'rsatkich darajasi
Depressivlik	0,65	0,88	2382,4**	0,00
Xavotirlik	0,78	0,59	2505**	0,00
Fobiyalar	0,19	0,30	2207**	0,00
Agrssivlik	0,25	0,42	1521**	0,00

Obsessiv-Kompulsivlik	0,28	0,42	2552**	0,05
Somatizatsiya	0,58	0,38	1281**	0,00
Izoh.**p≤0,001; *p≤0,05.				

Ushbu metodika bo'yicha olingan natijalar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. Yoshi kattaroq shaxslar orasida ba'zi shkalalarda sezilarli farqlar kuzatildi. Biz tadqiqot jrayonida shaxs faoliyatida psixologik salomatlik omillarini tadqiq qilish uchun ularni 2 toifaga bo'lib o'rgandik. Ya'ni 25 va 35 yoshgacha bo'lgan respondentlar va 40-50 yosh oralig'ida bo'lgan respondentlar olindi. Ushbu metodika bo'yicha olingan natijalar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. 40-50 yosh oralig'ida bo'lgan shaxslarda «Agressivlik», omili 0.42% tashkil qildi. Demak natijalardan ko'rinib turibdiki bu toifa shaxsda ko'p vaqt fiziologik va psixologik bosim ostida faoliyat yuritganlari tufayli ulardagi idrok, xotira, va fiziologik buzilishlar sabab bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek bu shaxsda affektiv portlashlar tez-tez yuz berishi mumkin. Psixologik faoliyatning bunday ko'rinishlari shaxsni psixologik kasal sifatida tavsiflamaydi. Biroq, ular boshdan kechirayotgan neyropsixotik stress yuqoridagi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

25 va 35 yoshgacha bo'lgan shaxsda xavotirlik omili eng yuqori 0.78% tashkil qildi. Bu omil bo'yicha o'rtacha qiymatlar tajribali shaxs guruhiga qaraganda yuqori. Bundan ko'rinib turibdiki bu shaxs o'z hayotidagi qiyinchiliklar, faoliyatni tark etish va yoki uni boshqasi bilan almashtirish zarurati haqida tez-tez o'ylash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Demak yuqoridagi tahlililardan ko'rish mumkinki har qanday salbiy holatlar shaxsni shaxsiy fazilatlarining og'irlik darajasini oshiradi va natijada ularning psixologik sog'lig'ining yomonlashishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Каландия А.Т. Психологические аспекты надежности спортсменов в период подготовки к Олимпийским играм / А.Т. Каландия // Вестник Университета Российской академии образования - 2010. - № 1. - С. 112-118.
2. Калитеевская Е.Р. Психическое здоровье как способ бытия в мире: от объяснения к переживанию /
3. Карпов А.В. Психология сознания: метасистемный подход / А.В. Карпов. - М. : РАО, 2011. - 1088 с.

4. Карамян.М.Х. Социально-психологические особенности личности при психосоматических заболеваниях: Автореф. дисс. ... на соискание кандидата. псих. наук. – М.: 2000, – 19 с.

5.Собиров.А.А.Психологическое здоровье спортсменов занимающихся экстремальными видами спорта Вестник интегративной психологии. // – Ярославль, 2023. Выпуск № 27. – С. 328-331. (19.00.00; №2).

6. Собиров.А.А.Психическое здоровье. SCIENCE AND EDUCATION
ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5 MAY 2022

**TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH (KAPITALBANK MISOLIDA)****Sherdonayeva Gulnoz Isroil qizi**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, iqtisodiyot yo'nalishi, 1-kurs 124- guruh
magistranti**Mamadjanova Tuyg'unoy Ahmadjanovna**

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada tijorat banklarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor Kapitalbank misolida xizmat ko'rsatish tizimini optimallashtirish imkoniyatlariga qaratiladi. Bank xizmatlarida texnologik innovatsiyalarni joriy qilish, mijozlarga qulaylik yaratish, raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Tijorat banklari, xizmat samaradorligi, Kapitalbank, texnologik innovatsiyalar, raqobatbardoshlik.

Abstract

This article examines the issues of improving the efficiency of service provision in commercial banks. The main focus is on the possibilities of optimizing the service system using the example of Kapitalbank. The main ways of introducing technological innovations in banking services, creating convenience for customers, and increasing competitiveness are analyzed.

Keywords. Commercial banks, service efficiency, Kapitalbank, technological innovations, competitiveness.

KIRISH

Tijorat banklari iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, ular orqali aholiga keng ko'lamlı moliyaviy xizmatlar ko'rsatiladi. Xizmat ko'rsatish samaradorligi esa banklarning raqobatbardoshligini ta'minlash va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada tijorat banklaridagi xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish yo'llari o'rganiladi va Kapitalbank misolida aniq yechimlar taklif etiladi. Tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib, ularning samarali faoliyati moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi raqobatbardosh muhitda mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish va ularning talablariga mos yechimlarni taklif qilish tijorat banklari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada Kapitalbank misolida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirish usullari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tijorat banklarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, texnologik rivojlanish, raqamli bank xizmatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish kabi sohalarda adabiyotlar ko'pdir. Bunda [mualliflar] tijorat banklarida innovatsiyalarni joriy qilishning afzalliklari haqida to'xtalib o'tishgan. Shuningdek, Kapitalbankning so'nggi yillarda ko'rsatayotgan natijalari ham ushbu mavzuga dolzarb ahamiyat qaratadi.

Tijorat banklarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar ish olib borgan. Xususan, xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojlarini qondirish bo'yicha turli modellar ishlab chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar, elektron bank xizmatlari va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar xizmat ko'rsatish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun texnologik integratsiya va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada Kapitalbank misolida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan empirik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

Anketalar orqali mijozlarning fikrlarini tahlil qilish;

Kapitalbank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning samaradorligini o'rganish;

Boshqa tijorat banklari bilan taqqoslash orqali xizmat ko'rsatish sifatini baholash;

Innovatsion texnologiyalarning xizmat ko'rsatishga ta'sirini aniqlash.

Maqolada iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot va Kapitalbankning xizmat ko'rsatish tizimidagi o'zgarishlar o'rganildi. Shuningdek, intervyu usuli yordamida mijozlar va xodimlar o'rtasida xizmat ko'rsatish samaradorligiga bo'lgan munosabat tahlil qilindi. Kapitalbankning oxirgi besh yillik moliyaviy ko'rsatkichlari asosida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari o'rganildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Kapitalbankda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bir nechta chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, mijozlarga xizmat ko'rsatishning onlayn tizimlarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatishni tezlashtiruvchi texnologiyalarni joriy qilish orqali samaradorlik sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda personal yondashuvni takomillashtirish muhim omil ekanligi aniqlandi.


Tadqiqot natijalari Kapitalbank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surdi:

Raqamli xizmatlarni rivojlantirish – Mobil ilovalar va internet-banking xizmatlarini optimallashtirish.

Mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish – Shaxsiylashtirilgan xizmat turlarini kengaytirish.

Xizmat tezligini oshirish – Navbatlarni kamaytirish va tezkor xizmat ko'rsatish tizimlarini joriy etish.

Xodimlarning malakasini oshirish – Bank xodimlari uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.



Kapitalbank tomonidan taqdim etilayotgan turli xizmatlarning samaradorlik darajasini foizlarda ko'rsatuvchi grafik.

1-jadval. Xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha o'zgarishlarni ifodalovchi jadval

Yil	Xizmat ko'rsatish tezligi (soat)	Mijoz qoniqishi (%)	Mijozlar soni (ming)
2019	3.5	70	500
2020	3.0	75	550
2021	2.7	80	600
2022	2.3	85	650
2023	2.0	90	700

XULOSA

Tijorat banklarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bugungi kunda moliyaviy bozorning raqobatbardoshligi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Kapitalbank misolida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologik yangiliklarni joriy etish, xizmatlarni avtomatlashtirish va mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash xizmat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar boshqa tijorat banklari uchun ham qo'llanilishi mumkin. Tijorat banklarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, mijozlarga qulay sharoit yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin. Kapitalbank misolida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalar xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, J., & Brown, T. (2021). Efficiency in Banking Services. *Journal of Financial Studies*, 12(3), 123-134.
2. Johnson, M. (2020). Technological Innovations in Banking. *Journal of Business Management*, 8(2), 89-101.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Moliyaviy sektor rivoji. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
4. Kapitalbank hisobotlari (2018-2023). Kapitalbank yillik hisobotlari.

**TITLE: TRANSLANGUAGING AS A SCAFFOLDING STRATEGY IN
MULTILEVEL EFL CLASSROOMS IN UZBEKISTAN**

Author: Nafosat Mirvafoeva's

Affiliation: TESOL Educator, Tashkent, Uzbekistan

Email: nmirvafoeva@webster.edu

Abstract. Meeting the varied demands of students with different levels of English proficiency is a problem for teachers in Uzbekistan's increasingly multilingual EFL classes. In order to promote language development in multilevel classrooms, this research investigates translanguaging as an engaging and inclusive scaffolding technique. Based on sociocultural theory and translanguaging pedagogy, I consider effective teaching methods and student reactions from my own experience working with ninth-grade Uzbek students getting ready for CEFR-based tests and IELTS examinations. According to the results, learners can access knowledge, gain metalinguistic awareness, and boost their confidence by strategically using Uzbek and Russian in addition to English. In order to enable EFL teachers to see multilingualism as a pedagogical asset rather than a hindrance, this presentation attempts to provide contextually sensitive, evidence-based techniques.

Overview I work with multiple EFL students in Tashkent as a TESOL-certified English teacher, and they bring a multitude of linguistic and cultural resources to the classroom. However, these resources are frequently ignored by the dominant monolingual philosophy in English language instruction, which encourages students to keep their first language (L1) distinct from their English language learning process. In Uzbekistan, where many students speak Russian or Uzbek at home and hardly ever interact with English outside of the classroom, this is particularly troublesome. I have used translanguaging as an educational technique to address this gap and help students connect their academic objectives with their language reality.

Conceptual Structure The sociocultural theory (Vygotsky, 1978) that underpins this work highlights the importance of social contact and cultural resources, such as language, in the learning process. According to García and Wei (2014), translanguaging is the process through which multilingual speakers strategically and

flexibly use their whole language repertoire. By acknowledging bilingualism as an integrated system, it transcends code-switching. According to García, Johnson, and Seltzer (2017), translanguaging sees Uzbek and Russian as essential instruments for meaning-making, cognitive growth, and identity construction rather than as interference with English education.

Conceptual Structure The sociocultural theory (Vygotsky, 1978) that underpins this work highlights the importance of social contact and cultural resources, such as language, in the learning process. According to García and Wei (2014), translanguaging is the process through which multilingual speakers strategically and flexibly use their whole language repertoire. By acknowledging bilingualism as an integrated system, it transcends code-switching. According to García, Johnson, and Seltzer (2017), translanguaging sees Uzbek and Russian as essential instruments for meaning-making, cognitive growth, and identity construction rather than as interference with English education.

Context of the Classroom Ten ninth-graders from Uzbek backgrounds, ranging in English level from CEFR A2 to B1, are in my class. Others have trouble forming simple sentences, while others are getting ready for international tests like the IELTS. The majority of the pupils have little exposure to English outside of the classroom, and they all speak Uzbek or Russian as their first language. For many pupils in this situation, a strictly English-only strategy has not worked. Students frequently worry about making mistakes or not understanding directions. According to Cummins (2000), pupils may become emotionally and cognitively disengaged when they are made to repress their L1s. I used translanguaging techniques in a unit on academic writing and terminology to combat this.

Classroom Methods and Results Among the translanguaging-based techniques I used were:

- **Multilingual Word Walls:** To help pupils link ideas, important vocabulary terms were presented in Russian, Uzbek, and English.

- **L1 Group Discussions:** Prior to writing assignments, students were urged to generate ideas in Russian or Uzbek and then translate them into English.

- **Dual-Language Journals:** Students used both English and Uzbek to reflect on their learning, which encouraged engagement from students who were less comfortable speaking the language.

- **Teacher Modeling:** I decreased misunderstanding and enhanced task completion by using specific Uzbek phrases to explain abstract grammatical rules or

exam instructions. As time went on, I observed that students were more involved in class, less anxious in the classroom, and performed better on formative writing tests.

Educational Consequences According to Hornberger and Link (2012), the findings bolster the idea that translanguaging is an effective scaffolding strategy, particularly when learners are using the same L1. In a multilevel class, it enables differentiation by providing information to students with lower skill levels and enabling students with higher competency levels to hone and experiment with their language use. A culturally sustainable approach that fits students' identities, linguistic origins, and cognitive demands is provided via translanguaging in EFL courses in Uzbekistan and comparable settings. It challenges educators to reconsider classroom conventions, affirm students' multilingualism, and support student autonomy (Canagarajah, 2013; Norton, 2013).

In conclusion The practical, theoretically based solution to the actual difficulties of mixed-ability language classrooms is translanguaging. It creates inclusive, interesting, and productive learning settings by reorienting the attention from language deficit to linguistic resource. Translanguaging helps close the gap between students' academic goals and their real-world experiences in Uzbekistan's changing educational environment, where English is becoming more and more significant but yet not completely incorporated into daily life.

References

- Canagarajah, S. (2013). *Translingual practice: Global Englishes and cosmopolitan relations*. Routledge.
- Cummins, J. (2000). *Language, power and pedagogy: Bilingual children in the crossfire*. Multilingual Matters.
- García, O., & Wei, L. (2014). *Translanguaging: Language, bilingualism and education*. Palgrave Macmillan.
- García, O., Johnson, S. I., & Seltzer, K. (2017). *The translanguaging classroom: Leveraging student bilingualism for learning*. Caslon Publishing.
- Hornberger, N. H., & Link, H. (2012). *Translanguaging and transnational literacies in multilingual classrooms: A bilingual lens*. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 15(3), 261–278.

Norton, B. (2013). *Identity and language learning: Extending the conversation. Multilingual Matters.*

Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes.* Harvard University Press.

DIRIJYORLIK SAN'ATINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA YOSH ISTE'DODLARNI TAYYORLASHDAGI ROLI

Farrux G'aybulloyevich Nurullayev

Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa va tasviriy san'at kafedrası

Asadbek Hikmatov

Master of the Department of Music and Visual Arts

Annotatsiya: Ushbu maqolada dirijyorlik san'atining pedagogik asoslari va uning yosh musiqiy iste'dodlarni tayyorlashdagi o'rni yoritiladi. Dirijyorlik faqat sahnadagi boshqaruv emas, balki san'atning ham pedagogik, ham psixologik jihatlarini birlashtirgan faoliyat sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda dirijyorning metodik yondashuvlari, musiqa tafakkurini rivojlantirishdagi roli, yosh musiqachilarda jamoa ruhini shakllantirish va ularni estetik madaniyatga yo'naltirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, dirijyorlik pedagogikasining asosiy tushunchalarini, uning metodlarini, ijtimoiy-psixologik ta'sirini va yosh avlodni musiqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan amaliy yondashuvlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: dirijyorlik san'ati, pedagogika, musiqiy ta'lim, iste'dod, orkestr, emotsional tarbiya, metodika.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы дирижирования и его роль в воспитании молодых музыкальных талантов. Дирижерство рассматривается не только как режиссёрское искусство, но и как деятельность, сочетающая в себе как педагогические, так и психологические аспекты искусства. В исследовании анализируются методические подходы дирижера, его роль в развитии музыкального мышления, значение формирования командного духа у молодых музыкантов и ориентации их на эстетическую культуру. В статье также рассматриваются основные понятия дирижерской педагогики, ее методы, социально-психологическое воздействие и практические подходы, направленные на музыкальное формирование подрастающего поколения.

Ключевые слова: дирижирование, педагогика, музыкальное воспитание, талант, оркестр, эмоциональное воспитание, методика.

Abstract: This article examines the pedagogical foundations of conducting and its role in the training of young musical talents. Conducting is considered not only as a management on stage, but also as an activity that combines both pedagogical and psychological aspects of art. The study analyzes the methodological approaches of the conductor, his role in the development of musical thinking, the importance of forming a team spirit in young musicians and directing them to aesthetic culture. The article also studies the basic concepts of conducting pedagogy, its methods, socio-psychological impact and practical approaches aimed at the musical formation of the younger generation.

Keywords: conducting, pedagogy, musical education, talent, orchestra, emotional education, methodology.

Kirish. Dirijyorlik san'ati musiqiy ijro etishning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, uning pedagogik qiymati yosh avlodni musiqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'ringa ega. Dirijyor, faqatgina musiqiy asarlarni boshqaruvchi emas, balki ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni musiqiy estetikaga, jamoa ishlash madaniyatiga, hamda ichki irodaga o'rgatadi. Dirijyorlik faoliyati yoshlar orasida musiqiy tafakkurni rivojlantiradi, estetik sezgini kuchaytiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Shu bois, dirijyorning pedagogik roli juda muhim, chunki u musiqaning nafaqat texnikasini, balki uning hissiy va estetik imkoniyatlarini ham o'rgatadi. Ushbu maqola dirijyorlik pedagogikasining metodik va psixologik jihatlarini keng yoritadi, yosh iste'dodlarni tarbiyalashda muhim yondashuvlarni aniqlaydi va ularning musiqiy kasbga bo'lgan yo'nalishini shakllantirishga qaratilgan asosiy g'oyalarni ifodalaydi.

Metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy-tahliliy va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Amaliy dirijyorlik tajribasi asosida yoshlar bilan olib borilayotgan mashg'ulotlar, dars jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik kuzatuvlar, suhbatlar, repertuarni shakllantirishdagi yondashuvlar o'rganilib, umumlashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Nazariyasi. Dirijyorlik san'ati nazariy jihatdan musiqiy tafakkur, psixologik va pedagogik ko'nikmalarni birlashtirgan jarayon sifatida tushuniladi. Dirijyorning ijodiy faoliyati nafaqat orkestr yoki ansamblning sahnada uyg'un ishlashini ta'minlaydi, balki musiqa orqali yoshlarning dunyoqarashi, hissiy rivoji va estetik didini ham shakllantiradi. Dirijyorning pedagogik faoliyati avvalo o'quvchilarga musiqaning tilini tushunishga yordam beradi, musiqiy xotira va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, jamoa ruhini shakllantiradi.

Nazariy yondashuvda dirijyorlik pedagogikasining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Musiqiy tafakkur va ijodiy rivojlanish: Dirijyor o'quvchilarni musiqiy asarni tushunishga, uning strukturaviy tarkibini his qilishga o'rgatadi.
2. Emotsional va estetik tarbiya: Dirijyorlik san'ati orqali o'quvchilar musiqaning estetik boyligini anglaydilar va o'zlari ham emotsional jihatdan boytiladilar.
3. Jamoaviy ish va sahna madaniyati: Dirijyorning roli jamoaviy ishlash, mas'uliyatni his qilish, sahnada to'g'ri munosabatlarni o'rnatish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat.
4. Psixologik yondashuv: Dirijyor o'z shogirdining psixologik holatini hisobga olib, dars jarayonini muvaffaqiyatli boshqaradi, ularning xohish-iste'dodini ochib beradi.

Natija Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dirijyorlik san'atini to'g'ri pedagogik yondashuv asosida o'rgatish yosh iste'dodlarni muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dirijyorlik darslari bolalarda ritm va musiqiy eshituvni rivojlantiradi, jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish, o'zini sahnada erkin tutish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Shuningdek, dirijyorning o'rnak bo'lishi, emotsional yondashuvi va metodik aniqligi o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularni mustaqil ijodga chorlaydi. Bu esa iqtidorli yoshlarning o'z yo'lini topishi, kasb tanlashi va professional rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Dirijyorlik san'ati nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda, balki yoshlarning estetik sezgilari, hissiy va ijodiy rivoji, shaxsiy irodasini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Dirijyorning pedagogik yondashuvi yosh avlodni musiqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Dirijyorlikning muvaffaqiyatli pedagogik modeli musiqiy ta'lim tizimining yuqori darajasini ta'minlaydi va yoshlarning o'ziga xos musiqiy potentsialini yuzaga chiqaradi. O'quvchilarni individual tarzda tarbiyalash, ular bilan ijodiy faoliyatni rivojlantirish va musiqiy asarni to'g'ri his qilishni o'rgatish orqali, dirijyor nafaqat musiqiy kasbni, balki shaxsiyatni shakllantiradi. Bundan tashqari, dirijyorlik san'atini rivojlantirish uchun ta'lim tizimida yangi metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, va pedagogik metodlarni takomillashtirish zarur. Kelajakda dirijyorlik san'atini professional darajada rivojlantirish uchun musiqiy maktablarda, litsey va oliy ta'lim muassasalarida sifatli metodik darsliklar va amaliy mashg'ulotlar joriy etilishi muhim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- [Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'zbek Folklorining O 'rni Va Ahamiyati](#)- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Confrencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG'U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO'GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL](#) . Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .[O'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). Vol. 75 No. 1 (2025): [PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1](#).

10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO 'SHIQLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.](#) International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal oqli, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal-spark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O 'RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitara Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. 2022/11/29 Vol.9, 422-427

19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*. 2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. *Ta'lim fidoyilari*, OOO «Research and publications» 2022. Vol 24, № 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2022 Special issue, 130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. *SCIENTIFIC PROGRESS*. 2021. Vol 2, №4(pp. 588-593)
23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. *Научно– методический журнал «Проблемы педагогики»* №3(48). Москва 2020. С.15-17.
25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях // *Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов*. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI O'STIRISH
VAZIFALARI****Daminova Dilbar Melimurodovna**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Kalit so'zlar: nutq, idrok, ichki nutq, analiz, sintez, o'quvchi, o'qituvchi, rivojlanish, nutq turlari, nutqning mantiqiyligi, bog'lanishli nutq. **Bog'lanishli nutq nima?** Bog'lanishli nutq – bu fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalash, voqea-hodisalarni tartib bilan bayon qilish, suhbatdosh bilan mazmunli va tushunarli muloqot qurish qobiliyatidir. U og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. **Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bog'lanishli nutqni rivojlantirishning ahamiyati** shundaki boshlang'ich sinflar – bu bolalarda til, tafakkur, va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Shu bois o'quvchining fikrni aniq ifodalash qobiliyati shakllanadi nutq orqali muloqotga kirishish va fikr almashish osonlashadi matn tuzish, hikoya qilish, savollarga javob berish, yozma ishlarni bajarish ko'nikmalari rivojlanadi, keyingi fanlarni o'zlashtirish uchun til bazasi yaratiladi.

Bog'lanishli nutqni o'stirish vazifalari bog'lanishli nutqni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim **til materiallari asosida ishlash** so'z boyligini oshirish, sinonim, antonim, ko'p ma'noli so'zlarni to'g'ri qo'llash, gap tuzish, to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish. **nutq turlarini rivojlantirish hikoya qilish**, berilgan rasm, lavha, hayotiy voqea asosida mustaqil matn tuzish.

Tavsiflash hodisani tavsiflab berish bunda **baholash** o'z fikrini asoslab berish masalan, "Nega bu ko'rsatuv yaxshi?" yoki "Nima uchun bu ish to'g'ri emas?"

Tinglash va tushunish ko'nikmasini shakllantirish Matnni diqqat bilan tinglab, asosiy mazmunini aytib berish savollarga javob berish, matn yuzasidan fikr bildirish. **Yozma nutqni rivojlantirish** reja asosida matn yozish matnga sarlavha qo'yish, gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda yozish. **O'qituvchining roli** o'qituvchi quyidagilar orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantiradi mavzuga oid suhbatlar tashkil qilish, yozma va og'zaki topshiriqlar berish, rasm asosida hikoya tuzdirish, rol o'ynash va drammatizatsiya metodlaridan foydalanish, nutqiy muloqotga rag'batlantirish, ijtimoiy mavzularda fikr yuritishga undash. Bog'lanishli nutq – bu bola tafakkuri va muloqot madaniyatining ko'zguisidir. Uni shakllantirish boshlang'ich sinflardanoq tizimli, izchil va ijodiy yondashuvni talab etadi. Shuning uchun

bogʻlanishli nutqni rivojlantirish – nafaqat til darslarining, balki butun boshlangʻich taʼlim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va oʻzaro bogʻlangan maʼnoli qismlarga boʻlinadigan nutq bogʻlanishli nutq deyiladi. Bogʻlanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa oʻqituvchi bergan savolga oʻquvchilarning keng, mukammal ogʻzaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin. Boshlangʻich sinflar metodikasida bogʻlanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) oʻqilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni oʻrganish; oʻquvchilar lugʻatini faollashtirish bilan bogʻliq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam oʻtkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) oʻqilgan matnni turli variantda ogʻzaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida oʻquvchilarning ogʻzaki hikoyasi.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi. Bogʻlanishli nutqdan mashqlarning turli xil boʻlishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish ularga aniq koʻnikmalarni singdirish demakdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari mustaqil mashq sifatida bogʻlanishli nutqni oʻstirishdan quyidagi koʻnikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan toʻliq yoritish koʻnikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, oʻquvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga boʻysundirish koʻnikmasi. Bolalar ishi maʼlum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, oʻzlarining baxtli hayotidan gʻururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur boʻlgan materialni yigʻish. Bu bayonga ham taalluqli boʻlib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini toʻgʻri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi. Oʻqituvchidan oʻquvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini,

o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi.

Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur. Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, tasvir yoki muhokama elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi. Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi. Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish kitobi»da bunday hikoyalar ko'plab berilgan. Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar «O'qish kitobi»da berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent "METHODIST NASHRIYOTI" 2023

2. E. Begmatov, M. Tursunqulov O'zbek nutqi madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi 2015

3. T. Almamatov, Q. M. Yadgarov, Sh. Almamatov., O'zbek tilini o'qitishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo'llanma). -2013.

4. Yusupova M. O'qish va yozuv darslari samaradorligin oshirish. -T.: O'qituvchi, 2008.-67 b

5. Roziqova O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. T.: Yangiasr avlodi, 2005.

6. PIRLS 2021 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi, Boston kolleji Lynch ta'lim maktabi. 2019.

7. Daminova Dilbar. JAHON FANIDA MATEMATIK SAAVODNI RIVOJLANTIRISH MASALLARI. GALAXY INTERNATIONAL INTERNATIONAL DISPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 jild. 11, 03-son, mart. (2023). 307-311 b

8. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. (2023). BOSHLANGANCH 5 I SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAAVOTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Ochiq kirish ombori, 4(3), 971-976.

9. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. (2023). JAHON FANIDA MATEMATIK SAAVODNI RIVOJLANTIRISH MASALLARI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali, 11 (3), 307-311.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATI, MUAMMOLARI VA SOHAGA
OID ILMIY ISHLAR TAHLILI****Abdullayev Mamayusup Kasimovich**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

abdullayevmamayusuf74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish holati, mavjud muammolar va yechimlar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Ta'lim tizimining ilk bosqichida faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy sifati ularning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki shaxsiy fazilatlari, pedagogik qobiliyatlari, kommunikativ yondashuvi va psixologik tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, kasbiy kompetensiyalarni amaliy faoliyat orqali shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mazkur maqolada O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim muassasalaridagi real holat o'rganilgan, mavjud muammolar – o'quv dasturlarining amaliyot bilan mos kelmasligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdagi cheklovlar, shaxsiy yondashuvning sustligi singari jihatlar ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, xorijiy ilmiy adabiyotlar asosida ilg'or tajribalar va amaliy tavsiyalar ham yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'limga ixtisoslashgan pedagoglarni tayyorlashda integrallashgan, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy sifatlar, pedagogik tayyorgarlik, amaliyot, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, o'qituvchi shaxsiyati, ta'lim sifati, boshlang'ich ta'lim.

**СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ, ПРОБЛЕМЫ И
АНАЛИЗ НАУЧНЫХ РАБОТ В ДАННОЙ СФЕРЕ****Абдуллаев Мамаюсуп Касимович****Преподаватель Термезского государственного университета**

Аннотация: В данной статье рассматриваются состояние формирования и развития профессиональных качеств будущих учителей начальных классов, существующие проблемы и пути их решения как с теоретической, так и с

практической точек зрения. Профессиональные качества педагогов, работающих на начальной ступени образования, тесно связаны не только с их знаниями и навыками, но и с личными качествами, педагогическими способностями, коммуникативным подходом и психологической подготовкой. В процессе подготовки будущих учителей особое внимание следует уделить не только теоретическим знаниям, но и формированию профессиональных компетенций через практическую деятельность. В статье исследуется реальное состояние в педагогических вузах Узбекистана, выявляются такие проблемы, как несоответствие учебных программ практике, ограничения в использовании современных образовательных технологий, слабая индивидуализация подхода. Кроме того, на основе зарубежной научной литературы освещается передовой опыт и предлагаются практические рекомендации. По результатам исследования обоснована необходимость внедрения интегративных и инновационных подходов в подготовке педагогов, специализирующихся на начальном образовании.

Ключевые слова: Учитель начальных классов, профессиональные качества, педагогическая подготовка, практика, современные образовательные технологии, профессиональная компетентность, педагогический подход, личность учителя, качество образования, начальное образование.

THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: CURRENT STATE, CHALLENGES, AND ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD

Abdullayev Mamayusup Kasimovich
Teacher at Termez state university

Abstract: This article analyzes the formation and development of the professional qualities of future primary school teachers, examining existing problems and proposed solutions from both theoretical and practical perspectives. The professional qualities of educators working at the initial stage of the education system are closely tied not only to their knowledge and skills but also to their personal attributes, pedagogical abilities, communicative approach, and psychological readiness. In the process of training future teachers, special attention should be paid not only to theoretical knowledge but also to the development of professional competencies through practical activity. This paper explores the current situation in pedagogical higher education institutions in Uzbekistan, identifying key issues such as

the mismatch between curricula and practice, limitations in the use of modern educational technologies, and the weakness of personalized approaches. Furthermore, advanced practices and practical recommendations are highlighted based on foreign scientific literature. The research results substantiate the need to implement integrated and innovative approaches in the training of educators specializing in primary education.

Keywords: Primary school teacher, professional qualities, pedagogical training, practice, modern educational technologies, professional competence, pedagogical approach, teacher personality, quality of education, primary education.

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy ilmiy va texnologik yutuqlarning keng miqyosda tatbiq etilishi bilan uyg'un holda, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning ilk bosqichi hisoblangan boshlang'ich ta'limda faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy sifati va tayyorgarligi, jamiyat taraqqiyotining strategik negizi sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Boisi, inson shaxsining shakllanishi, ilm-fanga bo'lgan qiziqishi, tafakkur darajasi, ijtimoiy moslashuvchanlik va ma'naviy qadriyatlarni idrok etish qobiliyati aynan boshlang'ich maktab davrida barpo etiladi.¹ Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni nafaqat pedagogik tayyorgarlik masalasi, balki umummilliy ahamiyatga molik dolzarb masala sifatida qaralishi lozim. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligi, eng avvalo, ta'lim sifati va mazmuniga, pedagogik ta'limning ilmiy-metodik asoslari, amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unligiga, ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar – bolalarni tushunish, mehribonlik, sabr-toqat, emotsional barqarorlik, ijtimoiy muloqot madaniyati va tashkiliy salohiyat – ularning kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur bosqichdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik nozikligi va bilish faoliyatining shakllanishi boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuqori darajadagi mas'uliyat, didaktik mahorat, reflektiv tafakkur va metodik fleksibilitetni talab qiladi. Afsuski, mavjud real holat tahlili ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf

¹ Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 376 b.

o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud: nazariy bilimlarning amaliyot bilan uzviy bog'lanmagani, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yetarli darajada o'zlashtirilmagani, individual yondashuv va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik materiallarning cheklangani, ta'limda innovatsion metodlarga nisbatan sust munosabat va boshqa shu kabi omillar ushbu sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar sirasiga kiradi.² Shu bilan birga, so'nggi yillarda xalqaro ilmiy tajriba va xorijiy pedagogik modellar tahlili bo'lajak pedagoqlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarni qo'llash, ya'ni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy rivojlanish elementlarini uyg'un holda rivojlantirish samarali natijalar berishini isbotlamoqda. Bu borada Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Kanada kabi mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik bo'lib, ularda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ilg'or amaliyot markazlari, mentorlik tizimi, o'z-o'zini baholash va reflektiv o'qituvchilik tamoyillariga asoslangan metodlar keng qo'llaniladi. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishning mavjud holati, muammolari, ularning yechimlari, ilg'or xorijiy tajribalar, shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi.³ Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan holda innovatsion, integratsiyalashgan, kommunikativ-psixologik yondashuvlarni joriy etish taklif etiladi. Shuningdek, maqolada bu yo'nalishda olib borilishi lozim bo'lgan strategik chora-tadbirlar asoslab beriladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy manbalar, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodika, shaxs taraqqiyoti va kasbiy kompetensiyalar nazariyasiga asoslangan holda tadqiq etilgan. Bu boradagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kasbiy sifatlarni masalasi ko'p jihatdan integrallashgan, fanlararo yondashuv asosida o'rganilishi lozim bo'lgan murakkab va ko'p qatlamli hodisa hisoblanadi.

² Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Toshkent: Fan, 2006. – 302 b.

³ Tursunov X. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 168 b.

Dastlabki ilmiy manbalarda, xususan, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, D.B. Elkonin, V.V. Davыdov kabi rus psixolog va pedagoglari tomonidan shaxsning rivojlanishi, faoliyat orqali ta'lim olish, hamkorlikda o'rganish tamoyillari orqali bolalarda ijtimoiy va intellektual rivojlanish bosqichlari asoslab berilgan.⁴ Ularning ishlarida boshlang'ich ta'lim davri bola psixikasi shakllanishida muhim bosqich ekanligi alohida ta'kidlangan. Ushbu nazariy yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu bosqichda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki rivojlantiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Yaqin yillarda chop etilgan O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham (X. Tursunov, M. Nazarova, N. Ismoilova, S. Karimova va boshqalar) boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy sifatleri keng doirada o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari asosida shunday xulosaga kelinadi: o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, avvalo, uning shaxsiy-axloqiy fazilatleri, kasbiy motivatsiyasi, kommunikativ layoqati va innovatsion yondashuvni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi.⁵ Ularda ko'tarilgan muhim jihatlardan biri – o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashi va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji asosiy professional mezon sifatida qaraladi.

Xorijiy adabiyotlarda esa (D. Schön, L. Darling-Hammond, K. Zeichner, J. Hattie, M. Fullan) o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi doimiy ravishda takomillashib boradigan reflektiv jarayon sifatida talqin qilinadi.⁶ Ayniqsa, D. Schönning "reflektiv amaliyotchi" konsepsiyasi bo'lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va tezkor pedagogik qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga alohida urg'u beradi. L. Darling-Hammond esa o'qituvchilarning tayyorlash tizimi amaliyotga yo'naltirilgan, chuqur tahlil asosida shakllangan bo'lishi kerakligini ta'kidlab, yuqori sifatli ta'lim o'zgarishining kaliti aynan o'qituvchilarning kasbiy salohiyatida ekanini ilmiy asoslab beradi.

⁴ Nazarova M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2020. – 190 b.

⁵ Karimova S. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi: metodologik asoslar. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – 214 b.

⁶ Юнусов С. Инновацион педагогика ва таълим технологиялари. – Тошкент: "Фан ва технологиялар", 2021. – 184 б.

Tadqiqot metodologiyasi ushbu turli nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishga qaratilgan. Ushbu maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Tahliliy-metodik yondashuv – mavjud nazariy adabiyotlar, qonun hujjatlari, normativ-me'yoriy hujjatlar va ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali asosiy ilmiy g'oyalarning mohiyati ochib berildi.
- Taqqoslash va qiyosiy tahlil – O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya, Janubiy Koreya, Kanada)da boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tizimi solishtirildi.⁷
- Sotsiologik tadqiqot – O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning fikr-mulohazalari, o'qituvchilar va amaliyotchi pedagoglarning tajribalari o'rganildi.
- Empirik kuzatuv – boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi real amaliy mashg'ulotlar, dars jarayonlari, pedagogik stajirovkalar tahlil qilindi.
- Ekspert baholash – tajribali o'qituvchilar va kafedra professor-o'qituvchilari bilan intervyular asosida kasbiy sifatlarning rivojlanish holati va ehtiyojlari aniqlashtirildi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodologik asoslar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun kompleks, integratsiyalashgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.⁸ Mazkur yondashuvlar bo'lajak o'qituvchini nafaqat o'z kasbini puxta egallagan mutaxassis, balki ijtimoiy-madaniy muhitda faoliyat yurituvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasi ko'p qirrali va murakkab jarayon ekanini

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar" haqidagi qarori, PQ-3907-son, 2018-yil 6-fevral.

⁸ TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'quv rejalarini va amaliyot dasturlari (2022–2023 o'quv yili uchun).

ko'rsatdi. Empirik kuzatuvlar, sotsiologik so'rovlar va amaliy tahlillar asosida aniqlanishicha, talabalarning aksariyati nazariy bilimlarga ega bo'lsa-da, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmagan.⁹ Jumladan, so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 67 foizi dars berishda o'zini ishonchsiz his qilishini bildirgan, 54 foizi esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda qiyinchilikka duch kelishini aytgan. Bu holat o'quv dasturlarining zamon talablari bilan to'liq uyg'unlashmaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, kuzatuvlar davomida aniqlanishicha, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'z kasbiy roli va pedagogik shaxsiy fazilatlarini yetarli darajada anglab yetmagan. Psixologik tayyorgarlik, ayniqsa, bolalarning hissiy-psixologik holatini tushunish va unga mos ta'limiy yondashuvni tanlash borasida sustlik mavjud. Bunday holatlarning sababi sifatida amaliyotga ajratilgan vaqtning qisqaligi, amaliyot davomida faol refleksiya va tahlil yetishmasligi, mentorlik tizimining to'laqonli ishlamasligi ko'rsatildi.


Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash lozimki, ko'plab pedagogik ta'lim muassasalarida kasbiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar asosan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda kasbiy refleksiya, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kommunikatsion kompetensiyani rivojlantirish kabi jihatlarga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.¹⁰ Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish jarayoniga integratsiyalash darajasi ham turlicha bo'lib, ba'zi hududiy oliy ta'lim muassasalarida texnik vositalarning yetishmovchiligi bu boradagi ishlarni cheklab qo'ymoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlar, xususan, loyiha asosida o'qitish, rol o'yinlari, interaktiv metodlar, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi) elementlarini joriy qilish orqali talabalar faoliyatini yanada jonlantirish mumkin. Bunday metodlar ularni nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan ijodkor, o'ziga ishongan, yangilikka ochiq shaxs sifatida shakllantiradi. Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida aniqlanganki, rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun reflektiv yozuvlar, mentorlik dasturlari, amaliy seminarlardan iborat kompleks tayyorlov tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston pedagogik ta'lim tizimi uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: kasbiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar

⁹ Axmedov A., Jo'rayev N. Boshlang'ich sinfda dars o'tish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – 172 b.

¹⁰ Ismoilova N. Shaxs rivojlanishida pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 196 b.

sonini ko'paytirish; zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha maxsus modullarni o'quv dasturiga kiritish; psixologik tayyorgarlik bloklarini mustahkamlash; mentorlik asosidagi monitoring tizimini joriy qilish.¹¹ Yakuniy muhokama sifatida aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish nafaqat individual yondashuvni, balki tizimli, integrallashgan, milliy va xorijiy ilg'or tajribalarni uyg'unlashtirgan yondashuvni talab qiladi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot salohiyati, o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasi va davlat ta'lim siyosati muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi muammolar



Yuqoridagi diagramma bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida aniqlangan muammolar bo'yicha so'rovnoma natijalarini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy tayyorgarlik bilan birga amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratish zarurligi isbotlanadi.

Xulosa

O'rganilgan mavzu bo'yicha olib borilgan nazariy, empirik va metodik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini

¹¹ Bozorov O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi: innovatsion yondashuvlar. – Termiz: TSPI nashriyoti, 2022. – 143 b.

shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Kasbiy sifatlar deganda faqatgina bilim va ko'nikmalar emas, balki shaxsiy fazilatlar, pedagogik intuitsiya, psixologik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llay olish layoqati tushuniladi.¹² Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar nazariy jihatdan yetarli bilimga ega bo'lsalar-da, amaliy ko'nikmalar, reflektiv faoliyat, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarida hali to'laqonli rivojlanish kuzatilmayapti. Bu esa o'quv dasturlarining mazmuni, metodlar va amaliy mashg'ulotlar formatini yangilash zaruratini ko'rsatadi. Shuningdek, sohada mavjud bo'lgan muammolar – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni cheklangan qo'llanishi, mentorlik tizimining sustligi, individual yondashuvning yetarli emasligi, kasbiy refleksiyaga doir ishlarning kamligi – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishiga to'siq bo'layotgani aniqlandi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarda boshlang'ich ta'limga ixtisoslashgan pedagoglarni tayyorlashda reflektiv o'rgatish, o'rgatishda hamkorlik modeli, ilg'or amaliyotlar asosida tayyorlov, mentorlarga asoslangan nazorat va yo'naltiruvchi yondashuvlar asosiy tamoyil sifatida shakllangan. Bu yondashuvlar o'qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni doimiy o'quvchi va izlanuvchi sifatida ko'rishga xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekiston pedagogik ta'lim tizimi oldida quyidagi strategik vazifalar turadi:

1. O'quv dasturlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, modul asosidagi ta'limni kengaytirish;
2. Talabalarning mustaqil, reflektiv va innovatsion fikrlash layoqatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarni ishlab chiqish;
3. Mentorlik tizimini qayta ko'rib chiqish va amaliyot davomida real ustoz-shogird modelini joriy etish;
4. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rgatish va qo'llash samaradorligini oshirish;¹³

¹² Maxmudova D. Boshlang'ich maktabda metodik tayyorgarlikning psixologik omillari. – Buxoro: BDU, 2021. – 158 b.

¹³ Абдуллаева З. Педагогическое мастерство учителя начальных классов. – Москва: Просвещение, 2019.

5. Xalqaro tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali kompleks, tizimli yondashuvlarni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish – bu shunchaki ta‘lim vazifasi emas, balki jamiyat intellektual va madaniy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalishdir. Bu jarayonni innovatsion, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish zamon talabi va ta‘lim sifatining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 376 b.
2. Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Toshkent: Fan, 2006. – 302 b.
3. Tursunov X. Kasbiy ta‘lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 168 b.
4. Nazarova M. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020. – 190 b.
5. Karimova S. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi: metodologik asoslar. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – 214 b.
6. Юнусов С. Инновацион педагогика ва таълим технологиялари. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2021. – 184 б.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar” haqidagi qarori, PQ-3907-son, 2018-yil 6-fevral.
8. TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti o‘quv rejalari va amaliyot dasturlari (2022–2023 o‘quv yili uchun).
9. Axmedov A., Jo‘rayev N. Boshlang‘ich sinfda dars o‘tish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – 172 b.
10. Ismoilova N. Shaxs rivojlanishida pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 196 b.
11. Bozorov O. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi: innovatsion yondashuvlar. – Termiz: TSPI nashriyoti, 2022. – 143 b.
12. Maxmudova D. Boshlang‘ich maktabda metodik tayyorgarlikning psixologik omillari. – Buxoro: BDU, 2021. – 158 b.
13. Абдуллаева З. Педагогическое мастерство учителя начальных классов. – Москва: Просвещение, 2019.

O'QUVCHILARNING KITOBXONLIKKA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O'RNI

Rasulova Mohichehraxon Umidjon qizi

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

21.130-guruh 4-kurs talabasi

E.mail: muhammadalievamohichehra@gmail.com

Tel: +99899.692.44.37

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar, interaktiv platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kitob mutolaasi yangi bosqichga chiqayotgani ta'kidlanadi. Shuningdek, gamifikatsiya, sun'iy intellekt asosida kitob tavsiyalari va raqamli ta'lim platformalarining kitobxonlik madaniyatiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada raqamli texnologiyalarning kitobxonlikka ijobiy va salbiy ta'sirlari ko'rib chiqilib, samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, raqamli texnologiyalar, elektron kutubxonalar, audiokitoblar, interaktiv ta'lim, gamifikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, kitob mutolaasi, o'quvchilar.

Аннотация

В данной статье анализируется роль цифровых технологий в повышении интереса учащихся к чтению. Подчеркивается, как электронные библиотеки, аудиокниги, интерактивные платформы и социальные сети выводят процесс чтения на новый уровень. Также изучается влияние геймификации, рекомендательных систем на основе искусственного интеллекта и цифровых образовательных платформ на культуру чтения. В статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные эффекты цифровых технологий на процесс чтения и предлагаются рекомендации по их эффективному использованию.

Ключевые слова: чтение, цифровые технологии, электронные библиотеки, аудиокниги, интерактивное обучение, геймификация, социальные сети, искусственный интеллект, книга, учащиеся.

Annotation

This article analyzes the role of digital technologies in increasing students' interest in reading. It highlights how e-libraries, audiobooks, interactive platforms, and social media are taking reading to a new level. Additionally, the impact of gamification, AI-based book recommendations, and digital education platforms on reading culture is

examined. The article discusses both the positive and negative effects of digital technologies on reading habits and provides recommendations for their effective use.

Keywords: reading, digital technologies, e-libraries, audiobooks, interactive education, gamification, social media, artificial intelligence, book reading, students.

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va ularni mutolaaga qiziqtirishda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. An'anaviy kitob o'qish odati zamonaviy gadjetlar, elektron kutubxonalar va interaktiv platformalar yordamida yangi bosqichga chiqmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning o'quvchilar orasida kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

“Raqamli texnologiyalar va kitobxonlik madaniyati. Texnologiyalar rivoji bilan o'quv materiallariga kirish imkoniyatlari kengaydi. Internet, elektron kitoblar va audiokitoblar o'quvchilarga matnlarni istalgan vaqtda va joyda o'qish imkonini beradi. Shu bilan birga, quyidagi texnologik imkoniyatlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda” [1].

“Elektron kutubxonalar – Google Books, Z-Library, Kitobxon.uz kabi platformalar orqali yuzlab kitoblarga erkin kirish mumkin.

Audiokitoblar – Storytel, Audible va boshqa platformalar orqali kitoblarni eshitish imkoniyati mavjud” [5]. Bu ayniqsa ko'p vaqtini harakatda o'tkazadigan yoki ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun juda foydalidir.

Interaktiv kitoblar – Illyustratsiyalar, ovoz va animatsiyalar bilan boyitilgan elektron kitoblar bolalar va yosh kitobxonlarning qiziqishini oshirishga yordam beradi.

“Sun'iy intellekt asosida tavsiyalar – Amazon Kindle, Google Play Books singari platformalar foydalanuvchilarning qiziqishlari asosida mos kitoblarni tavsiya qiladi.

O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish usullari. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning kitoblarga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanishga imkon beradi” [3].

“Gamifikatsiya – o'qish jarayonini qiziqarli qilish uchun o'yin elementlarini joriy etish. Masalan: o'qilgan kitoblar uchun ball to'plash tizimi, o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari, Virtual mukofotlar va reyting tizimlari.

Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar. O'quvchilar o'z o'qigan kitoblari haqida muhokama yuritishlari, fikr almashishlari va tavsiyalar olishlari uchun ijtimoiy platformalar juda qulay. Goodreads, Bookmate kabi platformalar orqali kitoblarni

baholash va sharh qoldirish, Telegram, Facebook va Instagram'dagi kitobxonlik guruhlarini va bloglarini"[4].

Interaktiv ta'lim platformalari . Bugungi kunda Coursera, Udemy, Khan Academy kabi platformalar darsliklar bilan birga badiiy va ilmiy kitoblarni ham taklif qilmoqda. Shu bilan birga, QR-kod orqali kitoblarga bog'langan qo'shimcha video yoki materiallardan foydalanish ham qiziqishni oshiradi.

"Raqamli texnologiyalarning kitobxonlik madaniyatiga ta'siri, o'quvchilarning kitob o'qish odatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Erkin va tezkor kirish imkoniyati, internet orqali istalgan kitobni topish va o'qish mumkin.

O'quv jarayonini qulaylashtirish, mobil ilovalar orqali istalgan joyda kitob o'qish yoki tinglash imkoniyati mavjud.

Qiziqarli kontent yaratish o'quvchilar o'zlari kitoblarga oid video sharhlar yoki podkastlar tayyorlab, kitobxonlikni targ'ib qilishlari mumkin"[2].

E'tiborni chalg'ituvchi omillar, ko'p hollarda o'quvchilar kitob o'qish o'rniga ijtimoiy tarmoqlarga vaqt ajratishadi.

Raqamli charchoq – Uzoq vaqt ekranga tikilish o'quvchilarda ko'z charchoqlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar, interaktiv platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kitobxonlikni targ'ib qilish mumkin. Biroq, bu jarayonda texnologiyalardan me'yorida foydalanish va o'qish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini oshirish uchun ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning roli juda muhim. O'quvchilarga raqamli texnologiyalar yordamida mutolaa qilish imkoniyatlarini kengaytirish, lekin shu bilan birga, an'anaviy kitob o'qish odatini ham targ'ib qilish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov A. "Zamonaviy texnologiyalar va kitobxonlik madaniyati". – Toshkent: O'qituvchi, 2022
2. Nazarov Sh. "Kitobxonlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini". – Ilmiy-ma'rifiy jurnal, 2023, №4. Anderson, C. "The Impact of Digital Reading on Student Engagement". – Journal of Educational Technology, 2021.
3. Johnson, S. "E-books and Audiobooks: A New Era of Reading". – New York: Digital Press, 2020.
4. www.kitobxon.uz – O'zbekistonning elektron kutubxonasi.

5. www.goodreads.com – Kitobxonlar uchun ijtimoiy tarmoq.
6. www.storytel.com – Audiokitoblar platformasi.

**ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARIDA
TA“LIM-TARBIYA MASALALARI**

Mingto'rayev Shahzod Sharofiddin O'g'li

DTPI Tarix (mamlakatlar vayo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ochildiyev Asilbek Akram O'g'li

DTPI Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta“lim-tarbiya masalalari, adolatli jamiyatga erishish yo`llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlarini kabi masalalar yoritilgan.

Tayanch so`zlar: jamiyat, davlat, rahbar, madaniyat, axloq, an‘ana, ta‘lim, tarbiya.

Kirish. Biz yashayotgan zamin qadim-qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo`lib, xalqimiz boy madaniy merosga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir. Buyuk bobomiz Amir Temur, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy, al Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Ahmad alFarg‘oniy, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko`plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shganlar.

Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o`rganishga, undan yoshlar ma‘naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da‘vat etib kelmoqdalar.

—Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma‘naviy boyligini chuqur va har tomonlama o`rganishimiz darkor [1]. Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma‘naviyatiga ega bo`lgan

insonlar zarur. Zero, «zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim»[2]. Ma'naviy boyliklarni yaratgan buyuk siymolar merosini o'rganish va o'zlashtirish, u bo'yicha keng ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarni olib borishni talab etadi. Ular mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy madaniy boyliklarni yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo hududida butun musulmon dunyosiga o'zlarining asarlari bilan tanilgan, mintaqa, xususan o'zbek faniga asos solgan, ajdodlarimizning ilmiy yutuqlarini xotirada saqlab, jahon ilmiy tafakkurini oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi[3].

Shunday ulug' allomalardan biri Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)dir. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi taraqqiyparvar ijtimoiyfalsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog'liq. U hayotlik vaqtidayoq «Ikkinchi Aristotel», «Sharq Aristoteli», «Muallimin as-soniy» («Birinch muallim», birinchi ustoz Aristotel bo'lgan) degan faxriy nom olgan edi. Bu uning ilmi va xizmatlariga berilgan yuksak bahodir[5]. Forobiy asarlari Sharq va G'arb olimlarini haligacha bilim doirasining kengligi bilan hayratga solib kelmoqda. U fanning turli sohalari bo'yicha 160 dan ortiq asar yozgan, lekin ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Uning «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Davlat arbobining hikmatlari» kabi asarlarida O'rta Sharqda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiyhayotning ko'p masalalari – davlatga birlashish xususiyatlari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o'rnini va burchi, umumiy baxt-saodatga erishish yo'llari, ta'limtarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Shuningdek, shaxsning rivojlanish muammolarini bayon qiladi. Forobiy asarlari orasida «Fozil odamlar shahri» asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyatning (insonlar jamoasi) kelib chiqishi, adolatli jamiyatga erishish yo'llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlarini, davlat hokimiyati va boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kabi masalalar bayon etilgan.

Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi hozirgi hayotning ko'proq yomonlashadi va oxiri mayib-majruh bo'lib qoladi. Shu

tufayli ular o`zlariga yoqadigan yomon ishlardan huzur-halovat oladilar», - deydi Forobiy[7] Mutaffakirning ta'kidlashicha, johillar nodon, ilmsiz, ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz kimsalar, shuning uchun ular baxt-saodat, yuksak kamolot nimaligini tushunmaydi, ular haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar, shu sababdan ular bunga intilmaydilar ham. «Ular, - deydi

Forobiy, - baxtu-davlat bo`lib ko`rinadigan o`tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatni, hirsu-havasni, obro`, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o`ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo`lib ko`rinadi». Forobiy ma'naviy-axloqiy, jihatdan nosog'lom, har qanday pastkashlik yo`li bilan o`z maqsadiga erishuvchi bunday odamlarga nisbatan salbiy munosabatda bo`ldi. Donishmandning fikricha, agar bu illatlarning oldi olinmasa, ular yildan-yilga, avloddan-avlodga o`tib, yanada chuqur ildiz otadi. Natijada johil ota-onalardan noqobil murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo`l-yo`riqlarini topa oladi[6]. Forobiy inson boshqa jonzotlardan sifat jihatidan tubdan farq qiladi, deb ko`rsatadi.

Birinchi, deydi u inson aqlli mavjudot bo`lib, aql va jon insonning tabiiy ibtidosidir.

Ikkinchi, insonning tili va nutqi bor. Uchinchi, inson kasb-hunarga ega. Bir-biri bilan bog`liq bo`lgan bu barcha xususiyatlar insonning rivojlanishi va takomillashuviga imkon beradi. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: —Munosib inson bo`lish uchun odamda ikki imkoniyat, ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo`ldir», deydi.

Forobiy ta'lim, tarbiyaga birinchi marta ta'rif berib, ta'lim - degan so`z insonga o`qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatlarni, mas`ul hunarni egallash uchun zarur bo`lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o`rgatishdir, - deydi olim. Ta'lim faqat so`z va o`rgatish bilangina bo`ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba orqali o`rganishdir. Shuningdek, buyuk insonshunos olim Abu Nasr Forobiy «fozil», ya'ni adolatli jamiyat bilan birga «johil» insonlar va jaholatdagi jamiyatlar haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. U johil jamiyatning juda ko`p turlarini sanab, axloqiy sifat va fazilatlardan mahrum bo`lgan o`z hayoti va faoliyati davomida ularga rioya qilmaydigan kishilar jamoasini johillar jamoasi deb ataydi. Bunday jamoa a`zolari yaramas axloqli, xulq-atvorli kishilardir. «Fazilatsiz shahar odamlari yomon fe`llari, tabiati tufayli ko`ngillari, ruhlari ham yomonlashib boraveradi. Mabodo, ular

ana shu yomon ishlarida izchil sa'y-harakat, tobora kuch-g'ayrat ko'rsatsa, ularning ruhlari yanada bolalar dunyoga keladi, bu esa jamiyat va davlatning kelajagini xavf ostida qoldiradi. «Ammo, - deydi alloma, - jaholat, yovuzlik, haqsizlik, abadiy hodisalar emas, bu illatlarga albatta barham beriladi.

Jamiyatda ezgulik, hamkorlik, hamjihatlik, do'stlik, adolat albatta tantana qiladi, shunday zamonlar keladiki, insoniyat albatta yuksak kamolotga oliy baxt-saodatga erishadi»[7]. Forobiy insonni baxt-saodatli qilish jamiyatning asosiy maqsadi ekanligini ta'kidlaydi va bunga barcha vositalar bilan erishish zarur, bu baxt-saodat insonlar jamoasida amalga oshirilishi mumkin, deb ko'rsatadi. Forobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'z ixtiyori bilan faoliyat ko'rsatib, o'z baxtini o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal etadi.

Alloma butun jahon miqiyosida urushsiz tinchlikka, adolatga, o'zaro hurmat va yordamga, hamjihatlikka asoslangan, har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yagona ideal insoniyat jamoasining barpo etilishini orzu qiladi, barcha insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi. Forobiy jamiyat (insonlar jamoasi)ning kelib chiqish sabablarini odamlarning jamoa bo'lib yashash ehtiyojlaridan izlagan. «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi...

Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rناshdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»[7].

Forobiy insonlarning eng takomillashgan jamoasi deb shahar jamoasini ko'rsatadi va uni fazilatli hamda fazilatsiz shahar jamoasiga ajratadi. Razolat va badbaxtlik, obro'parast, amalparast, hokimiyatparastlar shaharlari haqida to'xtalib o'tadi. Fazilatli shahar odamlari o'zaro birlikda, totuvlikda, ittifoqda yashaydilar, bir-birlariga yordam beradilar, deb hisoblaydi. Forobiy demokratik boshqaruv shaklini yetuk boshqaruv shakli, bunday boshqaruvga asoslangan shaharlarni esa yetuk fozil shahar deb bilmaydi, balki, yomonlikni targ'ib qiluvchi shaharlardan farq qilib, fozil shaharlarga erishuv yo'lidagi muhim bosqich deb tushunadi. Forobiy o'zining ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlariga bo'ladi. Bunda ularning diniy mazhabiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo, aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va

ko`nikmalariga katta ahamiyat beradi. Bu jamoada insonlar ilm va yaxshi axloq yordamida baxt-saodatga erishadi.

Forobiy davlatni boshqarishning turli shakllari haqida fikr yuritib, davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo`lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) boshqarishi mumkin, deb ko`rsatgan. Forobiyning jamiyatni boshqarish haqida fikr yuritib, jamiyatni boshqarish alohida san`at, deb hisoblaydi. Axloq va faoliyatda izchil, bir normada, ya`ni bir me`yorda ish olib boruvchi kishi jamiyat va mulkda faol ishtirok etadi. Faoliyatda topish san`ati rahbarlik qilish san`atidir.

Allomaning fikricha, davlat rahbari shunday san`atga ega bo`lishi kerakki, u biron narsaga xizmat qilish vositasi ham boshqa san`at tomonidan boshqarilish obyekti ham bo`lishi mumkin emas. Hokimlik san`atiga boshqa barcha san`atlar bo`ysunadi. Bunday san`atga ega insonni boshqa hech kim boshqarmaydi, u komillikka erishgan hamda amaldagi aql va tushunchaga aylangan.

Bunday inson yuksak darajadagi komillikka erishgan bo`lishi va saodatning cho`qqisida bo`lishi kerak. Unga baxtga erishishga yordam beradigan har qanday harakat ma`lum. U o`z bilimini so`zlar orqali yaqqol ifodalashni va odamlarni eng yaxshi usullar bilan baxtga yo`naltirishni bilishi kerak. Bunday xislatlarga esa komil faylasuflargina ega. Baxt-saodatga erishuv va tug`ma qobiliyatlarning rivojlanishi o`z-o`zicha bo`lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug`iladi. Boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko`tarish ham har kimning qo`lidan kelavermaydi. Kimda birovni baxt-saodatga erishtirish, zarur bo`lgan ish harakatga ruhlantira olish qobiliyati bo`lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo`lsa, bunday odam aslo rahbar bo`la olmaydi. Fozil jamiyat hokimi, alloma fikricha, qator tug`ma tabiiy xislatlarga ega bo`lishi lozim: tabiatan nozik, farosatli bo`lishi; komil a`zolarga ega bo`lishi; yaxshi xotiraga ega bo`lishi, ko`rgan, eshitgan va idrok etgan narsalarining tafsilotlari bilan yodda tutishi; o`tkir zehni, zukko bo`lishi; ifodali nutqqa ega bo`lishi; ta`lim olishga, bilim va ma`rifatga havasli bo`lish, o`qish va o`rganishda sira charchamaydigan, mashaqqatidan qochmaydigan bo`lishi; badnafslilik, ichkilik va shahvoniy hislardan o`zini tiya oladigan bo`lishi; haqiqatni va uning uchun kurashuvchilarni yaxshi ko`rish, yolg`ondan va yolg`onchilardan nafratlanishi; o`z qadrini biluvchi va or-nomusli odam bo`lishi, tug`ma oliy himmat bo`lish va ulug` ishlarga intilishi; mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo`lish; tabiatan adolatparvar bo`lishi; zarur beb bilgan harakatni amalga

oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur, mard bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi lozim[7].

Forobiy bir hokimning o'rniga keladigan boshqa shaxsning ham yuqorida keltirilgan fazilatlariga ega bo'lishi zarurligini shu bilan birga, o'zidan avvalgi hokimning yaxshi ishlarini davom ettirishi, jamiyatning barqarorligi va qonunlarning vorisligini ta'minlash uchun bo'lg'usi rahbarda quyidagi olti xislatni tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydi.

Birinchi, donishmand bo'lish;

ikkinchi, avvalgi hokimlar o'rnatgan qonun-qoidalarini va odatlarni biluvchi va yodda tutuvchi bo'lish; uchinchi, ajdodlardan tegishli qonun saqlanib qolmagan sohada bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod va ishtirokchilikni namoyon etish; to'rtinchi, mavjud voqelikni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi hokimlar ko'zda tutmagan voqealarni oldindanko'ra bilish uchun bashoratgo'ylik xislatiga ega bo'lish; beshinchi, avvalgi hokimlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek avvalgilaridan ibrat olib, o'zi chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun notiqlik xislatiga ega bo'lish; oltinchi, zarur hollarda lashkarga qo'mondonlik qilish uchun jismonan baquvvat bo'lish va harbiy san'atni yaxshi bilish. Boshqaruvga faqat mulkdorlar vakillarini tayinlash tarafdori bo'lgan Aflotundan farqli o'laroq Forobiy mazkur talablarga javob beradigan har qanday shaxs hokim bo'lishi mumkin deb hisoblaydi.

Fazilatli shahar boshliqlari to'rt toifaga bo'linadi, deb ta'kidlaydi alloma, ularning birinchi toifasiga haqiqat yo'lida ish olib boruvchi podsho kiradi. U birinchi rais, ya'ni boshliq deb atalib, uning oltita xislati bor: donolik, o'ta mulohazalilik, ishontirish qobiliyatiga, jismoniy jihatdan jang qila olish qobiliyatiga egalik hamda tana tuzilishi jihatidan jangchiga xos bo'lishi, ya'ni tanasida biron bir kamchiligi bo'lmasligi kerak. Ana shunday xislatlarni o'zida jamlagan shaxs o'z faoliyatida, so'zini o'tkazishda, buyruqlarni bajartirishda, ish yuritishda mohir bo'ladi. Forobiy ushbu xislatlarning bir odamda birlashishi qiyin ekanligiga, shu sababli bunday kishilar juda kamdan-kam uchrashiga ishonadi. Shu boisdan u ikkinchi rahbarga qo'yiladigan shartlarni dastlab oltitagacha, so'ngra esa bittaga kamaytiradi. Ammo, bunda har biri belgilangan normalardan biriga javob beradigan oltita rahbar bo'lishi shart qilib qo'yadi. Agar shunday kishi topilmasa, - deb yozadi Forobiy, - yuqoridagi xislatlarni o'zida jamlagan bir guruh ham podshoning o'rnini bosishlari mumkin. Ya'ni biri bu guruhning g'oyalarni ilgari suradi, ikkinchisi bu g'oyalarni qanday qilib amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib beradi, ya'ni biri ishontiradi va tushuntiradi. Oxirgisi esa

lashkarboshilik qiladi, shunday qilib, bularning hammasi yig'ilib, podsholik rolini o'taydilar va ahil boshliqlar deb nomlanadilar va ular tashkil etgan hay'at, fozillar hay'ati deb ataladi. Agar bunday kishilar bo'lmasa, bu vaqtda shahar boshlig'i, sharoit va sunnalarni yaxshi biladigan, har qanday sharoitda ahvolni tushuna oladigan, o'qigan payti kelganda sunnada yozilmagan narsalarni ham topib qo'llay biladigan, yaxshi fikrli shaharni tashkil qiladigan ustaroq bo'lgan, notiqlik qobiliyati bor jangchi ham boshliq bo'lsa bo'ladi. Bunday boshliq tajribali boshqaruvchi deb nom oladi. Agar bunday kishi ham topilmasa, uning o'rnini yuqoridagi xislatlarga ega bir guruh shaxslar ham bajarishi mumkin. Bu jamoa tajribali kishilar deb nomlanadi.

Forobiy kasb-hunar egalarining, savdogar va tijoratchilarni, o'z kasbi va faoliyatini chin dildan halol bajaradigan insonlarni va ularning o'zaro munosabatlarini sharaflaydi hamda ularni jamiyatni mustahkamlaydigan toifa deb hisoblaydi. Bu bilan Forobiy jamiyat qanday bo'lsa, odamlarning ham shunday turini tarbiyalaydi, aksincha odamlar qanday bo'lsalar jamiyatning ham shunday turini yaratadilar, demoqchi.

Albatta, Forobiy ijtimoiy turmushdagi barcha voqea va hodisalarga o'z davri sharoitidan, feodal tuzum mohiyatidan kelib chiqib baho bergan, shu sababli o'sha davr jamiyatlarini o'z maqsad va vazifasiga, tutgan yo'lga qarab axloqsizlar jamoasi, bosqinchilar jamoasi, jabr-zulmga asoslangan jamoa, boylik to'plashni, kayfu-safoni maqsad qilib olgan jamiyatlarga ajratgan. Ming afsuski, bunday salbiy illatlar bizning davrimizda ham uchraydi. Shu bois, deydi alloma, ta'limtarbiya yo'li bilan bunday salbiy illatlarni va kishilardagi jirkanch fe'l-atvorlarni tuzatish mumkin.

Uning uqtirishicha, rahbarlar mansabdan o'z shaxsiy manfaatini ta'minlash, iflos mayllarini qondirish, mol-dunyo to'plash, nafs balosiga erk berish, o'zgalarni o'ziga bo'sundirish, xalqni ezish, aldash, haqoratlash, unga har qanday yo'llar bilan zulm o'tkazish vositasi sifatida emas, balki barcha fuqarolarini teng huquqliligini kafolatlash, adolatni qaror toptirish, xalqni erkin va ozod, tinch va osoyishta hayot kechirishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishi lozim.

Ba'zi rahbarlar, bir shaharning sohibkori, shahar xalqi hayotiga tegishli ishlarda tadbirkor bo'ladilar. Ular bu yo'l-yo'riq, normalarni o'tmishda kechgan boshliqlardan o'rgandilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak uchun o'tmishdagi rasm-rusm, yo'l-yo'riq normalarni isloh qilishi lozim va foydali topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab, ularni o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Buyuk donishmandning ushbu so'zlari xuddi bugungi kun haqida aytilgandek. —Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflil vazifa turgan bir paytda bu ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati ming karra

ortadi. Nega deganda har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodga bog'liqdir.[4]

Zero, mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani o'tmish merosimizdagi barcha ilg'or qadriyatlar, axloqiy normalar, huquqiy tamoyillarni o'ziga singdirib, eski, o'z umrini yashab bo'lgan, bugungi kun talablariga aslo javob bermaydigan jihatlardan esa qat'iyon voz kechayotgan davlatimiz siyosatining aynan Forobiy, Amir Temur kabi donishmand ajdodlarimiz tafakkuri, erishgan yutuqlari davlat siyosatidan tobora mustahkam o'rin olayotganidan dalolat bermoqda. Hokimning qiladigan ishidan maqsadi shu bo'lishi kerakki, deb yozadi Forobiy, u xalqqa ham, o'ziga ham foyda keltirsin, bu rahbar mehnatining g'oyasi va mazmunidir. Agar jamiyat rahbari xalq baxtining sababchisi bo'lsa, u o'z xalqi orasidagi eng baxtli kishi bo'lishi kerak. Odamlar uyushmasining yana boshqa bir boshqa shakli ayriboshlovchilar shahri haqida gapirib, Forobiy bu shahar aholisi to'qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga yordam berishni o'z maqsadi deb biladilar, deydi. Shuhratparastlar shahri aholisi esa o'zaro bir-birlarini maqtashni yoqtiradilar, ularni birovlar ulug'lashini, ko'klarga ko'tarishini xohlaydilar. Amalparastlar va hokimiyatparastlar shahri aholisi bo'lsa hamma xalqlar ularga bo'sunishini istaydilar. Yana bunday shaharlarga benomuslar shahri ham kiradiki, uning aholisi fozillar bilgan hamma narsani biladi, tushunadi, ammo amal qilishni xohlamaydi.

Beqaror va adashgan shaharlar ham bo'lib, bu shaharlarning aholisi avvalroq o'z g'oya va tushunchalariga ega bo'ladilar, keyinroq esa bu yurtga begona, yot g'oyalar kirib qolsa, o'sha g'oyalarga berilib ketadilar va o'z qarashlarini butunlay o'zgartiradilar. Bizning zamonamizda xuddi vahobiylar, ekstremistlar, terroristlar guruhiga kirib qolgan kimsalar singari, ular o'z otaonalariga qo'l ko'taradilar, ustozlarining yuziga tik qaraydilar, farzandlarini o'ldiradilar. Chunki ular johillar, ko'rlar, ularning mafkurasi yo'q manqurt kimsalardir. Abu Nasr Forobiy bundaylarni o'z davridayoq juda qattiq qoralagan va ularga qarshi kurashish o'zini insonman deb hisoblagan har bir kishining muhim vazifasi, muqaddas burchi, deb ta'kidlagan. Jamiyatda bunday kishilar ko'paysa, jamiyat halokatga yuz tutadi, aksincha, jamiyat ulardan xoli bo'lsa, yuksak farovonlik va taraqqiyotga erishadi.

Xulosa. Fozil shahar, undagi umumiy madaniy ravnaq munosabati bilan Forobiy axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e'tibor berdi. Xulq-odob masalalarini Forobiy insonning intellektual sifatleri – «aqlilligi», «donoligi» bilan uzviy bog'liq holda olib

tekshirdi. Shuning uchun u qayd qilgan va tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o'zaro munosabatlarida mavjud bo'lgan xulq normalarining ifodasigina emas, balki kishilarning o'z hayotlari davomida olib borgan aqliy faoliyatining natijasi sifatida talqin etadi. Forobiy fozil shaharning fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi va komil inson g'oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir. Uning g'oyalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishda yetakchi bo'lib kelayotgan shahar, tuman va viloyatlarning hokimlari hamda boshqa rahbarlar uchun ibrat maktabidir.

Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o'ziga xos yo'lini belgilashda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlol mafkurasini rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm - fan, ijtimoiy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Zero, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

ADABIYOTLAR

1. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 14 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 41.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999.–B.90.
4. Barkamol-avlod-orzusi.–T.,1999.–B.54.
5. Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – T.: Sharq, 2010. – B. 226.
6. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutaffakkirlari. – T.: O'zbekiston, 1971. – B. 301.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.

TAFAKKUR PSIXOLOGIYASI

Ibodova Shamsiya Navro‘z qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Matematika yo‘nalishi 3-kurs 3-M guruh talabasi

Gmail: frdavs1503@gmail.com

Shomurotov Ulug‘bek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedra o‘qituvchisi

(maqola ilmiy rahbari) ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

Annotasiya: Tafakkur qilish orqali olimlarning kashf qilingan ilmi ishlar haqida ma‘lumot ega bo‘lasiz. Bundan tashqari olimlarini tafakkur qilish haqidagi fikrlari, Tafakkur qilish kerak ekanligi haqida Qur‘ondagi oyatlarda ma‘lumot berib berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, hukm, chin hukm, xato hukm, tushuncha, xulosa chiqarish

Аннотация: Посредством размышления вы получите информацию о научных работах, открытых учеными. Кроме того, представлены мнения ученых о размышлении, а также информация о необходимости размышления в аятах Корана.

Ключевые слова: Размышление, суждение, истинное суждение, ошибочное суждение, понятие, вывод.

Annotation: Through contemplation, you will gain information about the scientific works discovered by scientists. Furthermore, the opinions of scientists on contemplation, as well as information about the necessity of contemplation in the verses of the Quran, are provided.

Keywords: Contemplation, judgment, true judgment, false judgment, concept, conclusion.

Tafakkur inson aqliy faoliyatini yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Ummuman olganda tashqi muhitdagi narsa xodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-ob'ekt anglashi bilishi tafakkur jarayoning xarakterli xususiyatidir. Odam o'z idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarining butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurni obyekt bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqda quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas.

Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalaniib keladi. Narsa hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytiladigan fikr hukm deyiladi. Hukmlar ob'ekt voqelikni aks ettirishiga qarab chin yoki xato bo'ladi.

Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar, alomatlar hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatilib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratilib ko'rsatilsa bu chin hukm deb ataladi. Masalan, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir. Metallar qizdirilganda kengayadi. Degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o'tkazish qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir. Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm xato hukm deb ataladi. Masalan hozir tashqarida yomg'ir yo'g'yabdi. Yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukm doirasiga kiradi.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Masalan har qanday harakat materiya harakatidir. Issiqlik harakat shaklidir degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan demak issiqlik materiya haraktidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm yakka hukm bo'ladi. Xulosa chiqarish uchta turga bo'linadi. Induktiv, deduktiv va analogiya.

Tushuncha deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishni tushunamiz. Tushunchalar hukmlarda tarkib topadi. Shu

sababli tushunchaning mazmuni ochib berish uchun bir qancha hukm yuritishga to'g'ri keladi. Masalan odam ongli mavjudotdir degan tushunchani oladigan bo'lsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinayabdi. Tushunchalar odamning turmish tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topadi.

So'zlar, belgilar, simvollar atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmuni aks ettiradi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsita deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytiladi. Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan matematika, fizika, kimyo,

Psixologiya va boshqa fanlarda misol va muhokamalarni yechish jarayoni. Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyungan tarzda vujudga keladi.

Arximed solishtirma og'irlik qonuni zo'r berib aqliy mehnat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etilgan. Uluğ rus olimi D.I Mendeleevning hikoya qilishicha u elementlar davri tizimni jadvalini tuzish vaqtida uch-kechayu, uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stol ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D.I. Mendeleev uyqusidan, o'ygonib bir parcha qoғozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib quygan. Yirik fiziolog hamda psixolog V.M. Bexterevning izohlashicha, bundan kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan masala to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikir yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilishini zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishdan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab barqaror psixik holati hukm surishdir. Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1978) tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsakgina, biz fikrlashga o'rganamizda deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarining mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlab yetish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tuahunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tamonimizdan yaratilmaydi. Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudlikning asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga logika, mantiq deb ataydi. Akademik A.I Berg shunday deb yozadi.

«Inson faqat tashqi dunyo bilan toʻxtovsiz muloqat qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin».

Vyursburg psixologiya maktabini namoyondalari tafakkur bu ichki harakat, aktidir deb qaray boshladilar. Oʻz-oʻzini kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning maʼnosini tushuntirib berish lozim, tafakkur haddan tashqari mashshaqatliki, shunga qaramay koʻpchilik shundaki hukm chiqarishni maqul koʻradilar. Paygʻambarimiz alayhissalom: «Bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilgandan xayrliroqdir», deb marhamat qilganlar. Fuzuliyatdiki: «Fikr senga yaxshi yoki yomon amallaringni koʻrsatib turadigan koʻzgudir». Bir rivoyatda qilishicha: Ibrohimga buncha uzoq vaqt tafakkur qilib oʻtirasan, deyishdi. «U fikr aqlining iligider», deb javob berdi. Tovus aytadiki: «Havoreylar Iso ibn Maryamga : Ey Rosululloh! Bugun yer yuzida sizga uxshagan kishi bormi, deb soʻrashdi. U bunga shunday dedi:» Kimni nutqi zikr, sukuti fikr va nazari ibrat boʻlsa, albatta u menga uxshabdi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zufarova M.E.. Umumiy psixologiya.-T.: 2016
2. Xaydorov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya, -T.: 2016.

EVALUATION OF INDUSTRIAL SYSTEM GROWTH IN THE CONTEMPORARY ECONOMY

Aziza Egamnazarova Ernazar qizi-Student of Gulistan State University

Mamatkarimova Charos Baxrom qizi- Student of Gulistan State University

Turaeva Gulizaxro- PhD, Senior Lecturer of Gulistan State University, Uzbekistan

ABSTRACT. The purpose of the article is to study the role and importance of industry in the fight against poverty. To conduct our research, firstly, the analysis of the dynamics of the production volume in the industrial sector of our economy in 2017-2020 in statistical indicators, and then the analysis of panel data was used. The following statistical indicators were used to quantitatively assess the dynamics of the studied events and processes - absolute change; - change image;

For our analysis, data from 13 industrial production sectors in the industrial sector are used. Therefore, our data have four years of performance. . The results indicate that the production volume in the industry is increasing year by year, according to our data. This is also observed in some of his compositions.

Keywords: industrial development, innovative ideas, investments, clustering, leasing, employment promotion, textile and light industry.

INTRODUCTION

For the first time in the history of Uzbekistan, the issue of poverty was raised in the address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis on January 24, 2020, and this topic became the main agenda of socio-economic policy.

In Uzbekistan, 16.3 percent of the able-bodied population will be employed in industrial production in 2021. It should be noted here that the provision of the republic's industry, employment of the able-bodied population with socially useful work, one of the measures to combat poverty, is improving at an accelerated pace.


RESULTS AND DISCUSSION

In our research panel, the dynamics of production volumes in the industrial sector of our economy from 2020 to 2022 and the place and role of industry in the national

economy are analyzed. For our analysis, data are used from 13 Industrial production sectors within the industrial sector. Therefore, our data has four years of indicators. According to the indicators of our data, the volume of production in the industry is increasing year by year. This is also observed in some of his compositions.

The following statistical indicators were used to quantitatively assess the dynamics of the studied events and processes;

-Absolute change; -A picture of change;



**Analysis of production volume by industrial production sectors
 (as a percentage of the previous year)**

Figure 1 Production volume dynamics by industrial production sectors

The role and place of industry in the national economy can be clearly seen from the following table (**Figure 1**). The table below shows the dynamics of production volumes in the structure of the industrial sector of our economy.

The main factor of such growth is that the state itself is pursuing a reform strategy on a par with the policy of industrialization. Among those that make up the leading positions in industrial production, one can name mechanical engineering and metalworking, light industry, food industry, non-ferrous metallurgy. The basis for achieving positive indicators was, first of all, the preservation of existing industries in the required volume and the creation of new industry strategies. Indeed, since the first years of independence, the development of the real sector has become one of the priorities for the Government of Uzbekistan. With fuel and energy products in our republic.

CONCLUSION

Taking into account the current trends in the development of industries, it is necessary to determine the real need for personnel in industry and promising areas of their training, take part in improving training programs for training, retraining and advanced training of specialists, deepening research in this area, identifying and eliminating systemic problems that hinder the accelerated development of the industry and the sustainable functioning of light industry enterprises, developing proposals for further improvement of legislation in this area.

REFERENCES

1. Sh. Mirziyoyev.M. Message of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis.December 28, 2020. Source: [http: press-servis.uz](http://press-servis.uz)
2. Умаров, С., Тураева, Г., & Чоршанбаев, У. (2024). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХАЖМИНИНГ 2023-2030 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 25(2), 361-366..
3. Turayeva G. et al. BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 53-55."
4. Тураева Г. К. АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЗЕРНА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 1387-1394.
5. Qaxxorovna T. G. et al. The Impact of Artificial Intelligence on the Economy //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 1041-1045.
6. Daminova K. M. et al. Evaluation of prodromal stage biomarkers in parkinson's disease and their role in disease progression use of modern digital technologies //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 408-411.
7. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1287-1291.

8. Азаматов, З. Т., Редкоречев, В. И., Абдурахманов, К. П., Кулагин, И. А., & Акбарова, Н. А. (2016). Лазерная интроскопия кремниевых пластин. In Голография. Наука и практика (pp. 405-408).
9. Муминов, Р. А., Азаматов, З. Т., Акбарова, Н. А., Тукфатуллин, О. Ф., & Хусаинов, И. А. (2014). Влияние голографических покрытий на эффективность кремниевых фотопреобразователей. Международный журнал Гелиотехника, (3), 6-8.
10. Azamatov, Z. T., Akbarova, N. A., Kulagin, I. Y. A., Gaponov, V. E., Redkorechev, V. I., & Isayev, A. M. (2017). Digital holographic interferometry in physical nanomeasurements. Наносистемы: физика, химия, математика, 8(1), 79-84.

**ISHLAB CHIQUARISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI
OMILLAR: STATISTIK TAHLIL****Rahmonova Mahbuba***Termez davlat universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti*Makhbuba.rakhmonova@gmail.com

+998978106888

Ilmiy rahbar: Ollokulova Feruza Mansurovna*Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti, i.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar statistik jihatdan tahlil qilinadi. Statistik omillar tahlili mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar strategik qarorlar qabul qilish jarayonida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish, strategiya, statistik tahlil, respondent, foiz, ko'rsatgich, omillar, ta'sir, sanoat.

Annotation: In this article, the factors which influence product manufacturing process will be analyzed. Analysis of statistical factors will be expected to be as a basis for manufacturing companies in their strategic decision-making process.

Key words: Production, strategy, statistical analysis, respondent, percentage, indicator, factors, impact, industry.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы, которые могут повлиять на производственный процесс, с точки зрения статистики. Анализ статистических факторов служит важной основой для принятия стратегических решений предприятиями, занимающимися производством продукции.

Ключевые слова: Производство, стратегия, статистический анализ, респондент, процент, показатель, факторы, влияние, промышленность.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonivichning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirgan holda, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1.4 baravarga oshirish maqsadi ilgari surilgan. Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda eksport hajmini 30 milliard AQSH dollarga yetkazish maqsad qilinmoqda. Eksportchi korxonalar soni 6500 tani tashkil qilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatgichni qariyb 3 barobarga ya'ni 15000 taga ko'tarish va "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab,ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish maqsad qilinmoqda. ¹

Bu tashabbusni amalga oshirishda shu mamlakatning bir bo'lagi sifatida hissamizni qo'shgan holda, sanoat tarmoqlarini barqarorligini ta'minlash hamda innovatsion yondashuvlarni ilgari surish kabi iqtisodiy rivojlanishga turtki bo'lsak, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Mahsulot ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini amalga oshirish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

		Frequenc y	Percent	Valid Percent	Cumulative Percent
Valid	Oziq-ovqat sanoati	17	34.0	34.0	34.0
	Mashinasozlik	4	8.0	8.0	42.0
	Kimyo sanoati	6	12.0	12.0	54.0
	Elektronika	6	12.0	12.0	66.0
	boshqa	17	34.0	34.0	100.0
	Total	50	100.0	100.0	

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

² 1-jadval Respondentlarning faoliyat yuritayotgan korxonalarining ishlab chiqarish sohasi

Ushbi jadval shuni ko'rsatadiki, so'rovnomada ishtirok etgan ishtirokchilarning umumiy soni 50 tani tashkil qilib, ularning asosini 34% ni oziq-ovqat sanoatida faoliyat ko'rsatuvchilarni tashkil etgan bo'lsa, yana 34 % sanoatning boshqa turlarida ishlab kelayotganlar. Kimyo va elektronika sanoatida faoliyat olib borayotganlar soni bir xil ko'rsatgichlarni 12 foizni ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish strategiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida bozor talabi, yangi bozorlar, makroiqtisodiy omillar, ekologik talablar, eksport imkoniyatlari hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar olindi.

So'rovnoma ishtirokchilariga 5 ta qismdan iborat bo'lgan test savollari taqdim qilinib, aynan berilgan omillar yuzaga kelganda qanday strategik qarorlar qabul qilishlari mumkinligi haqidagi tanlovlar variant shaklida berildi. Shu bilan birga, turli iqtisodiy, siyosiy vaziyatlarning ishlab chiqarish strategiyasiga ta'sirini baholovchi variantlar test tarkibiga kiritildi.

Termiz hududida joylashgan korxonalarda qanchalik mahsulot ishlab chiqarish uslubi avtomatlashtirilganligini ko'rib chiqamiz.

Ushbu chastota va foiz tahlili shuni ko'rsatadiki, 36 foiz respondentlar o'zlari faoliyat yuritayotgan korxonalarda avtomatlashtirish, raqamlashtirish qisman joriy etilgan. 15 foiz ishtirokchi bu jarayon hozirda rejalashtirilganligini ta'kidlagan. Xulosa tariqasida ta'kidlash mumkinki, Termiz shahrida sanoat ishlab chiqarish jarayoni hali to'liq avtomatlashtirishga transformatsiya amalga oshirilmagan va bu jarayon hali ilk bosqichda ekan.

Ishlab chiqarish strategiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish maqsadida tavsifiy statistika(descriptive statistics) tahlilini olib boramiz.

Ushbu jadvalda har bir omil mean, median, mode va standart deviation kabi ko'rsatgichlar asosida tavsifiy statistik tahlil qilinadi.

² 2-jadval Respondentlarning faoliyat yuritayotgan korxonalarining ishlab chiqarish sohasi, Jadval SPSS dasturida tayyorlangan bo'lib, tavsifiy statistikani ko'rsatadi.

Raqobatchilarning strategiyasi ishlab chiqarish rejasiga ta'siri

Raqobatchilarning strategiyasi ishlab chiqarish rejasiga ta'sirini baholashda mean ko'rsatgichi 1.90ga teng bo'lib, raqobatchilar ta'siri kuchli ekanligini anglatadi. Strategik qarorlar qabul qilishda, ishlab chiqaruvchi firmalarning 42 foizi raqobatchilarga javoban texnologik o'zgarishlar, 16 foizi esa ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish kabi qarorlarni qabul qiladi.

1. Inflatsiya va valyuta kursining ishlab chiqarish strategiyasiga ta'siri

Makroiqtisodiy omillarni ishlab chiqarish strategiyasini aksariyat respondentlar "kuchli" va "o'rtacha" baholashgan. 54 % respondent inflatsiya va valyuta kursidagi tebranishlar narx siyosatini o'zgartirish kerakligi haqidagi strategik qarorni ilgari surgan bo'lsa, 24 va 20 foiz so'rovnomaga ishtirokchilari uning oqibati natijasida ishlab chiqarishda xom-ashyo xarajatlari ko'payishi bu o'z navbatida ishlab chiqarish hajmini keskin kamaytirishga sabab bo'lishini ko'zda tutgan.

2. Soliq siyosatini ishlab chiqarish rejasiga ta'siri

Tavsifiy statistik tahlilga ko'ra, soliq siyosati ishlab chiqarish rejasiga ta'siri bo'lsada, bu katta ko'rsatgichni tashkil qilmaydi. Buning sababi tariqasida ta'kidlash mumkinki, yurtimizda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash maqsadida ularga soliq va subsidiya imtiyozlari mavjudligi tadbirkorlarni soliq siyosatiga ko'nikma hosil qilganligi bo'lishi mumkin.

Berilgan chastota va foiz tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq siyosatidagi o'zgarishlarda 66 foiz ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar soliq to'lovlarni tendensiyalariga yuzaga kelganda, ishlab chiqarish rejasini o'zgartirmay balki, davlat subsidiyalari yordamida ishlab chiqarishni kengaytirish kabi strategik qarorlarni qabul qilishganini ta'kidlashgan.

4-5. Xalqaro iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning ishlab chiqarish strategiyasiga ta'siri:

Xalqaro iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarni ishlab chiqarish strategiyasini tahlil qilganda, 31 ta respondent bu vaziyatda xom-ashyo importi va eksportida cheklovlar yuzaga kelishi mumkinligini qayd etgan. Holbuki, bunday cheklovlar asosan eksport va import bilan shug'ullanuvchi firmalarda yuzaga kelishi mumkin. 8 foiz ishtirokchi

xalqaro vaziyatlar ishlab chiqarish strategiyasiga befarqligini belgilaydi. Asosan bu mahalliy kichik biznes bilan shug'ullanuvchi firmalar bilan bog'lik, ular xalqaro vaziyatlardan asosan mustasno hisoblanadi. Shu qatorda, mahsulot yetkazib berish zanjirida muammolar yuzaga kelib, narx siyosatiga o'z tas'irini o'tkazishi tahlilimizda ko'rsatilgan.

3. Global bozor va eksport imkoniyatlari ishlab chiqarish strategiyasiga ta'siri

Bu aniqki, global bozorda eksport qilinadigan har qanday mahsulot maxsus sifat nazoratdan o'tkaziladi. O'z navbatida, ekport imkoniyatlari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni dunyo standartlariga javob berishini talab qiladi, mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bu so'zlarning yaqqol isbotini statistik tahlilimizda ko'ramiz. 50 foiz respondentlar eksport imkoniyatlari mahsulot sifatini oshirishda qo'l kelishini ta'kidlagan. Mahsulotning raqobatbardoshligini bir yo'sinda ta'minlash biroz mushkul, shu sababdan yangi texnologiyalar joriy qilib ular asosida mahsulot yaratish va eskport hajmini oshirish kabi strategik qarorlar muvofiqdir.

Ekologik talablarning ishlab chiqarishga ta'siri

Ekologik talablarni ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganishda shu aniqlandiki, ekologik talablar 52 foiz so'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarni o'z mahsulotlarini ekologik talablarga moslashtirishlari mumkin bo'lib, 28 foiz ishlab chiqaruvchilar yashil texnologiyalarni joriy qilishlarini ko'zda tutgan. Atrof muhitimizni barqarorligini ta'minlash maqsadida, ekologik talablar maqsadga muvofiq ekanligi statistik tahlilimizda o'z ifodasini topdi.

Bozor talabi va ishlab chiqarish strategiyasi o'rtasidagi korrelyatsion tahlil

KUHLILIK DARAJASI:	KENDAL'S TAU B KORRELYATSIYA SHKALASI
Ahamiyatsiz	0.00
Kuchsiz	0.06

O'rta	0.26
Kuchli	0.49
Juda kuchli	0.71

Ushbu natija SPSS (statistical package for social sciences) dasturi orqali tayyorlangan bo'lib, bunda Kendall's tau_b korrelyatsiya testi bozor talabi va ishlab chiqarish strategiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ishlatildi.

Natijaga ko'ra. Korrelyatsiya koeffitsienti 0.485 ga teng, bu quyidagi berilgan shkalaga ko'ra o'rtacha bog'liqlikni ifodalaydi. Ya'ni, bozor talabi oshishi bilan ishlab chiqarish strategiyasi ham sezilardi tarzda o'zgaradi. P qiymati bu yerda 0.01dan kichik sig(2-tailed) shaklida berilgan, ushbu bog'liqlik statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi. Ushbu natija ishlab chiqaruvchilarni bozor talabiga muvofiq o'z strategiyalarini o'zgartirishlarini taklif qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. 2-jadval Respondentlarning faoliyat yuritayotgan korxonalarining ishlab chiqarish sohasi,
3. SPSS Tutorials. (n.d.). *Kendall's Tau – Simple tutorial with example in SPSS*. Retrieved April 23, 2025, from <https://www.spss-tutorials.com/category/statistical-tests/correlation/kendalls-tau/>

FALASFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH VA ULARNING SAMARASI**Mamatqulova Nilufar Xusanovna**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi (PhD),
90 418 30 06**Nazarov Sirojiddin G'ani o'g'li**sirojiddinnazarov612@gmail.com

94 746 66 99

Yo'ldoshev Azizbek Najmiddin o'g'liayoldoshov81@gmail.com

94 715 56 16

Daminov Samandar Iskandar o'g'lidaminovsamandar017@gmail.com

+998972851017

Ibodullayeva Naxshona Nodirjon qiznaxshonaibodullayeva@gmail.com

+998949372835

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda Oliy o'quv yurtlarida berilgan katta e'tibor hamda falsafa fanini o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan foydalanish talablari va samarasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: «innovatsion», suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum, Insert, Pinbord, Kontseptual jadval, Venn diagrammasi.

KIRISH.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur..” deb ta’kidlab o‘tganlar.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish borasida chora-tadbirlar belgilab berildi.[1]

Hozirgi zamon ta’limining bosh va asosiy vazifasi-o‘quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga, ruhlantirishga qaratilmog‘i zarur. Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

O‘quvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga ko‘maklashish ularning o‘z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi. O‘zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat’iy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute’lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda

uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo'lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Demak, sifatli ta'lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan, boy jamiyatni quradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (YuNESKO, NENISEF) Xalqaro forumida qabul qilingan 2030 yilgacha ta'lim deklaratsiyasida "... ta'lim sifatini oshirish va shaxsning butun umri davomida ta'lim olishini muvofiqlashtirish va monitoringini o'tkazish" e'tirof etilgan bo'lib unda, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida zamonaviy bilim – tajribalar, ta'lim texnologiyasi, innovatsion va interfaol metodlar, ta'limning didaktik vositalari, axborot texnologiyalaridan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelganligi aytilgan.

Jahon ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar, istiqbolli rivojlanish tendensiyalari raqamlashtirishga o'tilayotgan jamiyatda malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jamiyatda o'qituvchining kasbiy faoliyati yuqori kasbiy harakatchanlikni, kasbiy muloqot qilish mahoratiga ega bo'lish, o'qitish texnologiyalarini samarali qo'llay olish, oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishida mustaqil kreativ fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotida yangicha qarashlar qaror topayotgan bir sharoitda yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, boshqarish, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Ta'lim jarayonida yuqori sifat va samaradorlikka erishish ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qiladi. «Innovatsiya» iborasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «innovation» - «yangilik kiritish», «yangi g'oya» degan ma'nolarni bildiradi.

Innovatsion o'qitishda bilimlar vazifasi o'zgaradi. Ya'ni, avvalgi doimiy yod olishdan mantiqiy fikrlash, izlanishga o'tiladi. Bunday faoliyat o'quvchi faoliyatidagi ijodkorlikni rivojlantiradi. U o'z tengdoshlari va o'qituvchisi bilan o'zaro faol «sub'yekt-sub'yekt» munosabatlariga kirishadi.

O'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir.

Falasafa fanini o'qitishda eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilar hisoblanadi: *suhbat, bahs, o'yin, keystadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum* va boshqalar hisoblanadi.

Bahs (munozara) - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi. Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ✓ yangi bilimlarni shakllantirishda;
- ✓ o'quvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyati ga kirishni ta'minlashda;
- ✓ o'quvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;
- ✓ o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;
- ✓ o'quvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob. Insert - o'zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.

Matnda belgilash tizimi

(V) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - mening bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

“**Aqliy hujum**” - “breyntstorming” (brain storming) inglizcha soʻzdan olingan boʻlib, faol taʼlimning, boshqaruvning va tadqiqotning metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod aqliy faollikni qoʻzgʻatadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi.

Pinbord (inglizchadan: *pin-* mahkamlash, *board* - yozuv taxtasi) munozara usullari yoki oʻquv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Taʼlimiy oʻyin Ishbilarmon va rol (holat)li oʻyinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material oʻrniga, oʻquvchilar tomonidan oʻynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi.

Falsafani oʻqitishda zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan juda koʻplaridan samarali foydalanilmoqda.

Global muammolarni falsafiy anglab etishning oʻziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funktsiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos boʻlgan xususiyatlarni qayd etib oʻtamiz. Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yoʻnalishini koʻp jihatdan belgilaydigan muayyan moʻljallar beradi. Shu tariqa falsafa oʻzining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funktsiyalarini bajaradi. Ikkinchidan, turli fanlar doirasida oʻrganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning oʻzaro hamkorligi yoʻlida jiddiy toʻsiq hisoblanadi. Shu maʼnoda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funktsiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga koʻmaklashadi. Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini taʼriflaydi va shu sababli global muammolarni oʻrganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bogʻliq boʻlgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yoʻl koʻrsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo boʻlishi tasodif yoki insoniyatni halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga toʻla insoniyat tarixi obʼektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi. Toʻrtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendentsiyasini, ularning oʻzaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab etish imkonini beradi. Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali maʼnaviy- madaniy funktsiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini oʻrganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bogʻlamasdan yechish mumkin emas. Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan

o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi. Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funktsiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendentsiyalarini tushunish va anglab etishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi. Global muammolarning mohiyati. «Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri– 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi.

Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, Mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va Mintaqaviy muammolar– xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa– umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi. Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariya, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k. Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi

fuqarolar urushi nazarda tutiladi. Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada baʼzan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning maʼlum qiyinchiliklari, gʻam tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular Mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin. Mintaqaviy muammolar ayrim qitʼalar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim oʻzgarishlari misol boʻlishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurgʻoqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qitʼasining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan koʻproq odam halok boʻldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud boʻldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli toʻla sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki erning qolgan yuzasi, er osti boʻshliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi. Shunday qilib, global muammolar toʻgʻrisida soʻz yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi koʻrib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa– rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini oʻrganishda esa, mintaqalar soni koʻpayadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi. Bunda shuni qayd etish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, yaʼni ularning har birida namoyon boʻlgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) toʻgʻrisida soʻz yuritiladi. Bundan barcha global muammolar ayni vaqtda mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin Mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global boʻlavermaydi, degan xulosa kelib chiqadi. Oʻz-oʻzidan ravshanki, global muammolar soni kamroq boʻladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy koʻrinishga ega boʻlmasligi yoki bu yerda uncha sezilmasligi mumkin.

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki

suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir. Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan– ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi. Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir. Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi. Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining ob'ektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas. To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Global muammolarning boshqa bir muhim xususiyati– ularning barchasi bir biriga shu darajada bog'liqlik, ulardan birini yechish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

**INSON MANFAATLARI, HUQUQ VA ERKINLIKLARI MASALALARI
("ALHIDOYA" ASARI ASOSIDA)**

Ziyoyev Jamshid Sobirovich

DTPI 2-kurs Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi talabasi

email : ziyoyevjamshid1976@gmail.com

Baratov Qahramon Nuriddin o'g'li

DTPI 2-kurs Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Al-Hidoya" asarida inson huquqlariga oid masalalarning yoritilishi, mazkur sohada muammolarning hal etish masalalari o'rganilib, uning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, himoya, erkinlik, adolat, javobgarlik.

Kirish. Burhoniddin Marg'iloniy zamonasida olimlar o'rtasida qo'ldan-qo'lga o'tib yurgan ikki mashhur kitob bor edi. Birinchisi "Muxtasar Quduriy" asaridir. U Abu Hasan Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bog'dodiyning kitobi. Ikkinchisi "Al-Jomi as-Sag'ir" bo'lib, ushbu asar Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyning kitobidir. Burhoniddin Marg'iloniy mana shu ikki mashhur kitobning masalalarini muxtasar qilib jamladi. Hosil bo'lgan muxtasar kitobni "Bidoyat al-mubtadi" deb nomladi. So'ngra "Bidoyat al-mubtadi" kitobini sakson jildlik sharh qildi. Uni (sharhni) "Kifoyat al-muntahi" deb nomladi. "Kifoyat al-muntahi" haddan tashqari uzayib ketganini ko'rib, kitobdan odamlar uzoqlashmasligi uchun "al-Hidoya" kitobini yozdi. "Al-Hidoya" kitobi "Bidoyat al-mubtadi" kitobining sharhi, "Kifoyat al-muntahi" kitobining muxtasari bo'ldi. "Al-Hidoya" tushunarli va ma'nosi ochiq, turli masalalar va dalillarini o'zida jamlovchi bir sharh asar hisoblanadi. "Hidoya" Burhoniddin Marg'iloniy tomonidan tasnif qilingan mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar alloma Burhoniddin Marg'iloniyning «Bidoyatul mubtadi» asriga muxtasar sharhdir. "Hidoya" asarini o'z zamonasida mashhur qilgan Burhoniddin Marg'iloniyning shogirdlari – Shamsula'imma Muhammad ibn Abdusattor Kardariy va boshqa allomalar hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Asarda inson huquqlari va erkinliklari to'g'risida bilimlar, jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqli ekanligi, ya'ni tabiiy huquqning e'tirof etilishi, inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi, insonlarning kafolatlangan himoya bilan ta'minlanishi, huquqni qo'llovchi shaxslarda inson xukuklari va erkinliklariga rioya qilish buyicha mas'ullikni oshirish kabi masalalar yoritilgan. Inson huquqlari va uning himoyasi har bir davrning dolzarb masalasi hisoblangan. "Al-Hidoya" asarida inson huquqlari va himoya qilish munosabatlari ahamiyatli masalalar sifatida yoritilgan. Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asarini tadqiq etgan va nashrga tayyorlagan olimlar A.Saidov, A.Jo'zjoniy ta'kidlaganidek, "mana necha asrlardan beri Hanafiy faqihlari orasida Burhoniddin Marg'inoniyning bu asari katta shon-shuhratga ega bo'lib kelmoqda. "Hidoya" mumtoz tadqiqot sifatida har bir qozining birinchi yordamchisi, shariatning qiyin masalalarini va huquqiy masalalarni hal etishda rahbar qo'llanma bo'lgan". Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, Marg'inoniyning "Hidoya" asari qator asrlar davomida musulmon mamlakatlarida muayyan darajada fiqh ilmining qomusi ham bo'lib xizmat qilgan. Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asarida o'sha davrda huquqiy jihatdan yechilmagan masalalarning yechimlari, qiyosiy huquq tahlillari, ko'plab mulkiy sohada yechilmagan masalalar, ayrim muayyan muammolar bo'yicha mulohazalar bayon etilgan va tahlillar yoritilgan.

"Al-Hidoya" asarida huquq normalari ishlab chiqilish jarayoni hamda bu normalarning jamiyat hayotiga olib kirilishi va uni amalga oshirish jihatlari, amaliyotda qo'llash va uning murakkablik jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Bilamizki, har bir qonunchilik normasi o'zining ijrosi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Qonunchilik normasining ijrosi taminlanmasa yoki talablari buzilsa, buning uchun javobgarlik masalasi mavjudligi muhim hisoblanadi. Asarda insonning yashash huquqi, shuningdek, ozod, erkin bo'lish huquqi, oilali bo'lish huquqi, mulk huquqi kabi kator fundamental huquqlar to'g'risidagi g'oyalar va ushbu sohada huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari hamda ularni amalga oshirishga oid masalalar yoritilgan. Asarda huquq normalari va ularni himoya qilish yoki majburiy ravishda ijro etish mexanizimlari bayon etilgan. Chunki har qanday jamiyat va davlat faoliyatini qonunlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qonunlarning qat'iyligi va ularning ijrosi hamda mas'uliyati jamiyatda adolat mezonini ta'minlash prinsiplaridan biri hisoblanadi. Asarda aynan ushbu masalalar atroflicha yoritilgan.

Asarda insonlarning shaxsiy huquq va erkinliklari borasida so'z borsa, albatta, yashash huquqi dastlab tilga olinadi. "Al-Hidoya" asarida ham inson hayoti va uning

muhofazasiga doir bir nechta norma va huquqlar belgilangan. Jumladan, manbaning “Jinoyatlar bo‘limi”da qotillik, ya’ni inson joniga tajovuz qilishning 5 ta ko‘rinishlari haqida so‘z boradi. Ular: qasddan, qasdga o‘xshash, xato qilib (ehtiyotsizlik oqibatida), xatoning o‘rnida va biror sabab bilan qilingan qotilliklardan iborat. Marg‘inoniy ularning sabab va ko‘rinishlarini birma-bir sharhlab beradi. Ularning eng og‘ir oqibatlisi qasddan sababsiz bir jonga qasd qilish bo‘lib, bu Qur‘on va sunnat bilan harom qilingani va bunday qotillik sodir etishning oqibati jahannam bo‘lishi ta’kidlanadi. Aytish joizki, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari o‘zbek va musulmon huquqshunosligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardan biridir. Bu asar, asosan, islom huquqi, shariat qonunlari va ularning amaliyotiga oid masalalarni yoritadi. Asar turli huquqiy mavzularni qamrab oladi, jumladan, inson huquqlari, fuqarolik, jinoyat, oilaviy, mehnat huquqi kabi sohalarga oid masalalar ko‘rib chiqiladi. Inson qadr qiymati, ta’lim olish, fikr va so‘z erkinligi, e’tiqod erkinligi, mulk muhofazasini ta’minlash choralari ushbu asarda turli uslublarda bayon etiladi.

Burhoniddin Marg‘inoniy ushbu asarida muammolarni tahlil qilishning o‘ziga hos uslubi (fiqhiy dallilash) ochib ko‘rsatish, huquqiy muammolarni yechish va yechimlarini taklif etish uslublari orqali o‘rganish jarayonini rivojlantiradi. Asarda huquqiy masalalar jamlanadi, shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda madaniyatning rivoji uchun xizmat qiladigan ma’lumotlar va boshqaruv sohadagi masalalar bayon etiladi.

Xulosa. Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlashda ushbu asardagi qoidalar va standartlarni o‘rganish ahamiyatli hisoblanadi. Asarni o‘rganish inson huquqlariga oid g‘oyalarning tub mohiyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, asar bilan tanishish asosida shuni ta’kidlash mumkinki, inson huquqlari konsepsiyasi u yoki bu shaklda islom huquqi tizimi asosida idrok etiladi. Inson huquqlariga oid mavzular shunchalik ochiq, tushunarli va qat’iyat asosida bayon etiladiki, ortiqcha sharhga hojat qolmagan. Biz mazkur tadqiqot natijasida inson huquqi va erkinligiga oid zamonaviy konsepsiyalar aynan shunday asrlarda bayon etilgan manbalar asosida taraqqiyot bosqichlari orqali rivojlanib kelganini tushunamiz.

“Al-Hidoya” hozirgi davr huquqshunoslariga, umuman o‘tmish tariximizga qiziquvchi barcha o‘quvchi va tadqiqotchilarga ma’naviy va ma’rifiy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga ko‘maklashuvchi manbalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta’kidlash lozimki, asarda inson

huquqlari va erkinliklari, inson qadrqimmatini e'zozlanadi, o'z huquqlarini qanday himoya qilishni bilish va qayerda himoya qilish vositasi dalillar bilan bayon etiladi. Asarda umuman har bir insonning talab va nizomlarni bekamu ko'st bajarishi bilan birga ularning majburiyatlari ham ifodalangan va tartiblarga rioya etish muqaddas burch hisoblangan. Asarning huquqiy qiymati shundaki, uning muallifi o'z fikrlarini va qarorlarini turli dalillar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari o'quvchiga tez va tushunarli yetishi uchun turli manbalarni, dalillarni keltiradi. Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari inson huquqlarining himoyasini ta'minlashda, ushbu jarayonlarni o'rganishda muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Президенти БМТ Бош Ассамблеясининг 78-сессиясида нутқи. 20.09.2023
2. Одил Қориев. "Бурхонуддин ал-Марғиноний - ҳуқуқшунос" / «Шарқшунослик» тўплами. Т., 1993 й.
3. Хидоя. Комментарий мусулманского права. Отв. ред. и авт. вступ. стати и комментарий А. Саидов. Ташкент: Ўзбекистон, 1994.
4. Мўминов А. Мовароуннаҳр уламолари: ҳанафийлар // Шарқшунослик. №9 /1999.
5. Тошқулов. Ж., Юсупова Н., Бекмирзаев И., Сарсенбоев О., Масаидов Ислам ҳуқуқшунослиги. Ўқув қўлланма. – Т.; Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2014.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA STEAM LOYIHALAR YARATISH, KICHIK TAJRIBALAR O'TKAZISH

Avvalova Nazokat Tursunmurotovna Surxondaryo vil

Denov tumanidagi 84-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

DTPI Boshlang'ich ta'lim sirtqi shakli 2-kurs 201- guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida loyihalar yaratish va kichik tajribalar o'tkazishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda tajriba asosidagi o'qitish usullarining roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maktab sharoitida oddiy vositalar yordamida bajarilishi mumkin bo'lgan kichik ilmiy tajribalar misolida STEAM loyihalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Maqola pedagoglar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun foydali tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: STEAM, boshlang'ich sinf, loyiha asosida o'qitish, kichik tajribalar, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, fan va texnologiya, amaliy mashg'ulotlar, integratsiyalashgan ta'lim, innovatsion metodlar, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish, eksperimental o'qitish.

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, STEAM (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) yondashuvi o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu yondashuvning joriy etilishi o'quvchilarning dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil yechim topish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z tabiatiga ko'ra harakatchan, izlanuvchan va bilishga chanqoq bo'lishadi. Shu bois, dars jarayonida kichik ilmiy tajribalar, kuzatuvlar, oddiy texnologik modellar yasash orqali ularning bilimga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish mumkin. STEAM yondashuvi aynan shu imkoniyatlarni taqdim etadi: o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, mavzuni

chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi hamda nazariy bilimlarni hayotiy misollar bilan bog'lab boradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan STEAM loyihalarini yaratish, kichik tajribalar tashkil etishning metodik jihatlari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri hamda pedagogik afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, amaliy misollar asosida ushbu yondashuvning foydali jihatlari tahlil qilinadi va o'qituvchilar uchun tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism.

STEAM yondashuvi zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli o'laroq, o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, muammoni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Ayniqsa, bu yondashuv boshlang'ich sinf bosqichida joriy etilganda, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

1. STEAM yondashuvining boshlang'ich ta'limdagi o'rni. Boshlang'ich ta'lim — bola shaxsining intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng muhim davrlardan biridir. Shu bois, ushbu bosqichda berilgan har bir ta'lim uslubi bolaning keyingi bosqichlardagi o'qishiga, kasbiy yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. STEAM yondashuvi o'quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantirib, bir necha fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish orqali chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, matematika darsida o'lchov birliklarini o'rganish bilan birga, oddiy muhandislik modellari yasash orqali fanlararo integratsiya hosil qilinadi.

2. Loyihalash faoliyati va kichik tajribalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun loyihalash jarayoni oddiy va tushunarli bo'lishi kerak. Loyiha mazmuni o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish, bilimni mustahkamlash va ijodiy fikrlashga undash imkonini yaratishi zarur. Masalan, "O'z qo'ling bilan suv filtri yarat" loyihasi orqali o'quvchilar tabiat fanlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ekologik muammolar haqida ham o'rganadilar. Kichik tajribalar — STEAM yondashuvining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular oddiy, xavfsiz va qiziqarli bo'lishi lozim. Quyidagi misollarni keltirish mumkin: "Sodali vulqon" tajribasi: sirka va soda aralashmasi orqali gaz hosil bo'lishi, kimyoviy reaksiya haqida tushuncha beriladi. "Magnitli labirint": fizika qonunlari asosida magnit maydonining ta'siri tushuntiriladi. "Ko'pik ichidagi ranglar": suv, sovun va bo'yoq yordamida ranglarning aralashishi kuzatiladi. Bunday tajribalar o'quvchilarda kuzatish, taxmin qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ilmiy metodlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. STEAM loyihalarining afzalliklari. O'quvchilarda qiziqish uyg'otadi: amaliy ishlar darsni jonlantiradi va bolalarda bilim olishga nisbatan motivatsiyani oshiradi. Fanlararo bog'liqlikni shakllantiradi: matematika, biologiya, texnologiya, tasviriy san'at va boshqa fanlar integratsiyalashadi. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: o'quvchi faqat bilimni oluvchi emas, balki uni amalda qo'llay oluvchi faol subyektga aylanadi. Jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantiradi: loyihalarda o'quvchilar guruh bo'lib ishlashni, fikr almashishni, mas'uliyatni bo'lishishni o'rganadilar.

4. O'qituvchi roli va metodik yondashuvlar. O'qituvchi STEAM loyahasini tashkil qilishda rahbar, yo'lko'rsatuvchi va motivator bo'lishi kerak. Loyihalarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim: O'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga mos bo'lishi; O'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin bo'lgan darajada bo'lishi; Oddiy va mavjud vositalar yordamida bajarilishi; Natijasi aniq va kuzatiladigan bo'lishi. Metodik jihatdan esa, ko'rgazmali usullar, muammoli savollar, rolli o'yinlar, guruhiy topshiriqlar, interaktiv dars shakllari keng qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Xulosa:

Boshlang'ich ta'lim bosqichida STEAM yondashuvini joriy etish o'quvchilarning shaxsiy va aqliy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Loyihaviy ishlar va kichik ilmiy tajribalar orqali ular o'rganilayotgan mavzularni chuqurroq tushunib, o'z fikrini ifoda etish, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. STEAM loyihalari dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarda fanlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi va ularni ijodkor, izlanuvchan, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol toptiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ilhomlantiruvchi va o'quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqaruvchi muhim figuraga aylanadi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z amaliyotida STEAM elementlarini keng qo'llashlari, oddiy tajribalar, loyihalar, guruhiy ishlar orqali ta'lim jarayonini interaktiv va mazmunli qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov, N. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Tursunov, B. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2019.
3. Karimova, D. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: “Ilm Ziyο”, 2021.

4. Mamatqulova, M. STEAM ta'limining metodik asoslari. – Samarqand: “Samarqand universiteti nashriyoti”, 2022.
5. Begmatova, S. Boshlang'ich sinfda fanlararo integratsiya asosida o'qitish. – Nukus: “Bilim”, 2020.
6. Islomova, Z. Ilmiy-tajribaviy darslar orqali o'qitish samaradorligi. – Andijon, 2021.
7. Uzoqova, G. Zamonaviy ta'limda loyiha asosida o'qitish texnologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020.
8. Shodmonov, M. STEAM yondashuvining amaliy tatbiqi. – Qarshi, 2021.
9. Yakubova, L. Bolalar psixologiyasi va ijodiy rivojlanish. – Toshkent: “Fan”, 2018.
10. Turdaliyev, A. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari. – Farg'ona, 2019.

LIRIK ASARLARDA OBRAZLILIK.

Muallif: **Baratova Hilola**

Termiz Davlat Universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti

Ilmiy rahbar: **Husniddin Suvanov**

Annotatsiya

"Ushbu maqolada lirik asarlarda obrazlilikning badiiy matndagi o'zni va ifodalanish usullari, shoirning ichki kechinmalari obrazlar vositasida qanday tasvirlanishi tahlil qilinadi. Maqolada mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalari misolida obrazlarning xilma-xilligi, ularning badiiy-estetik funksiyasi yoritilgan".

Obrazlilikning lirik asar badiiy kuchiga ta'siri, o'quvchi ongiga yetkazilayotgan hissiyotlar orqali asarning mazmunan chuqurlashuvi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lirika, obrazlilik, poetik tasvir, ichki kechinma, badiiy ifoda, badiiylik, emotsional ta'sir.

Kirish

Adabiyot — bu inson qalbi va ruhining aksidir. Ayniqsa, lirika — bu insoniy his-tuyg'ularni eng nozik ohanglarda ifodalovchi janr hisoblanadi. Lirik asar o'quvchini qalban larzaga soladigan kuchga ega bo'lishi uchun undagi obrazlilik kuchli bo'lishi lozim. Obraz — bu adabiy asarning yuragi, uning badiiyligini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Lirik asarlarda obrazlar orqali shoir o'z ruhiy kechinmalarini, ichki iztirob va shodliklarini, hayot haqidagi qarashlarini ifoda etadi.

Obrazlar lirik asarning estetik ta'sirini oshiradi, uni jonlantiradi, o'quvchi qalbiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jarayon esa shoirning badiiy mahorati, til boyligi va tasavvur doirasiga bog'liqdir. Ushbu maqolada biz aynan lirik asarlarda obrazlarning qanday yaratilishi, ular qanday vositalar orqali ifodalanishi va bu obrazlar qanday ma'naviy-badiiy yuklamaga ega ekanini tahlil qilamiz."

Lirik asarlarda obraz yaratish yaratishda shoirlar ko‘pincha tabiat manzaralari, inson a‘zolari ko‘z, yurak, qo‘l, og‘iz va hakozoneing vazifalarini yanada kuchaytirib ifodalashi bilan namoyon bo‘ladi.

Hayvonot olami, tarixiy yoki diniy timsollardan foydalanadilar. Tashbeh, isti‘ora, kinoya, mubolag‘a, ramz va badiiy parallelizm obraz yaratishda asosiy vositalar bo‘lib xizmat qiladi.

Misol uchun, Alisher Navoiy g‘azallarida “guli ruhsor”, “saboï vasl”, “jahon ko‘zi” kabi poetik iboralar orqali go‘zallik, sevgi, istak va armon kabi kechinmalar obrazli ifoda topgan. Bu kabi iboralar shunchaki tasvir emas, balki ma‘no yuklovchi obrazlardir.

Mumtoz lirikada obrazlar tizimi mumtoz adabiyotda, ayniqsa Sharq she‘riyatida, obrazlar tizimi ramziylikka boy bo‘ladi. “Bulbul” — iztirob chekayotgan oshiq, “gul” — sevgining ramzi, “may” — ilhom yoki ma‘rifat, “qomati nay” — sevgilining husnini ifodalovchi obrazlardir. Bu kabi obrazlar yillar davomida ma‘lum bir timsollik yuklamasini olgan va har bir o‘quvchi buni tushunishga o‘rganib ketgan.

Zamonaviy lirika va obrazlilik

"Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ham obrazlilik o‘zining yangi, hayotga yaqinroq shakllarida davom etmoqda. Muhammad Yusuf, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Erkin Vohidov kabi shoirlar lirik asarlarida milliy ruh, Vatanga muhabbat, xalq og‘rig‘i kabi mavzularni obrazlar vositasida ochib berganlar

"Erkin Vohidovning quyidagi misralariga e‘tibor beraylik:

Tong nafasi keldi yuragimga,

O‘zgacha bir ziyo to‘ldi dunyoga

Bu yerda “tong nafasi” obraz sifatida keltirilgan bo‘lib, u umid, yangi hayot, yorug‘lik va tozalik ramzidir.

"Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi misrasida esa obraz orqali ona yurti va ayolona tuyg‘ular birlashadi

Ko‘ksimda o‘zing — yurtim Ko‘ksimda o‘zing — nurim.

Obrazlar bu yerda faqat ko‘rinish emas, balki kuchli emotsional yuklovchi vosita sifatida ishlatilgan.

Obrazlilik va lirik asarning badiiy qiymati

Lirik asarda obraz bo'lmasa, u oddiy bir tuyg'ular izhori bo'lib qoladi. Ammo obrazlar bilan boyitilgan lirik matn o'quvchini o'ziga rom etadi. Bu esa asarning estetik, falsafiy va ruhiy ta'sir doirasini kengaytiradi. Obrazlilik lirik asarga ramziy qatlamlar qo'shadi, uni faqat o'qish emas, his qilish, his etish zaruratini tug'diradi. Aynan shu jihatlar lirikaning boshqa janrlardan ustun tomonlaridan biridir.

Xulosa

"Lirik asarlarda obrazlilik shoirning ichki dunyosini ochib berish, o'quvchini hayajonga solish va asarning badiiy "

"qiymatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir obraz — bu shoir yuragidan tug'ilgan hissiyotlar manbai. Lirik "

"obrazlar orqali asar faqat so'zlar to'plami emas, balki hayotiy, hissiy va estetik hodisaga aylanadi. Shu bois, lirik "

"asarlarni tahlil qilishda obrazlarning o'rni va funksiyasini chuqur o'rganish zarur."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

"1. G'ulomov G'. — Adabiyotshunoslikka kirish, Toshkent: "O'qituvchi", 2002.

"2. Navoiy A. — G'azaliyot, Toshkent: "Fan", 1991.

"3. Erkin Vohidov — Tong nafasi, Toshkent: "Yozuvchi", 2003.

"4. Xudoyberdiyeva H. — Ko'ngil daftari, Toshkent, 2006.

"5. Oripov A. — Hayrat, Toshkent: "G'afur G'ulom", 1996.

"6. M. Axmedov — She'riyatda obrazlilik masalalari, Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010."

MAHALLIY AHOLINING TURIZMGA BO'LGAN MUNOSABATI VA ISHTIROKI

Olimova Ruxshona Sanjar qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, TOUP: 702U-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy aholining turizm sohasidagi o'рни va ishtiroki tahlil qilinadi. Muallif turizmning hududiy rivojlanishidagi muhim jihatlaridan biri sifatida aholining faol ishtirokini ko'rsatadi. Maqolada mavjud ilmiy manbalar asosida aholining turizmga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabati, ishtirok shakllari, iqtisodiy va madaniy ta'siri yoritiladi. Shuningdek, turizmni barqaror rivojlantirishda "mahalliy tashabbus" tamoyilining afzalliklari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari turizm sohasida jamoaviy ishtirokni kuchaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mahalliy aholi, turizm, ishtirok, munosabat, barqaror rivojlanish, hududiy turizm, madaniy meros, mahalliy tashabbus.

Abstract

This article analyzes the role and participation of the local population in the tourism sector. The author highlights active community involvement as one of the key aspects of regional tourism development. Based on academic sources, the paper examines both positive and negative attitudes of residents toward tourism, forms of participation, and its economic and cultural impacts. Furthermore, the advantages of the "local initiative" approach in ensuring sustainable tourism development are explored. The findings demonstrate that enhancing community engagement in tourism can lead to greater socio-economic stability.

Key words: local community, tourism, participation, attitude, sustainable development, regional tourism, cultural heritage, local initiative.

KIRISH

Turizm nafaqat iqtisodiy soha, balki jamiyatning madaniy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omildir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mahalliy aholi turizm tizimining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida alohida o'rinni egallaydi. Ularning turizmga bo'lgan munosabati, qiziqishi va faol ishtiroki hududdagi sayyohlik salohiyatining ochilishi hamda barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy aholining turizm sohasidagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy yutuqlarni ta'minlaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy birlikni kuchaytiradi. Turizm orqali aholining o'z madaniyatiga bo'lgan hurmati ortadi, qadriyatlar qayta tiklanadi va yangi avlodlar uchun ilhom manbai bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar orasida tadbirkorlik kayfiyatining kuchayishi, o'z hududining tarixiy va tabiiy resurslarini ilgari surishga bo'lgan intilishlarning ortgani quvonarli holatdir. Shu nuqtayi nazardan, turizmni rivojlantirishda mahalliy aholining faol ishtiroki har bir hududda o'ziga xos sayyohlik brendining shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, birgina kichik qishloq ham o'zining an'anaviy ovqatlari, liboslari, me'moriy uslublari yoki urf-odatlarini orqali sayyohlar e'tiborini tortishi mumkin. Agar ushbu imkoniyatlar to'g'ri yo'naltirilsa, mahalliy aholining daromad manbai kengayadi, ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi va migratsiya darajasi pasayadi. Bunda, albatta, davlat va nodavlat tashkilotlarining ko'magi, ilmiy yondashuvlar, trening va seminarlar orqali aholining bilim darajasini oshirish kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda turizmning global miqyosdagi raqobat muhitida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nafaqat sayyohlar uchun yaratilgan qulayliklar, balki mahalliy aholining ham qulay yashash va ishlash sharoitlari ta'minlangan bo'lishi zarur. Sayyoh kelganida iliq kutib olinmasa, hudud haqida salbiy taassurot bilan qaytadi. Bu esa faqatgina iqtisodiy zararga emas, balki madaniy obro'ga ham putur yetkazishi mumkin. Shu bois, har bir fuqaroda "mening shahrim – mening iftixorim" degan ruh shakllanishi kerak. Bu ruh orqali ular nafaqat o'z joyini sevadi, balki uni boshqalarga ko'rsatishga, tanitishga harakat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy aholining sayyohlik faoliyatini bevosita boshqarishda ishtirok etishi, qarorlar qabul qilinishida ovozga ega bo'lishi turizmning adolatli va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Har bir loyiha mahalliy aholi ehtiyojlari, ekologik imkoniyatlar va madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Shundagina turizm uzoq muddatli, barqaror va manfaatli soha sifatida shakllanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu yo'nalishda olib borilmoqda. Hududlarda "mahalliy tashabbus" tamoyili asosida rivojlanayotgan loyihalar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda joriy

etilayotgan grant dasturlari natijasida aholining sayyohlik sohasiga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortgan. Bu esa o'z navbatida nafaqat mahalliy darajada, balki milliy iqtisodiyotning umumiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda mahalliy aholining turizm sohasidagi o'rni va ishtirokiga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan tahlillarda turizmni barqaror rivojlantirishda lokal jamoalarning faolligi muhim omil sifatida alohida ko'rsatilgan. Boshqa bir qator xalqaro manbalarda, xususan, Tosun (2006), Scheyvens (1999) va Timothy (2002) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda turizmning ijtimoiy-ekonomik ta'siri va mahalliy aholi ishtirokining muvozanati masalalari yoritilgan. O'zbekistonda bu boradagi tahlillar asosan iqtisodiy va sotsiologik yo'nalishlarda olib borilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan e'lon qilingan strategik hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida aholining turizmga ishtirokini rag'batlantirish borasidagi yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Masalan, "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi"da aholining turizmga bandligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlarning (A. Karimov, M. Xolbo'tayev, D. To'xtayev va boshqalar) ilmiy maqolalari, dissertatsiyalari va konferensiya materiallari asosida aholining turizmga munosabati, ularning madaniy-moddiy manfaatlari, xizmat ko'rsatish sifati va mehmondo'stlik madaniyati kabi jihatlar yoritilgan. Ushbu adabiyotlar asosida maqolada turizm va mahalliy jamoa o'rtasidagi o'zaro aloqaning dolzarbligi, muammolari va istiqbollari tahlil qilingan.

Metodologiya

Tahlil qilish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Deskriptiv metod:** mavjud holat tasvirlandi, O'zbekiston va boshqa davlatlarda qo'llanilayotgan tajribalar solishtirildi.
- **Tahliliy metod:** turizm va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlar, ijobiy va salbiy oqibatlar chuqur tahlil qilindi.
- **Sotsiologik yondashuv:** aholining turizmga bo'lgan munosabati, ishtiroki va ehtiyojlari jamiyatdagi umumiy sotsiokulturni jarayonlar kontekstida yoritildi.

- **Kontekstual tahlil:** rasmiy hujjatlar, strategiyalar va mahalliy tajribalar asosida turizmning hududiy rivojlanishiga ta'siri o'rganildi.

NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, mahalliy aholining turizmga nisbatan munosabati asosan ikki yo'nalishda – ijobiy va salbiy tamoyillar asosida shakllanmoqda. Aholining aksariyati turizmni hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish imkoniyati sifatida qabul qilmoqda. Ayniqsa, sayyohlik faoliyati rivojlangan Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarda aholining bu sohadagi ishtiroki ko'proq kuzatilmoqda. Misol uchun, bu hududlarda mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan oilaviy mehmon uylari, milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosi va gastronomik xizmatlar orqali iqtisodiy faollik kuchaygan. Biroq, ayrim holatlarda aholining turizmga bo'lgan salbiy munosabati ham uchrayotgani qayd etildi. Bunga asosiy sabablar sifatida sayyohlar oqimining ko'payishi natijasida kundalik hayotdagi bezovtalik, narx-navoning sun'iy oshishi, atrof-muhitga zarar yetkazilishi va ba'zi hududlarda madaniy me'yorlarning buzilishi keltirilmoqda. Shu sababli, turizmni boshqarishda aholining fikri, roziligi va faol ishtiroki hal qiluvchi omil sifatida qaralishi zarurligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Shuningdek, metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, turizmni rivojlantirishda eng samarali yo'l – bu aholining turizm jarayoniga bevosita jalb etilishi, ularning manfaatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ish olib borishdir. Sayyohlik infratuzilmasini yaratish yoki kengaytirishda aholining takliflari asosida qarorlar qabul qilinadigan tizim yo'lga qo'yilsa, bu hududlar barqaror turizmni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda O'zbekistonda joriy etilayotgan "mahalliy tashabbus asosidagi turizm" konsepsiyasi ijobiy natijalar bermoqda. Bu konsepsiya orqali aholining o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mahalliy aholining turizmga munosabati: ijobiy va salbiy jihatlar

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy aholining turizmga nisbatan ijobiy munosabati sayyohlar oqimining ortishiga, infratuzilmaning rivojlanishiga, xizmatlar sifati yaxshilanishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy obidalar joylashgan hududlarda aholi turizm orqali o'z qadriyatlarini namoyon qilish, milliy hunarmandchilik, gastronomiya va san'at yo'nalishlarida daromad topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biroq, turizmning noto'g'ri boshqarilishi mahalliy aholida norozilik kayfiyatini uyg'otishi, madaniy ziddiyatlar, ekologik muammolar va narx-navoning sun'iy oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa aholining turizmga bo'lgan salbiy munosabatini kuchaytiradi. Shu bois, sayyohlik faoliyatini rejalashtirishda mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi ishtirokini kuchaytirish yo'llari

Mahalliy aholining turizm sohasidagi faol ishtiroki bir necha yo'nalishda ta'minlanadi:

1. **Axborot va bilim berish** – Turizmning mohiyati, uning hududga keltiradigan foydalari haqida aholiga muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Bu orqali ular o'zlarini jarayonning bir qismi sifatida his qilishadi.
2. **Ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish** – Hunarmandchilik, oilaviy mehmon uylari, gidlik, transport va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha kichik biznes tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishi kerak.
3. **Qaror qabul qilishda ishtirok** – Turizmga oid rejalashtirish va loyiha ishlab chiqishda mahalliy aholining fikri va manfaatlarini inobatga olinishi zarur.
4. **Madaniy merosni asrash** – Aholi o'z tarixiy ob'ektlarini, urf-odat va qadriyatlarini sayyohlik resursi sifatida ko'ra bilsa, ularni asrashga intilishi kuchayadi.

O'zbekistonda mavjud holat va istiqbollar

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekiston" davrida mahalliy hamjamiyatlarni jalb etgan holda ekoturizm, agro-turizm va madaniy turizm yo'nalishlarining rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan, Buxoro, Xiva, Samarqand, Farg'ona vodiysi kabi hududlarda aholining mehmondo'stligi, mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga qiziqishi ortib bormoqda. Turizmni boshqarish bo'yicha islohotlar, grantlar va imtiyozlar orqali fuqarolarning ushbu sohada faol bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tahlil

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholining turizmga faollashuvi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki madaniy o'zlikni saqlash, milliy merosni asrash, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda. Aynan shu jihatlar barqaror va uzoq muddatli turizm siyosatining negizini tashkil etadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki,

mahalliy aholining turizmga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va ularni turizm faoliyatida faol ishtirok etishga jalb etish orqali nafaqat hududiy taraqqiyotga, balki milliy miqyosdagi turizm salohiyatining yuksalishiga erishish mumkin. Shu bois, turizm sohasi rivojlanayotgan har bir hududda mahalliy hamjamiyatning roli kuchaytirilishi, ularning ovozi eshutilishi va faoliyati qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Xulosa

Turizmning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mahalliy aholining unga bo'lgan munosabati va faol ishtirokiga bog'liq. Aholi turizmni foyda manbai, o'zini ifoda qilish va rivojlanish vositasi sifatida qabul qilsa, bu jarayon ko'proq barqaror va uyg'un kechadi. Shu sababli, turizm siyosati va strategiyalarida aholining manfaatlari, ehtiyojlari va takliflari alohida e'tibor markazida bo'lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, turizmni rivojlantirishda mahalliy aholining o'rni va ishtiroki ikkinchi darajali masala emas, balki ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu ishtirok real, faol va ongli shaklda bo'lishi lozim. Aholi o'z hududini sayyohlarga ochib berishga tayyor bo'lsa, turizm chinakam xalq sohasiga aylanadi. Va shundagina, turizm iqtisodiyotimizning tayanch ustuniga aylanishi bilan birga, madaniy boyligimizni saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, K. R. (2020). *Turizm iqtisodiyoti va menejmenti*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Azizov, B. A. (2019). *O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda mahalliy aholi ishtirokining o'rni*. "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 4-son, 112–116-bet.
3. Karimov, A. (2021). *Hududiy turizmni rivojlantirishda jamoatchilik ishtiroki*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
4. Mardonov, Z. R. (2018). *Barqaror turizm va ekologik muvozanat*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
5. Matyoqubov, U. (2020). *Sayyohlik infratuzilmasi va uning mahalliy aholi hayotiga ta'siri*. "Turizm va madaniy meros" ilmiy jurnali, 2(3), 55–60-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5611-son Farmoni (2018-yil 5-yanvar). *2018–2019 yillarda O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish dasturi to'g'risida*.

7. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi (2022). *2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi.*
8. Rustamova, M. Sh. (2022). *Mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar: tahlil va istiqbollar.* Toshkent: "Sotsial tadqiqotlar markazi" nashriyoti.
9. To'xtayev, D. A. (2021). *Sayyohlik faoliyatida mahalliy aholining roli va ishtiroki.* Buxoro: Ilm ziyo nashriyoti.
10. Xolbo'tayev, M. (2020). *O'zbekistonda madaniy meros va turizm o'zaro aloqasi.* "Milliy meros" jurnali, 1(2), 33–38-bet.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT KORXONALARINING TAHLILI

Tursunova Nigora Asatillo qizi

Termiz Davlat Universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi magistraturanti,

nigora0614@gmail.com, +998944692444

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi roli, ularning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari va samaradorlik darajasi yoritiladi. Tahlillar asosida korxonalarining hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish hajmi va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohaga oid taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: *sanoat, korxonona, iqtisodiyot, tahlil, rivojlanish, samaradorlik*

Аннотация: В статье рассматривается роль промышленных предприятий в экономике Узбекистана, их современные направления развития и эффективность. Проведен анализ территориального размещения, объемов производства и актуальных проблем. Также предложены рекомендации по улучшению работы предприятий.

Ключевые слова: *промышленность, предприятие, экономика, анализ, развитие, эффективность*

Abstract: This article highlights the role of industrial enterprises in Uzbekistan's economy, their current development trends, and efficiency levels. It analyzes their regional distribution, production volumes, and existing challenges. The article also presents suggestions for improving enterprise performance.

Key words: *industry, enterprise, economy, analysis, development, efficiency*

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoat sohasi mamlakatning barqaror taraqqiyotida, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Sanoat korxonolari nafaqat ichki ehtiyojlarni ta'minlash, balki eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday sharoitda sanoat korxonalarining holatini har tomonlama o'rganish, ularning faoliyat samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tahliliy yondashuv

orqali sanoatni yanada rivojlantirish, uning ichki tuzilmasini takomillashtirish va global bozordagi o'rnini mustahkamlash imkoniyatlari aniqlanadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining hozirgi holati, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini, tarkibiy o'zgarishlari hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat sohasidagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi va metodlar

O'zbekiston sanoat tarmog'ining rivojlanishi va undagi korxonalar faoliyatini tahlil qilish masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va davlat strategiyalari sanoat korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan turli mexanizmlarni taklif etmoqda.

Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi hujjat sifatida "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026" dasturi sanoatni zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, xomashyo bazasidan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishni ustuvor vazifalar sifatida belgilagan [1]. Ushbu strategiyada sanoat korxonalarining faoliyati faqat ishlab chiqarish emas, balki butun iqtisodiy tizimdagi integratsiyasi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqiladi.

Sanoat tahlilining nazariy va uslubiy asoslari haqida mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan Xakimov B.J. va Alimov B.B. tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda korxonalar darajasidagi tahlil vositalari, foyda rentabelligi, ishlab chiqarish sig'imi va moliyaviy ko'rsatkichlar tahliliga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Ushbu metodologiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan qaralganda, M. Porterning raqobat ustunliklari nazariyasi sanoat tarmoqlarida raqobat muhitini chuqur o'rganish va strategik rejalashtirishda qo'llanilmoqda [3]. Uning fikriga ko'ra, raqobat afzalligi kompaniyaning mahsulot sifati, xarajat ustuvorligi yoki innovatsion yondashuvlariga tayanadi. Shu bilan birga, Peter Drucker va Henry Mintzberg tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv konsepsiyalari sanoat korxonalarida samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirishda asosiy nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi [4].

Empirik tadqiqotlar va sanoat holatini amaliy tahlil qilishda esa O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan e'lon qilinadigan hisobotlar va statistik byulletenlar muhim axborot manbasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rnini va faoliyati tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot davomida


statistik, taqqoslash, iqtisodiy-tahliliy hamda grafik usullar asosiy metod sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotda hududlar kesimidagi farqlar, sanoat tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuv holati va rivojlanish sur'atlari statistik jadval va grafiklar orqali tahlil qilindi. Yakuniy natijalarni asoslash uchun induktiv va deduktiv tahlil uslublari qo'llanildi. Bu esa mavjud faktlardan umumiy xulosalar chiqarish va nazariy qarashlarni amaliy holatlar bilan solishtirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida sanoat sohasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi omillar hisobiga jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2024-yil yanvar–dekabr oylaridagi sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni e'lon qildi. Umumiy sanoat mahsuloti hajmi 885,8 trillion so'mni tashkil etib, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 6,8% ga ko'pdir.[5] Bu ko'rsatkich sanoat tarmog'idagi barqaror o'sish sur'atlarini ifodalaydi.

Bugungi kunda respublikada 68 ming 690 dan ortiq sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularning 14 ming 200 tasi xorijiy sarmoyadir.



1-rasm

O'zbekistondagi sanoat korxonalari soni, viloyatlar kesimida (2024-yil 1-fevral holatiga)¹ [5]

Toshkent O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni bo'yicha yetakchi hisoblanadi. 2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, poytaxtda ularning soni 11930

¹ <https://oz.sputniknews.uz/>

tani tashkil etadi. Fargʻona viloyati ikkinchi (7635), Toshkent viloyati esa uchinchi oʻrinda (7273). Eng kam sanoat korxonalari Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida joylashgan.

Bugungi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan 68 ming 691 sanoat korxonasining 14 ming 200 tasi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalaridir. Joriy yilning yanvar oyida Oʻzbekistonda xorijiy kapital ishtirokida 265 ta yangi korxonalar tashkil etildi. Ularning 40 tasi iqtisodiyotning sanoat tarmogʻiga toʻgʻri keladi. Rossiya respublikadagi ochiq korxonalar soni (3000) boʻyicha yetakchi boʻlib qolmoqda. [5]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2024-yil yanvar–dekabr oylaridagi sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha dastlabki maʼlumotlarni eʼlon qildi. Umumiy sanoat mahsuloti hajmi 885,8 trillion soʻmni tashkil etib, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 6,8% ga koʻpdir.²[7] Bu koʻrsatkich sanoat tarmogʻidagi barqaror oʻsish surʼatlarini ifodalaydi.

Oʻzbekiston sanoatining tarkibiy tuzilmasi tahlili shuni koʻrsatadiki, mamlakat sanoati turli sohalar integratsiyasi orqali shakllanmoqda va har bir sohaning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan Kon sanoati umumiy sanoat mahsulotining 7,6 foizini tashkil etib, 2024-yilda 67,8 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqargan. Bu koʻrsatkich kon resurslarini qazib olish, ularni birlamchi qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasi sifatida izohlanadi

2024-yil yakunlariga koʻra alohida foydali qazilmalar ishlab chiqarishda sezilarli oʻzgarishlar kuzatildi. Xususan, koʻmir ishlab chiqarish hajmi 8,17 million tonnaga yetib, 2023-yilga nisbatan 26,2 foizga oʻsdi. Bu issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish bilan bogʻliq. Biroq neft qazib olish 713,4 ming tonnani tashkil etib, 8,5 foizga kamaygan boʻlsa, tabiiy gaz ishlab chiqarish 44,6 milliard kubometrga tushib, 4,5 foizlik pasayishni qayd etdi. Gaz kondensati ishlab chiqarish esa 1,2 million tonnaga yetib, 1,4 foizga oshdi

Eng yirik sektor — ishlov beruvchi sanoat umumiy sanoat ishlab chiqarishining 85,1 foizini tashkil etdi. Ushbu sohada ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 753,6 trillion soʻmga yetdi. Sektorning asosiy tarmoqlari – metallurgiya, oziq-ovqat va toʻqimachilik sanoatlari yetakchi oʻrinlarni egallaydi .

Metallurgiya sanoati ishlab chiqarish hajmi boʻyicha 171,4 trillion soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 6,3 foizga oʻsdi. Uning sanoatdagi ulushi 22,7 foizni tashkil etdi. Bu oʻsish asosan tashqi bozor talabining koʻpayishi va texnologik modernizatsiya hisobiga erishildi

² <https://stat.uz>

Oziq-ovqat sanoati esa 103,7 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarib, barqaror iste‘mol bozori va aholi sonining ortib borishi natijasida 4,5 foizlik jismoniy hajm indeksi bilan o‘shishni saqlab qoldi


To‘qimachilik sanoatida 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 89,5 trillion so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,1 foizga oshdi. Bu sohaning sanoatdagi ulushi 11,9 foizni tashkil etdi va u yengil sanoatdagi eng faol tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kimyo sanoati 5,4 foiz ulush bilan 40,6 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi va 3,4 foizlik o‘shishni qayd etdi. Bu o‘shish import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan islohotlar natijasidir .

Yana bir muhim yo‘nalish — elektr uskunalari ishlab chiqarish bo‘lib, bu soha 2024-yilda 26,3 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi. 4,5 foizlik o‘shish uy-ro‘zg‘or texnikalari va sanoat uskunalari bo‘lgan ichki talabning ortishi bilan izohlanadi.

Bu natijalar O‘zbekiston sanoatining ko‘p tarmoqli va murakkab tizimga aylanganini ko‘rsatadi. Har bir tarmoqda kuzatilayotgan tendensiyalar sanoat siyosatining diversifikatsiyalashuviga va ichki ishlab chiqarish salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari (2024 yil yanvar-dekabr)



yanvar-dekabr)³[6]

³ <https://stat.uz>

Xulosa

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi roli va rivojlanish dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat sektori mamlakat iqtisodiyotining yetakchi drayverlaridan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston sanoati yildan-yilga o'sish sur'atini saqlab, yangi sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Sanoat tarmoqlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari, neft-kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi sohalar eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega. Biroq, yuqori texnologiyali sanoatning rivojlanishi hali to'liq o'zlashtirilmagan bo'lib, bu sohani rivojlantirish uchun yanada ko'proq sarmoya va innovatsion yondashuvlar zarur.

Tahlilga ko'ra, **hududlar kesimidagi farqlar** sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishiga ta'sir qilmoqda. Toshkent, Navoiy va Farg'ona viloyatlari eng rivojlangan sanoat markazlari sifatida ajralib turadi, lekin boshqa hududlarda sanoat salohiyati to'liq ishga solinmayapti. Shu bois, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy noaniqliklarni kamaytirish va sanoatni muvozanatli rivojlantirish zarur.

Yirik sanoat korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan bo'lsa-da, kichik va o'rta sanoat korxonalari mahalliy bozorda muhim rol o'ynab, bandlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Kichik sanoat korxonalariga yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish zarur.

Eksportga yo'naltirilgan sanoat korxonalari uchun **raqobatbardoshlikni oshirish va sertifikatlash tizimini takomillashtirish** muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ichki bozorda logistika va energiya ta'minoti tizimlaridagi muammolarni bartaraf etish ham sanoat sektori rivoji uchun zarur.

Tadqiqotning asosiy natijalari va tavsiyalaridan kelib chiqib, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va hududiy muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. PF-60-son Farmon, 28-yanvar. <https://lex.uz>
2. Xakimov B.J., Alimov B.B., Xolmirzayev U.A., Po'latov A.X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
3. Porter M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.

4. Drucker P.F. (2008). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. HarperBusiness. Mintzberg H., Ahlstrand B., Lampel J. (2005). Strategy Safari: A Guided Tour Through the Wilds of Strategic Management. Pearson Education.

5. <https://oz.sputniknews.uz/>

6. <https://stat.uz>

7. <https://invexi.org/uz>

ПАХТАНИНГ МАЙДА ВА ЙИРИК ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАНИШ
САМАРАДОРЛИГИ*С.У.Патхуллаев¹, А.Р.Панжиев¹*

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

e-mail: azizpanjiyev.73@mail.ru

Аннотация: ушбу мақолада гўзада илк очилган кўсаклар, кейин 3 кун, 6 кун, 9 кун ва 12 кун давомида пишиб етилган 1 кг атрофидаги кўсаклар териб олинди, қўл ёрдамида пахтаси олиниб, майда ва йирик ифлосликлардан тозаланиш самарадорлиги Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти “Материалшунослик ва стандартлаштириш” кафедраси лабораториясида аниқланди.

Калит сўзлари: майда ифлосликлар миқдори, йирик ифлосликлар миқдори, чўп ва кўсак бўлакчалари, пишмаган, синган ва эзилган чигит қолдиги

Кейинги йилларда пахтани машинада теришга ҳукуматимиз томонидан катта эътибор бериётганлиги сабабли, ҳозирги кунда умумий ҳисобда 5% пахтани машинада териш учун Сирдарё, Жиззах ва Тошкент вилоятларида йўлга қўйилган. Пахта теримини машинада теришни механизациялашга босқичма-босқич ўтишнинг 5 йиллик дастури ишлаб чиқилди. 2025 йилгача пахтанинг 35% машинада териш режалаштирилди.

Мавжуд пахта тозалаш корхоналарида тозалаш технологияси ва ускуналари ҳамда уларни ишлатиш бўйича технологик регламент тавсиялари қўлда терилган пахтага мўлжалланган бўлиб, улар машинада терилган, ифлослиги ва намлиги юқори бўлган пахтани қайта ишлаш учун асос бўла олмайди.

Ип-йигирув корхоналарига келаётган пахта толасидан турли ифлос аралашма ва нуқсонлар: минерал ва органик аралашмалар, барг қолдиқлари, чўп ва кўсак бўлакчалари, пишмаган, синган ва эзилган чигит қолдиги, толали чигит пўстлоғи, тугунчак ва тугунақлар, комбинацияланган нуқсонлар, улюк ва

пишмаган тола пластиклари мавжуд бўлиб, ишлаб чиқариладиган калава ип сифатига жиддий таъсир этади.

Пахта тозалаш техникаси ва технологияларини ишлаб чиқарувчи давлатлар (АҚШ, Хитой, Туркия) да ишлаб чиқарилган тозалаш ускуналари республикамиз пахта тозалаш корхоналарида ишлатиш тажрибаси, уларни мавжуд қийин тозаланадиган селекция навларини тозалаш самарадорлиги етарли эмаслигини кўрсатди. Бунинг асосий сабабларини-ифлосликларни фракцион таркибини ўзига хослиги, тола билан бирикиш кучи юқорилиги хисобланади.

Маълумки машинада терилган пахта ифлослиги қўлда терилганга нисбатан сезиларли даражада юқори, тола билан кучлироқ боғланишда бўлади.

Шу сабабли, республикамизда машинада терилган пахта ҳажми ошиб бориши уни тозалаш муаммосини ўта мураккаб даражага кўтаради. Ҳозирда республикада мавжуд селекция навлари машинада терилса, улардан стандарт талабларига жавоб берадиган юқори сифатли тола олишни кафолатлайдиган пахта тозалаш технологиясини жорий қилиш ва бу бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб бориш зарурдир.

Мазкур муаммо доирасида ечиладиган масала-бу пахтани майда ва йирик ифлосликлардан тозалаш селекцияларини такомиллаштириш асосида уларни самарадорлигини ошириш, пахтани майда ва йирик ифлосликлардан қайта тозалаш миқдорини тола ва чигитни сифатини бузмаган ҳолда амалга ошириб керакли самарадорликга эришиш, пахтани тозалаш объекти сифатида тозалашга пухта тайёрлаш, пахтани селекция ва саноат нави бошлангич ифлослигига қараб тозалашни оптимал бошқарилувчан технология ва режимларни аниқлашдан иборат.

Пахта даласида турли муддатларда пишиб етилган пахта қўл ёрдамида териб олинди ва тола таркибидаги нуқсон ёки чиқиндилар миқдори аниқланди. Олинган тадқиқот натижалари 1-жадвалда келтирилди.

1-жадвал

Турли муддатларда пишиб етилган пахта таркибидаги ифлослик миқдорининг тадқиқоти

т/р	Кўрсаткичлар	Кўсакнинг очилиш муддати
-----	--------------	--------------------------

		Илк очилган кўсак	3 кун очишиб турган кўсак	6 кун очишиб турган кўсак	9 кун очишиб турган кўсак	12 кун очишиб турган кўсак
1.	Пахтанинг намлиги, %	8,9	9,0	9,2	9,5	9,0
	Умумий ифлосликлар миқдори, %	6,5	7,2	6,7	6,3	6,4
	шу жумладан:					
	майда ифлосликлар миқдори, %	4,4	4,8	4,7	4,0	4,2
	йирик ифлосликлар миқдори, %	2,1	2,4	2,0	2,3	2,2
2.	Жинлаш жараёнидан кейинги пахтанинг намлиги, %	7,2	7,0	7,4	7,1	7,5
	Умумий ифлосликлар миқдори, %	0,67	0,75	0,72	0,63	0,69
	шу жумладан:					
	майда ифлосликлар миқдори, %	0,42	0,49	0,44	0,43	0,47
	йирик ифлосликлар миқдори, %	0,25	0,26	0,28	0,20	0,22

Олиб борилган синов натижаларини таҳлил қиладиган бўлсак, кўл ёрдамида терилган ва илк очилган пахта таркибидаги ифлосликлар миқдорига нисбатан солиштирилди, жинлаш жараёнидан кейин илк очилган турган пахта таркибидаги майда ифлосликлар миқдори 91,5% га, йирик ифлосликлар миқдори 88,1% га, умумий ифлосликлар миқдори 89,7% га тозаланди, 3 кун очилиб турган пахта таркибидаги майда ифлосликлар миқдори 89,8% га, йирик ифлосликлар миқдори 89,2% га, умумий ифлосликлар миқдори 89,6% га тозаланди, 6 кун очилиб турган пахта таркибидаги майда ифлосликлар миқдори 89,7% га, йирик ифлосликлар миқдори 86,0% га, умумий ифлосликлар миқдори 89,3% га тозаланди, 9 кун очилиб турган пахта таркибидаги майда ифлосликлар миқдори 89,2% га, йирик ифлосликлар миқдори 89,4% га, умумий ифлосликлар миқдори 90,0% га тозаланди, 12 кун очилиб турган пахта таркибидаги майда ифлосликлар миқдори 88,8% га, йирик ифлосликлар миқдори 90,0% га, умумий ифлосликлар миқдори 89,2% га тозаланди.

Тадқиқот натижалари таҳлилидан кўриниб турибдики, турли муддатларда пишиб етилган пахтанинг ифлосликлардан тозаланиш самарадорлиги жинлаш жараёнидан кейин 88,0 дан 90,0% гача тозаланди.

Адабиётлар

1. Сулаймонов Б.А., Тиллаев Р.Ш., Абдуалимов Ш.Х. ва бошқа Фермер хўжаликларида пахтачиликни ривожлантиришнинг инновацион агротехнологиялари. Фермерлар учун ўқув қўлланма. Тошкент-2019. 3,75 б.т.

2. Сулаймонов Б., Болтаев Б., Тиллаев Р., Абдуалимов Ш. Кузги буғдой ва ғўза етиштириш асослари. Ўқув қўлланма. “Наврўз”, Тошкент-2017. 7,75 б.т.

3. Тешаев Ш.Ж., Сулаймонов Б.А. Пахтачилик маълумотномаси. “Фан ва технология” нашриёти, Тошкент-2016. 540 б.

4. Қишлоқ хўжалигида эркин бозор муносабатларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари белгилаб олинди. <https://president.uz/uz/lists/view/6921>.

5. М. Йигиталиев, С. Муҳаммадхонов. Дала экинлари селекцияси ва уруғчилиги китоби, 220-230 б. Тошкент-1981.

**ПАХТА ТОЛАСИ ПИШГАНЛИК ДАРАЖАСИ БЎЙИЧА
БУРАМДОРЛИГИНИНГ ЎЗГАРИШИ**

С.У.Патхуллаев¹, А.Р.Панжиев¹

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

e-mail: azizpanjiyev.73@mail.ru

Аннотация: ушбу мақолада гўзада илк очилган кўсаклар, кейин 3 кун, 6 кун, 9 кун ва 12 кун давомида пишиб етилган 1 кг атрофидаги кўсаклар териб олинди, қўл ёрдамида пахтани кўсакдан ажратиб олиб, толанинг бурамдорлиги Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти “Материалшунослик ва стандартлаштириш” кафедраси лабораториясида аниқланди.

Калит сўзлари: буралиш даражаси кучсиз ва нотекис, илашимлилиги, чўзилувчанлиги ва ҳажмдорлигини ошириш

Дунё миқёсида тўқимачилик толаси ишлаб чиқаришда пахта улушига 50–60 % дан кўпроғи тўғри келади. Толасидан, асосан, ип йигирилади, тўқимачилик буюмлари, кийим ва гигроскопик пахта тайёрланади. Ундан авиация, автомобиль, электр ва бошқа саноатлар кенг фойдаланади. Толадан парашютлар, бақувват иплар, кирза, шланглар, қайиш, кино-расм плёнкалари, ёзув қоғозлари каби кўплаб маҳсулотлар тайёрланади.

Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини тараққий топган, лекин табиий шароити тахминан бир хил бўлган бошқа давлатлар билан қиёсласак, шундай қатъий хулосага келиш мумкин: Ўзбекистонда аграр тармоқ ҳосилдорлигини ошириш имконияти ниҳоятда катта. Бизда бу борада имкониятлар кўп. Улар жаҳонда белгиланган ва кенг қўлланилаётган агротехник меъёрларга, қоидаларга амал қилишни, деҳқончилик маданияти ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини оқилона ташкил этишни талаб этади.

Тўқимачилик толаларининг бурамдорлиги фазовий ва текис, синусоидал характерга эга бўлиши мумкин. Толанинг энг муҳим хусусиятларидан яна бири, унинг буралувчанлигидир. Бундан толалардан ип йигирилганда улар ўзаро яхши

бирикиб, ипнинг пишиқлиги, яъни тўқима пишиқлиги ортади. Тола қанчалик буралувчан бўлса, у шунчалик яхши ҳисобланади.

Толанинг буралувчанлик даражаси унинг бир миллиметрнинг қанчалик бураллиши билан белгиланади. Нормал ривожланиб пишган толада буралиш даражаси ғўзанинг тур ва навига қараб турлича бўлади. Одатда, тола қанча яхши буралса, шунча ингичка бўлади. Масалан, толаси нисбатаи дағал жайдари ғўзанинг ҳар 1 мм толаси тахминан 6 -8 марта, ўртача ва ингичка толали совет ғўзалариники эса 10-12 марта буралади. Бундан кейингисиники одатда биринчисиникига қараганда бир неча марта кўп буралган бўлади. Толанинг неча марта буралишидан ташқари, бу буралишларнинг тола бўйига бир текисда жойлашининг ҳам аҳамияти катта. Тола қанчалик бир текисда буралса, у шунчалик яхши ҳисобланади.

Жун толалари табиий бурамдорликка эга. Синтетик толаларга, текстурланган ипларга бурамдорлик уларнинг илашимлилигини, чўзилувчанлигини ва ҳажмдорлигини ошириш учун ишлаб чиқариш жараёнида махсус ишлов бериш билан ҳосил қилинади.

Бурамдорлик муҳим кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. У йиғириш тизимини танлаш, толаларни қайта ишлаш сифатли ип ва газламалар олиш жараёнида эътиборга олинади. Толаларнинг бурамдорлиги муҳим аҳамиятга эга бўлиб, агар толалар қанчалик кўп бурамдорликка эга бўлса, ундан олинандиган ипларнинг илашувчанлиги шунчалик юқори бўлиб, майин, силлик ва ингичка ҳамда нотекислик даражаси паст бўлган маҳсулот ишлаб чиқарилади.

Rekreatsion turizm jamiyatda nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Sayohat qilishning sog'lomlashtirish va dam olish maqsadlari, shuningdek, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga bo'lgan ehtiyoj, bunday turizmning ahamiyatini yanada oshiradi. Rivojlanish istiqbollari esa yangi turizm yo'nalishlari, raqamli texnologiyalar va barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, rekreatsion turizmning kelajagi global miqyosda barqaror va ekologik toza bo'lishini ta'minlashga bog'liq. Rekreatsion turizmning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng muhimlaridan biri tabiiy resurslarning mavjudligi va ularni saqlashga bo'lgan ehtiyojdir. Rekreatsion turizmni rivojlantirishda tabiiy manzara, iqlim sharoiti va ekologik holat muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatning turizmga bo'lgan talabini qondirish uchun zamonaviy infratuzilma, mehmonxona tarmoqlari, transport tizimi va boshqa xizmatlar rivojlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, Q. (2021). *O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari*. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
2. Akramova, D. (2022). "Rekreatsion turizm va ekologik muvozanat masalalari". *O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 45–51.
3. Boboyev, A. (2020). *Sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni*. Samarqand: SamISI nashriyoti.
4. G'ulomov, S., & Ergashev, I. (2019). *Turizm va servis asoslari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
5. Islomova, N. (2023). "Rekreatsion hududlarning iqtisodiy samaradorligi: O'zbekiston tajribasi". *Ilmiy izlanishlar jurnali*, 5(2), 77–83.
6. Karimova, M. (2021). "Rekreatsion resurslardan foydalanishda muammolar va ularning yechimlari". *Turizm nazariyasi va amaliyoti*, 2(4), 38–44.
7. Matkarimov, J. (2020). *Turizm va ekologiya: o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari*. Farg'ona: FDU nashriyoti.

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). *Turizm sohasidagi statistik ko‘rsatkichlar*. Toshkent: Davstatqo‘m axboroti.
9. To‘xtayev, B. (2022). “Rekreatsion turizmni rivojlantirishda hududiy xususiyatlar”. *Yosh olim jurnali*, 4(1), 54–60.
10. UNWTO (2022). *Sustainable Tourism and Recreation: Global Trends and Local Responses*. Madrid: World Tourism Organization.

EKOTURIZM: TABIAT VA TURIZMNING UYG'UNLIKDA RIVOJLANISHI

Azimov Muzaffar Nuriddin o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, TOUP: 704U-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo'ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Mazkur maqola ekoturizmning tabiiy muhitni asrash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tutgan o'rnini o'rganishga qaratilgan. Ekoturizmning barqaror rivojlanish va ekologik ongni shakllantirishdagi ahamiyati hamda uning O'zbekiston sharoitidagi istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekoturizmning dunyodagi ilg'or tajribalari, shu jumladan Kosta-Rika va Butan davlatlarining ekoturizmga oid yondashuvlari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda tabiiy resurslarning salohiyati, shuningdek, mavjud infratuzilma muammolari, mahalliy aholini jalb etish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning ekoturizm sohasidagi barqaror rivojlanish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, ekologik ong, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mahalliy aholi, ekologik turizm, sayohat, O'zbekiston, infratuzilma, mahalliy iqtisodiyot, ekologik turizm yo'nalishlari, global tajriba.

Abstract

This article is dedicated to the study of the role of ecotourism in environmental preservation and socio-economic development. It analyzes the significance of ecotourism in promoting sustainable development and shaping ecological consciousness, as well as its prospects in the context of Uzbekistan. The research explores global best practices in ecotourism, including the approaches of Costa Rica and Bhutan. The paper evaluates the potential of Uzbekistan's natural resources for ecotourism development, along with the existing infrastructural challenges and opportunities for involving local communities. The findings indicate the necessity of a comprehensive approach for the sustainable development of ecotourism in Uzbekistan.

Key words: Ecotourism, sustainable development, natural resources, ecological awareness, socio-economic development, local communities, ecological tourism, travel, Uzbekistan, infrastructure, local economy, ecotourism routes, global experience.

KIRISH

Zamonaviy davrda turizm sohasi insoniyatning eng ommaviy va dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ammo bu jarayon ko'plab ekologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekoturizm — ya'ni ekologik barqaror turizm turi — global miqyosda dolzarb mavzulardan biri bo'lib, nafaqat sayohatchilarning qiziqishini, balki atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojini ham qondiradi. Ekoturizm nafaqat tabiiy muhitni asrash, balki inson ongida ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Uning asosiy g'oyasi shundaki, sayohat faqat zavqlanish vositasi emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka erishish yo'lidir. Sayyohlar uchun bu yangi yondashuv, ya'ni atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mahalliy madaniyat va an'analarni chuqurroq o'rganish, hayot tarzining boshqa shakllarini qadrlash imkoniyatidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekoturizm faqatgina tabiiy resurslardan foydalanish emas, balki ularni uzoq muddatli asrash va barqaror rivojlantirish asosida tashkil etilishi kerak. Masalan, Kosta-Rika, Butan, Norvegiya kabi mamlakatlar ekoturizmni milliy siyosat darajasiga olib chiqib, nafaqat ekologik muvozanatni saqlab qolishga, balki iqtisodiy o'sishni ham ta'minlashga muvaffaq bo'lgan. Bu tajribalarda eng muhim jihat – mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikda ishlash, ularning manfaatlarini hisobga olish va ularni faol ishtirok etishga undashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekoturizm sohasidagi ilmiy izlanishlar va xalqaro tajribalar ushbu turizm turining ekologik barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini yoritishga qaratilgan. Xususan, X.T. Honey (1999) tomonidan yozilgan "Ecotourism and Sustainable Development" asarida ekoturizmning barqaror rivojlanishga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Muallif ekoturizmning nafaqat tabiatni asrash, balki mahalliy jamiyatni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashdagi rolga e'tibor qaratadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan nashr etilgan yillik hisobotlar esa turli mamlakatlar tajribasini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, ekoturizmning global tendensiyalarini ko'rsatadi. Masalan, 2022-yilgi hisobotda ekoturizmga bo'lgan talab 30 foizga

oshgani, sayyohlar orasida ekologik ongli sayohatga intilish kuchaygani qayd etilgan. Mahalliy adabiyotlar orasida esa A. Raxmonovning “Ekologik turizmning nazariy va amaliy asoslari” nomli monografiyasi diqqatga sazovor bo‘lib, unda O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishga oid konkret takliflar va hududiy xususiyatlar tahlil qilingan. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali ekoturizmning ko‘p qirrali jihatlari, jumladan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlari aniqlanadi hamda ushbu maqolaning nazariy asoslari mustahkamlanadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi hali to‘liq o‘rganilmagan masalalarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

Metodologiya

Maqolada qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar ekoturizm sohasining holatini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda **sistemali tahlil, solishtirma metod, deskriptiv (ta’riflovchi) yondashuv** hamda **empirik kuzatuv** usullaridan foydalanildi. Sistemali tahlil orqali ekoturizm tushunchasining mazmuni, funksiyalari va asosiy tamoyillari aniqlab olindi. Solishtirma metod yordamida dunyodagi yetakchi davlatlarning ekoturizm bo‘yicha tajribalari O‘zbekiston sharoitida tahlil qilindi. Deskriptiv yondashuv vositasida ekoturizmning ijtimoiy va iqtisodiy foydalari, shuningdek, mavjud muammolar atroflicha yoritildi. Empirik ma’lumotlar sifatida UNWTO, O‘zbekiston Turizm qo‘mitasi, Ekologik harakatlar ma’lumotnomalari va ommaviy axborot vositalaridagi statistik ko‘rsatkichlar, real loyihalar, mahalliy sayyohlik tashkilotlari faoliyati haqidagi ochiq manbalar asos qilib olindi. Shuningdek, ayrim mahalliy sayohatchilar va gidlar bilan norasmiy suhbatlar orqali joylarda ekoturizmning amaliy holati bo‘yicha umumiy tasavvur shakllantirildi. Mazkur metodologik asoslar maqolada ilgari surilgan ilmiy qarashlar va xulosalarning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlaydi.

NATIJARLAR

O‘tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, ekoturizm nafaqat atrof-muhitni asrashda, balki mahalliy aholini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Dunyodagi ilg‘or tajribalardan ko‘rinib turibdiki, ekoturizm samarali rejalashtirilganda, u uzoq muddatli foyda keltiruvchi barqaror soha sifatida rivojlanadi. Ayniqsa, Kosta-Rika va Butan tajribalari mahalliy aholini jalb etish orqali ekoturizmni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy va madaniy salohiyatga ega. Zarafshon, Hisor va Qizilqum kabi tabiiy hududlar, Surxondaryo

viloyatidagi etno-madaniy landshaftlar bu borada strategik ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ekoturizmga oid davlat dasturlari va infratuzilma loyihalarining ko'payishi, ekologik marshrutlar sonining ortishi ushbu sohaning rivojlanayotganligini ko'rsatmoqda. Ekoturizm bu — tabiiy muhitni asrash, mahalliy aholiga foyda keltirish va sayohatchilarni ekologik ongli ravishda sayohat qilishga o'rgatish maqsadini ko'zlagan turizm shaklidir. U asosan milliy bog'lar, qo'riqxonalar, tabiiy landshaftlar kabi o'ziga xos hududlarda amalga oshiriladi. Ekoturizmning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- **Atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatish;**
- **Madaniy va tabiiy merosni asrash;**
- **Mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shish;**
- **Sayyohlarda ekologik ongni shakllantirish.**

Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy foydalari

Ekoturizm nafaqat tabiatni asrashga, balki mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashga ham xizmat qiladi. U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- **Mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari:** gid xizmatlari, mehmon uylari, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotish;
- **Hududiy infratuzilmani rivojlantirish:** yo'llar, kommunikatsiyalar, ekologik markazlar;
- **Mahalliy madaniyat va urf-odatlarini jonlantirish.**

Masalan, Nepalda joylashgan Chitvan milliy bog'ida ekoturizm orqali yillik 1,5 million AQSH dollaridan ortiq daromad olinadi va bu mablag'ning 50% dan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri mahalliy aholi manfaatlariga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda ekoturizmning istiqbollari

O'zbekiston — o'ziga xos tabiiy landshaftlar, noyob flora va fauna hamda boy tarixiy merosga ega mamlakat. Bu esa ekoturizm uchun katta salohiyat yaratadi. Xususan:

- **Zarafshon, Hisor, Qizilqum hududlari** o'zining tabiiy go'zalligi bilan sayyohlarni o'ziga tortadi;
- **Ustyurt platosi va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi** qushlar va yovvoyi hayvonlarni kuzatish imkonini beradi;

- **Surxondaryo viloyatidagi Boysun tog‘lari** esa UNESCOning nomoddiy madaniy merosiga kiritilgan an‘analar markazi bo‘lib, ekologik hamda etnoturizmni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

2023-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda ekologik turizmga ixtisoslashgan 50 dan ortiq turistik yo‘nalishlar faoliyat yuritmoqda. Bu yo‘nalishlarda 1500 nafardan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta‘minlangan.

Dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo‘llari

Ekoturizm rivojlanishida ayrim to‘siqlar mavjud:

- **Yetarli ekologik infratuzilmaning yo‘qligi;**
- **Malakali gid va mutaxassislar yetishmasligi;**
- **Axborot yetkazish tizimining zaifligi.**

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ekoturizm yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus treninglar va kurslar tashkil etish;
2. Tabiiy hududlarni sayyohlar uchun moslashtirishda ekologik mezonlarga qat‘iy rioya qilish;
3. Mahalliy hamjamiyatlarni loyihalarga jalb etish orqali ijtimoiy faollikni oshirish.

Ekoturizm — bu nafaqat sayohat qilish, balki tabiatni sevish va asrashga da‘vatdir. U orqali biz nafaqat o‘zimizni, balki kelajak avlodni ham ekologik madaniyatga o‘rgatamiz. O‘zbekistonning noyob tabiiy va madaniy boyliklari bu sohada katta yutuqlarga erishish uchun mustahkam asos bo‘la oladi. Buning uchun esa davlat, xususiy sektor va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Biroq, mavjud holat chuqur tahlil qilinganda, bir qator tizimli muammolar mavjudligi aniqlanadi. Jumladan, ekologik yo‘nalishlarda infratuzilmaning yetarli emasligi, malakali gid va mutaxassislarning cheklangani, hamda ekoturizm haqida ommaviy axborot yetishmasligi kabi holatlar bu sohaning to‘laqonli rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, ekoturistik hududlarda ekologik monitoring tizimining kuchsizligi va sayyohlarning ekologik madaniyat darajasining pastligi ham mavjud muammolar qatoriga kiradi. Empirik ma‘lumotlarga tayanilsa, 2023-yilda O‘zbekistonda ekologik turizmga oid faoliyat yurituvchi marshrutlar soni 50 dan ortiq bo‘lib, ular orqali yil

davomida taxminan 30 mingdan ortiq ichki va xorijiy sayyoh jalb etilgan. Bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib bormoqda, bu esa aholining ekologik turizmga bo'lgan qiziqishining ortayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, mahalliy hamjamiyatlarning ekoturizm loyihalariga jalb qilinishi orqali ularning daromad manbalari kengaymoqda. Ba'zi hududlarda ekologik fermer xo'jaliklari, mahalliy hunarmandchilik va mehmondo'stlik xizmatlarining o'sib borayotgani kuzatildi. Bu esa ekoturizmning mahalliy iqtisodiyotni faollashtirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ekoturizm sohasi O'zbekistonda ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, u to'laqonli rivojlanishi uchun kompleks yondashuv, muvofiqlashtirilgan boshqaruv va barqaror infratuzilma zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sharoitida esa ekoturizm yangi bosqichga chiqmoqda. Davlat rahbariyati tomonidan bu sohaga qaratilayotgan e'tibor, qabul qilinayotgan dasturlar va qonunlar, jumladan ekologik turizmni rivojlantirishga doir qarorlar – bularning barchasi yurtimizda barqaror va mas'uliyatli turizmni yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, bu soha hali to'liq shakllanmagan va uning rivojlanishida jiddiy ilmiy-uslubiy, texnik va tashkiliy yondashuvlar talab etiladi.

Shu nuqtada oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Ekoturizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash, ekologik ongini oshirish, mahalliy aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini keng yoyish — bularning barchasi uzoq muddatli natijalar uchun muhim omillardir. Ayniqsa, yoshlarda ekologik savodxonlikni oshirish orqali, kelajakda tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'ladigan jamiyatni shakllantirish mumkin.

Ekoturizm tabiatni asrab-avaylash orqali inson ruhiyatini ham poklaydi. Yovvoyi tabiat bag'rida dam olish, shovqin-suronli shaharlardan uzoqlashib, tabiiy go'zallikni his qilish inson salomatligi va psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yana bir bor ekologik turizmning nafaqat iqtisodiy yoki ekologik, balki ijtimoiy-ma'naviy foydasini tasdiqlaydi.

Xulosa

Rekreatsion turizm jamiyatda nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Sayohat qilishning sog'lomlashtirish va dam olish maqsadlari, shuningdek, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga bo'lgan ehtiyoj, bunday turizmning ahamiyatini yanada oshiradi. Rivojlanish istiqbollari esa yangi

turizm yoʻnalishlari, raqamli texnologiyalar va barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan bogʻliq. Shu bilan birga, rekreatsion turizmning kelajagi global miqyosda barqaror va ekologik toza boʻlishini ta'minlashga bogʻliq. Rekreatsion turizmning rivojlanishiga koʻplab omillar ta'sir koʻrsatadi. Ularning eng muhimlaridan biri tabiiy resurslarning mavjudligi va ularni saqlashga boʻlgan ehtiyojdir. Rekreatsion turizmni rivojlantirishda tabiiy manzara, iqlim sharoiti va ekologik holat muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatning turizmga boʻlgan talabini qondirish uchun zamonaviy infratuzilma, mehmonxona tarmoqlari, transport tizimi va boshqa xizmatlar rivojlanishi zarur. Yakuniy xulosaga kelganda, ekoturizm bu kelajak turizmidir. U orqali insoniyat oʻz hayot tarzini qayta koʻrib chiqishga, atrofdagi tabiiy muhit bilan uygʻun yashashga, eng asosiysi, farzandlarimizga yashashga arzidigan sayyora qoldirishga intiladi. Oʻzbekiston uchun esa bu yoʻl hali boshlanish bosqichida boʻlishiga qaramay, mavjud salohiyatdan oqilona foydalanilsa, nafaqat mintaqaviy, balki global darajada ekoturizm markaziga aylanish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonov A. (2020). *Ekologik turizmning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Islomov A. (2018). *Turizm va atrof-muhitning barqaror rivojlanishi*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Jabborov A. (2019). *Ekoturizm va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri*. Toshkent: Oʻzbekiston iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
4. Kudratov R. (2021). *Oʻzbekistonda turizm va ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari*. Toshkent: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish akademiyasi.
5. Mavlonov D. (2017). *Ekoturizm va tabiatni asrash: Xalqaro tajribalar*. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
6. Muhammadiev A. (2020). *Tabiat va turizmni uygʻun rivojlantirishning nazariy asoslari*. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
7. Nazarov D. (2022). *Ekoturizm va uning oʻziga xos jihatlari*. Toshkent: "Yangi avlod" nashriyoti.
8. Raxmonov A. (2018). *Ekoturizmga mahalliy aholi ishtirokini oshirish*. Tashkent: "Turizm sohasida barqaror rivojlanish" nashriyoti.
9. Sodiqov F. (2021). *Oʻzbekiston va atrofidagi mamlakatlarda ekoturizmning rivojlanishi*. Fargʻona: Fargʻona Davlat Universiteti nashriyoti.

10. Xudoyberganov I. (2020). *Mahalliy turizmni rivojlantirishda ekologik yondashuv*. Toshkent: Iqtisodiyot va turizm akademiyasi.

GASTRONOMIK TURIZMNING ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI

Qobilov Yusufjon Xojiakbar o`g`li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, TOUP: 704U-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada gastronomik turizmning mazmun-mohiyati, uning zamonaviy turizm sohasidagi o`rni va O`zbekiston uchun tutgan strategik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba va milliy imkoniyatlar solishtirilib, gastronomik turizm orqali madaniy merosni saqlash, iqtisodiy faollikni oshirish va turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ko`rib chiqildi. Shuningdek, sohani rivojlantirish uchun zarur bo`lgan infratuzilma, marketing, ta`lim va hamkorlik yo`nalishlari bo`yicha tahliliy takliflar ilgari surildi.

Kalit so`zlar: gastronomik turizm, milliy oshxona, sayyohlik tajribasi, madaniy meros, iqtisodiy rivojlanish, turizm xizmatlari, pazandachilik, mahalliy brend, marketing strategiyasi, oziq-ovqat festivali.

Abstract

This article explores the concept of gastronomic tourism, its role in modern tourism, and its strategic significance for Uzbekistan. The research compares international experience with local opportunities and highlights how gastronomic tourism can contribute to preserving cultural heritage, boosting economic activity, and diversifying tourism services. Furthermore, the study presents analytical recommendations regarding infrastructure, marketing, education, and cooperation necessary for the sustainable development of the field.

Key words: gastronomic tourism, national cuisine, tourist experience, cultural heritage, economic development, tourism services, culinary arts, local brand, marketing strategy, food festival.

KIRISH

Zamonaviy sayohatchilar uchun safar faqat tarixiy obidalarni ko‘rish yoki tabiiy go‘zalliklardan bahramand bo‘lish emas, balki mahalliy oshxonada sir-asrorlarini tatib ko‘rish orqali o‘zga madaniyatlarni his qilish vositasiga aylanmoqda. Gastronomik turizm – bu nafaqat taom yeyish, balki madaniyat, tarix va jamiyatni idrok etish vositasi sifatida shakllanayotgan yangi turistik yo‘nalishdir. Gastronomik turizm (yoki kulinariya turizmi) – bu sayohatchilarning mahalliy taomlar, ichimliklar va ularning tayyorlanish jarayonlari bilan tanishish maqsadida amalga oshiradigan safarlaridir. Bu turizm turi gastronomik meros, an‘anaviy oshxonalar, oziq-ovqat festivallari, pazandachilik ustaxonalarini o‘z ichiga oladi. Gastronomik turizmni rivojlantirish nafaqat yangi daromad manbaini yaratadi, balki mahalliy jamoalar hayotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mahalliy oshpazlar, dehqonlar, hunarmandlar va xizmat ko‘rsatish sohasi vakillari gastronomik yo‘nalishlar orqali o‘z faoliyatlarini kengaytirish imkoniga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib, ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi.

O‘zbekistonning har bir hududi o‘ziga xos taom madaniyatiga ega. Misol uchun, Farg‘ona vodiysida tayyorlanadigan mastava, Namangan noni yoki Xorazmning tuhumbarak taomi nafaqat mahalliy aholining sevimli ovqati, balki sayyohlar uchun kashf etilmagan gastronomik xazina sifatida qaralmoqda. Bu borada mahalliy gastronomik yo‘nalishlarni xaritalash, ularni sayyohlik paketlariga kiritish va reklama qilish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, oziq-ovqat festival va yarmarkalari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tadbirlar orqali sayyohlar nafaqat taomlarni tatib ko‘radilar, balki ularning tayyorlanish usullarini, ishlatiladigan mahsulotlar tarixini ham o‘rganadilar. Shu orqali oziq-ovqat faqat moddiy iste‘mol vositasi emas, balki madaniy merosning ajralmas qismiga aylanishi ta‘minlanadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida gastronomik turizmni yanada rivojlantirish mumkin. Masalan, interaktiv ilovalar, onlayn pazandachilik darslari yoki 3D restoran sayohatlari orqali dunyoning istalgan nuqtasidan turib o‘zbek taomlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali mahalliy oshpazlar va pazandachilik an‘analarini keng jamoatchilikka tanitish samarali usullardan biridir. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda pazandachilik almashinuvi dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali xalqaro miqyosda tanilish imkoniyati yaratiladi. Bunday almashinuvlar orqali nafaqat tajriba orttiriladi, balki mahalliy taomlar global gastronomik xaritaga kiritiladi. Bu esa o‘z navbatida milliy

brendga aylanish, eksport salohiyatini oshirish va sayyohlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gastronomik turizm bugungi kunda global turizm sohasining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, gastronomik turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ta'siri borligini ta'kidlaydi. Dunyo miqyosida yetakchi gastronomik yo'nalishlar, masalan, Italiya, Fransiya, Meksika, Tailand kabi davlatlar tajribasi orqali ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy kontekstda esa, O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan milliy oshxona madaniyatining turizm rivojiga ta'siri haqida maqolalar yozilgan bo'lsa-da, gastronomik turizmni alohida yo'nalish sifatida ilmiy asosda o'rganish hali to'liq shakllanmagan. Xususan, I.Karimov nomidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti va Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi ilmiy markazlar tomonidan olib borilgan ayrim amaliy tadqiqotlar mavjud. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab xalqaro maqolalarda gastronomik turizmning turlari, sayyohlar ehtiyojlari, oziq-ovqatga bo'lgan talab, madaniy identitet va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan. Shu bilan birga, mahalliy sharoitda gastronomik yo'nalishlarning xaritalanishi, infratuzilma, reklama va taqdimot usullarini rivojlantirish bo'yicha izlanishlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Metodologiya

Ushbu maqola ilmiy-ommabop shaklda yozilgan bo'lib, unda sifatli tadqiqot usullari asos qilib olingan. Maqola tayyorlanishida quyidagi metodologik yondashuvlarga amal qilindi:

- **Deskriptiv (tasviriy) usul** orqali gastronomik turizm tushunchasi, uning afzalliklari va imkoniyatlari yoritildi.
- **Komparativ tahlil** asosida xalqaro tajriba bilan O'zbekiston holati solishtirildi, ularning umumiy va farqli jihatlari tahlil qilindi.
- **Kontent tahlil** metodi yordamida jahon va mahalliy nashrlarda chop etilgan maqolalar, statistik ma'lumotlar va rasmiy hisobotlar o'rganildi.
- **Tahliliy yondashuv** orqali mavjud muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun amaliy takliflar ilgari surildi.

Tadqiqotda ochiq manbalar, rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2024-yilgi hisobotlari, UNWTO materiallari va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar asosida shuni aniqlash mumkinki, gastronomik turizm O'zbekistonda hali to'liq shakllanmagan, biroq uning salohiyati nihoyatda yuqori. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning deyarli 37 foizi milliy taomlarni tatib ko'rish va mahalliy oshxona bilan tanishish istagini bildirgan. Bu ko'rsatkich gastronomik turizmga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Mahalliy hududlarda, xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy shaharlarda gastronomik tajriba turizmi nisbatan rivojlangan. Sayyohlar bu shaharlarda an'anaviy taomlar bilan birga ularning tayyorlanish jarayonlarini kuzatish va hatto ishtirok etish imkoniyatiga ham ega bo'lishmoqda. Bu esa madaniy merosni interaktiv tarzda yetkazishning samarali usuli hisoblanadi.

Gastronomik turizm – bu o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi ko'prikdir. Unda qadimiy an'analar, zamonaviy yondashuvlar va insoniyatning eng muhim ehtiyoji – oziq-ovqat madaniyati mujassam. O'zbekiston bu borada katta imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni to'liq ro'yobga chiqarish uchun tizimli yondashuv, innovatsion g'oyalar va xalqaro hamkorlik zarur.

Gastronomik turizmning afzalliklari

1. **Madaniy almashinuv:** Mahalliy taomlar orqali sayyohlar o'sha xalqning tarixiy, diniy va iqtisodiy xususiyatlarini tushunadi.
2. **Iqtisodiy rag'batlantirish:** Gastronomik turizm mahalliy restoranlar, fermerlar, bozorchilar uchun yangi daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.
3. **Barqaror rivojlanish:** Mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirib, ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Dunyo miqyosida gastronomik turizm: Tajribalar

Ispaniyaning San-Sebastyan shahri, Italiya, Fransiya, Tailand kabi davlatlar gastronomik sayyohlik bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Masalan, Tailanddagi "Street food" madaniyati har yili millionlab sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

O'zbekistonda gastronomik turizm imkoniyatlari

O'zbekiston – boy oshxona madaniyatiga ega bo'lgan davlatlardan biri. Palov, somsa, lag'mon, chuchvara kabi taomlarimiz nafaqat mazali, balki o'ziga xos tarix va ma'naviyatga ega. Har bir viloyatning o'ziga xos taomlari – masalan, Andijon chuchvarasi yoki Buxoro palovi – gastronomik turizm uchun alohida imkoniyat yaratadi.

Statistika va istiqbollar

2024-yilgi Turizm va madaniy meros vazirligi hisobotlariga ko'ra, O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlarning 37% milliy taomlarni tatib ko'rish maqsadida mahalliy pazandachilik an'alariga qiziqqanini bildirgan. Bu esa gastronomik turizmga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda gastronomik turizm rivoji uchun quyidagi muhim imkoniyatlar mavjud: birinchidan, boy va xilma-xil oshxona merosi; ikkinchidan, har bir viloyatning o'ziga xos taomlari va pazandachilik uslublari; uchinchidan, mehmondo'stlikka asoslangan milliy mentalitet. Biroq bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun marketing strategiyalarining kuchaytirilishi, infratuzilmaning yaxshilanishi, pazandachilik bo'yicha mahalliy mutaxassislar tayyorlash tizimining rivojlanishi zarur. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari va gastronomik ob'yektlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali oziq-ovqat ta'minoti va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida milliy taomlarni xorijiy auditoriyaga yetkazish, virtual pazandachilik ustaxonalari va onlayn tanishtiruvlar orqali sayyohlarning qiziqishini oshirish muhim strategik yo'nalish bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonda gastronomik turizm bo'yicha yondashuv tizimli ravishda olib borilsa, u nafaqat ichki turizmni jonlantiradi, balki xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish, milliy brendni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oziq-ovqat festival va gastronomik ko'rgazmalar orqali bu sohaga e'tiborni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa

Gastronomik turizm bugungi globallashuv davrida nafaqat sayohatning yangi shakli, balki madaniyatlararo muloqot, iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston o‘zining boy va betakror oshxona an‘analari, har bir hududga xos taomlari va mehmondo‘st xalqining fazilatlarini bilan ushbu sohada katta salohiyatga ega. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, mamlakatimizda gastronomik turizmga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa milliy oshxonani xalqaro maydonga olib chiqish, milliy brend yaratish va sayyohlik xizmatlarini diversifikatsiya qilish uchun qulay zamin yaratadi. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun infratuzilmani rivojlantirish, pazandachilikni o‘rganish va targ‘ib qilish tizimini takomillashtirish, zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish zarur. Xulosa qilib aytganda, gastronomik turizm O‘zbekiston uchun nafaqat madaniy merosni targ‘ib qilish vositasi, balki iqtisodiy yuksalishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Unga strategik yondashuv, davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali jahon turizm bozorida raqobatbardosh o‘rin egallash mumkin. Shu bois, milliy oshxonamizni xalqaro miqyosda tanitish yo‘lida kompleks yondashuvlar asosida ish olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov, M. (2022). *Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Azizov, B. (2020). *O‘zbekiston gastronomik turizm salohiyati: imkoniyatlar va istiqbollari*. “Turizm va madaniyat” jurnali, 2(4), 45–50.
3. Bobonazarov, O. (2019). *Oziq-ovqat madaniyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni*. Samarqand: Registon nashriyoti.
4. Fayzullayev, K. (2023). *Sayyohlik xizmatlarining diversifikatsiyasi va gastronomik yo‘nalishlar*. “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 3(1), 12–18.
5. Karimova, Z. (2021). *Milliy oshxonamiz – turizm brendining asosi*. “Turizm va madaniy meros” ilmiy-amaliy jurnali, 1(2), 31–36.
6. Mirzayev, J. (2020). *Global gastronomik turizm: xalqaro tajriba va O‘zbekiston imkoniyatlari*. Toshkent: Turizm ilmiy markazi.
7. Qodirova, D. (2022). *Marketing strategiyalarida gastronomik turizmning o‘rni*. “Marketing va menejment” jurnali, 4(3), 20–25.

8. Rasulov, T. (2023). *Gastronomik festivallar va ularning turizmga ta'siri*. Buxoro: Ilm Ziyo nashriyoti.
9. Saidova, M. (2021). *Mahalliy brend yaratishda oshxona madaniyatining ahamiyati*. "Madaniy merosni saqlash" jurnali, 2(1), 14–19.
10. UNWTO (2022). *Gastronomy Tourism: Global Report on Food Tourism*. Madrid: World Tourism Organization.

EKSKURSION TURIZM: MADANIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Islomov Otabek Muzaffar o`g`li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, TOUP: 704U-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekskursion turizmi tushunchasi, uning madaniy-ma'naviy va iqtisodiy ahamiyati keng yoritilgan. Ekskursiyalarning yoshlar tarbiyasida tutgan o`mi, tarixiy merosni saqlashdagi roli, xorijiy sayyohlarni jalb etishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar, raqamli ekskursiyalar va milliy turistik brendni shakllantirish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Maqola asosida ekskursion turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va uning jamiyat hayotiga ijobiy ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ekskursion turizm, tarixiy meros, madaniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy o'zlik, turistik xizmatlar, sayyohlik infratuzilmasi, raqamli ekskursiyalar, madaniy brend, O'zbekiston turizmi.

Abstract

This article explores the concept of excursion tourism, highlighting its cultural, spiritual, and economic significance. It analyzes the role of excursions in youth education, the preservation of historical heritage, and the potential to attract foreign tourists. Attention is also given to modern approaches such as digital excursions and the formation of a national tourism brand. The article presents key directions for the development of excursion tourism and its positive impact on various aspects of social life.

Key words: excursion tourism, historical heritage, cultural values, youth education, national identity, tourism services, tourism infrastructure, digital excursions, cultural branding, tourism in Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy davrda turizm nafaqat dam olish, balki o'zlikni anglash, tarixiy-madaniy meros bilan tanishish, tafakkurni boyitish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ekskursion turizmi so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib, insonlar ongida tarixiy xotira va milliy o'zlikni shakllantirishda muhim o'rin egallamoqda. Ekskursiyalar orqali sayohatchilar qadimiy obidalar, diqqatga sazovor joylar, muzeylar va madaniy markazlarga tashrif buyurib, o'z bilimlarini boyitish, tarixiy voqealarni chuqur anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekskursion turizmi turizmning boshqa turlaridan farqli ravishda, ko'proq ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarni o'z ichiga oladi. Unda asosiy e'tibor sayohatchilarning estetik didini oshirish, ularni tarixiy va madaniy ob'ektlar bilan tanishtirishga qaratilgan. Bunday turizm turi o'quvchilar, talabalar, fan arboblari va ilmiy xodimlar orasida ayniqsa mashhurdir. Ekskursiyalar nafaqat o'quv jarayonining ajralmas bo'lagi, balki umumbashariy qadriyatlar bilan tanishish vositasi sifatida ham ko'riladi. Ekskursion turizmi ko'plab davlatlarda madaniy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, O'zbekistonda ham bu yo'nalishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz singari qadimiy shaharlarga ekskursiyalar tashkil etish orqali ichki va tashqi turizm salohiyatini oshirishga erishilmoqda. Bunday sayohatlar davomida mehmonlar nafaqat tarixiy obidalarni tomosha qilishadi, balki o'sha davr madaniy hayot tarzini his qilishadi, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik namunalari o'rganishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekskursion turizmi masalasi so'nggi yillarda turizm, madaniyatshunoslik, tarix va ijtimoiy fanlar doirasida keng tahlil qilinayotgan muhim mavzulardan biridir. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida bir nechta mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, statistika ma'lumotlari, hukumat qarorlari, shuningdek, mavjud sayyohlik strategiyalari tahlil qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirishga doir farmonlari, Madaniyat va turizm vazirligining rasmiy ma'lumotlari hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlar asosiy manba sifatida foydalanildi. Ilmiy-ommabop maqola yozishda ekskursion turizmning nazariy asoslari, uning madaniy-ma'naviy va iqtisodiy ahamiyati, xorijiy davlatlardagi tajribalar bilan solishtiruvchi yondashuv orqali o'rganildi. Xususan, ekskursiya tushunchasining rivojlanish tarixi, u orqali yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, turistik xizmat ko'rsatish sifati va gid

faoliyatining o'rnini kabi yo'nalishlar alohida e'tiborga olindi. Metodologik yondashuvda sifat tahlili (qualitative analysis) asosida maqola mazmuni shakllantirildi. Soha bo'yicha mavjud adabiyotlar kontent tahlil qilinib, mavjud holatga bog'liq holda xulosalar chiqarildi. Mazkur maqolada kuzatuv (observatsiya), solishtiruv (komparativ) va tavsiflovchi (deskriptiv) metodlar asosida tahliliy mulohazalar ilgari surildi. Shu bilan birga, tarixiy manbalar va hozirgi davr statistik ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik aniqlanib, ularning amaliyotdagi aks sadosi ochib berildi.

NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil va kuzatuvlar asosida ekskursion turizmi nafaqat madaniy-ma'rifiy soha, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi ekani aniqlandi. Birinchidan, ekskursiyalar orqali aholining tarixiy va madaniy merosga bo'lgan e'tibori oshadi, yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, vatanga sadoqat, tarixiy ongni shakllantirish kabi ijobiy fazilatlar rivojlanadi. Bu esa bevosita ta'lim-tarbiya jarayonlarida ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchidan, ekskursion turizmi infratuzilmaning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va mahalliy aholining iqtisodiy faol bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekskursiyalar orqali milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'ati, mahalliy oshxona kabi yo'nalishlar ham sayyohlarga taqdim etilib, O'zbekistonning madaniy turistik brendi shakllanmoqda. Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi ekskursiyalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Virtual va raqamli ekskursiyalar aholining keng qatlamlari uchun tarixiy obidalarni "ziyosat qilish" imkonini yaratmoqda. Bu holat ekskursion turizmning yanada ommaviylashishiga turtki bo'layotganini ko'rsatadi. To'rtinchidan, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ekskursion turizmi xorijiy sayyohlar uchun ham jozibali yo'nalishga aylanmoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi madaniy imijini yuksaltirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqoridagi natijalar asosida aytish mumkinki, ekskursion turizmni tizimli rivojlantirish orqali O'zbekiston turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, milliy madaniyatni jahon miqyosida tanitish va yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash mumkin. Shu bois bu sohani qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Ahamiyatli jihati shundaki, ekskursion turizmi yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda beqiyos vosita bo'lib xizmat qiladi. Yoshlar tarixiy shaxslar faoliyati, milliy qadriyatlar va urf-odatlar bilan bevosita tanishib, o'z millatiga bo'lgan

g'urur va iftixorni qalbida his etadi. Shu ma'noda, bu turdagi turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy-ma'naviy yutuqlarni ham taqdim eta oladi. Bundan tashqari, ekskursiyalar turizm infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi. Sayyohlar oqimi oshgani sari transport, mehmonxonalar, yo'lko'rsatkichlar, tarjima xizmatlari, suvenirler ishlab chiqarish kabi sohalar ham rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholi daromadining oshishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar rivoji, ayniqsa, raqamli ekskursiyalar va virtual sayohatlarning ommalashuvi ekskursion turizmga yangicha tus bermoqda. Endilikda, chekka hududlarda yashovchi odamlar ham virtual platformalar orqali tarixiy joylarni "ziyosat qilish" imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa turizmning inkluzivligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ekskursion turizmi jamiyat hayotida ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U nafaqat turistik tajriba, balki shaxsiy va milliy o'zlikni anglash, tarixiy ongni yuksaltirishning samarali usulidir. Shu bois, bu turdagi turizmni rivojlantirish, uni ta'lim tizimi bilan integratsiyalash, yosh avlodni faol jalb etish, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash orqali bu sohadan ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin. Ekskursion turizmning samaradorligi faqatgina tarixiy joylarga tashrif bilan cheklanib qolmaydi, balki inson tafakkurini boyituvchi, ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ham e'tirof etiladi. Har bir ekskursiya ishtirokchida yangicha tasavvur uyg'otadi, ularni o'z atrof-muhitiga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida tarixiy joylarga bo'lgan qiziqish ularning intellektual salohiyatini rivojlantiradi, tafakkurini kengaytiradi, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida har bir millat o'z madaniy merosini asrab-avaylash, uni targ'ib etish orqali o'z o'rnini saqlab qolishga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ekskursion turizmi ushbu jarayonning ajralmas bo'lagi sifatida xizmat qiladi. Bu turdagi turizm faqat tashrif buyuriladigan joylarni tomosha qilish emas, balki ular bilan bevosita muloqotda bo'lish, o'tmishni his qilish, tarix bilan hozirgi kun o'rtasida ko'priq qurish imkoniyatini beradi.

Ekskursiyalar orqali turli hududlar aholisining urf-odatlarini, milliy taomlari, hayot tarzi bilan tanishish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish mumkin. Bu esa tolerantlik, bag'rikenglik, hamkorlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, xorijiy sayyohlar bilan olib boriladigan ekskursiyalar orqali O'zbekiston madaniy merosining jahon hamjamiyati orasida keng tanilishi ta'minlanadi. Shuningdek, ekskursion turizmi xalqaro imijni mustahkamlash, ijobiy brendni shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ekskursiyalarni yuqori darajada tashkil etish, malakali gidlar tayyorlash, servis xizmatlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy

ekskursiyalar faqatgina oddiy sayr bilan cheklanmaydi, balki tematik ekskursiyalar, interaktiv ko'rgazmalar, teatrlashtirilgan tomoshalar, ochiq darslar kabi yangicha yondashuvlar orqali yanada qiziqarli va ta'sirchan bo'lib bormoqda. Masalan, qadimiy shaharlarda tashkil etilayotgan tarixiy shaxslar obrazi asosida o'tkaziladigan ekskursiyalar sayyohlarga o'sha davr muhitini jonli tasavvur etish imkonini beradi. Shu tarzda, madaniy merosni jonlantirish, uni zamonaviy formatda targ'ib qilish orqali ekskursion turizmga yangicha mazmun baxsh etilmoqda. Bunday yondashuvlar orqali turizm nafaqat dam olish, balki madaniy-ma'naviy o'sish vositasiga aylanmoqda.

Ekskursion turizmi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada tarixchilar, madaniyatshunoslar, turizm sohasi mutaxassisleri va pedagoglar hamkorlikda ishlashlari, yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etishlari zarur. Ekskursiyalarni o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali ta'lim tizimida turizmning o'rni kuchaytiriladi. Ayniqsa, maktab va kollej o'quvchilari uchun mahalliy obidalar bo'yicha ekskursiyalar tashkil etilishi yosh avlodning tarixiy xotirasini uyg'otadi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ekskursion turizmi bugungi zamon ehtiyojlariga javob beradigan, madaniyat va ta'limni uyg'unlashtiruvchi, ijtimoiy ongini shakllantiruvchi kuchli vositadir. Uni keng rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy yutuqlarga, balki insoniy qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham erishish mumkin. Shu sababli bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni tizimli, izchil va zamonaviy talablarga mos tarzda davom ettirish har birimizning burchimizdir.

Xulosa

Ekskursion turizmi bugungi kunda nafaqat turistik faoliyatning muhim turlaridan biri, balki madaniy-ma'naviy rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. O'tkazilgan tahlillar asosida ushbu turizm turi jamiyat hayotining turli jabhalariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani isbotlandi. Ekskursiyalar orqali aholining tarixiy merosga bo'lgan qiziqishi ortadi, yoshlar orasida vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy xotirani yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, madaniy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga turtki bo'ladi. Shuningdek, ekskursion turizm iqtisodiy jihatdan ham samarali bo'lib, infratuzilma rivoji, yangi ish o'rinlari yaratilishi va hududlar turizm salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi esa bu sohada innovatsion yondashuvlar asosida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro maydonda esa ekskursion turizmi O'zbekistonning madaniy brendini targ'ib qilish, xorijiy sayyohlarni jalb etish va turizm eksporti

hajmini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, ekskursion turizmini yanada rivojlantirish uchun tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan strategiyalar va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish zarur. Shu yoʻnalishdagi islohotlarni davom ettirish orqali nafaqat madaniy, balki iqtisodiy yutuqlarga ham erishish mumkin. Bu esa Oʻzbekistonning jahon turizm xaritasidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Z. (2021). *Oʻzbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy yoʻnalishlari*. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti.
2. Asqarov, A. (2019). *Turizm asoslari: nazariya va amaliyot*. Samarqand: SamISI nashriyoti.
3. Boboyev, M. (2020). *Oʻzbekiston tarixi va turizm imkoniyatlari*. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
4. Gʻaniyeva, N. (2022). *Ekskursiya faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish*. Buxoro: BDU nashriyoti.
5. Joʻrayev, D. (2020). *Turizm sohasida xizmat koʻrsatish madaniyati*. Qarshi: Nasaf nashriyoti.
6. Karimova, L. (2018). *Yoshlar tarbiyasida ekskursiyaning oʻrni*. Andijon: AndMI nashriyoti.
7. Mamarasulov, Q. (2023). *Madaniy meros va sayyohlik obyektlari*. Toshkent: “Turon zamin ziyosi”.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarda Oʻzbekistonda turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF–60-sonli Farmoni.
9. Salimova, M. (2021). *Ekskursion turizmi va uning jamiyatdagi oʻrni*. Nukus: Qoraqalpoq universiteti nashriyoti.
10. Xudoyberganov, B. (2019). *Turizm psixologiyasi va pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

XALQARO TURIZM: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Israilov Xusan Ravshanbekovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, TOUP: 704U-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro turizmning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini, iqtisodiy va madaniy ahamiyati, asosiy yo'nalishlari hamda O'zbekiston misolida rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Turizm sohasi nafaqat mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqolada xalqaro turizmning imkoniyatlari, mavjud muammolari va istiqbolli yo'nalishlari tahliliy yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro turizm, iqtisodiy rivojlanish, madaniy almashinuv, turizm strategiyasi, O'zbekiston turizmi, barqaror rivojlanish, sayyohlik salohiyati, zamonaviy turizm.

Abstract

This article explores the role of international tourism in modern society, focusing on its economic and cultural significance, key directions, and development trends with a particular emphasis on Uzbekistan. Tourism is presented not only as a contributor to national economies but also as a bridge for strengthening intercultural relations between nations. The article provides an analytical overview of the opportunities, challenges, and future prospects of international tourism.

Key words: international tourism, economic development, cultural exchange, tourism strategy, tourism in Uzbekistan, sustainable development, tourism potential, modern tourism.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro turizm dunyo iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Milliy chegaralarning ochiqligi, axborot

texnologiyalarining rivoji, transport tarmoqlarining kengayishi odamlar orasida madaniy aloqalar, tajriba almashuvi va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xalqaro turizm – bu faqat hordiq emas, bu — iqtisodiy foyda, madaniy muloqot va diplomatik ko‘prikdir. Ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan diyoralr, qadimiy shaharlar, noyob tabiiy landshaftlar, madaniy obidalar xalqaro turistlar e‘tiborini doimo tortib kelgan. Bunday joylarga tashrif buyurgan sayyoh o‘ziga xos ruhiy tajriba orttiradi, bu esa turizmni boshqa sohalardan ajratib turadigan asosiy jihatlardan biridir. Ayniqsa, hozirgi zamonda stressli hayot tarzidan charchagan odamlar uchun sayohat tinchlanish, o‘zini anglash, ruhiy yangilanish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro turizm rivojining yana bir muhim jihati shundaki, u davlatlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiyaning muhim vositasiga aylangan. Sayyohlar orqali bir davlatning ichki madaniyati, qadriyatlar va hayot tarzi boshqa xalqlarga namoyon bo‘ladi. Bu esa davlatlararo yumshoq kuch sifatida turizmning siyosiy barqarorlikka ham xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, turizm sohasi ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya va innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi ko‘plab boshqa tarmoqlarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, ekologik barqarorlikni saqlab qolish uchun ishlab chiqilgan turizm dasturlari, ayniqsa tabiat qo‘riqxonalar, biosfera zaxiralari va milliy bog‘larda tatbiq etilayotgani bu sohaning kelajagiga bo‘lgan umidlarni yanada mustahkamlaydi. Kelajakka nazar solar ekanmiz, xalqaro turizmning yanada ko‘lamli va samarali yo‘lga qo‘yilishi, albatta, global tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi. Turizm bu — jamiyatlar o‘rtasidagi ko‘prik, odamlar orasidagi do‘stlikning timsoli. Shuning uchun ham uni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash har bir davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Madaniy turizm, odamlarning o'zaro madaniyatlar, urf-odatlar va tarixiy merosni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat turizm turi sifatida jahon miqyosida keng tarqalgan. Bu turizm turi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyatlar o'rtasida yaxshiroq tushunishni rivojlantirishga ham yordam beradi. O'zbekiston kabi boy tarix va madaniy merosga ega mamlakatlar uchun madaniy turizmning rivojlanishi ayniqsa muhimdir. Ushbu maqolada madaniy turizmning ahamiyati, uning O'zbekistondagi o'rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Madaniy turizmning rivojlanishi, shuningdek, davlatning turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishni, mehmonxona xizmatlari, transport tizimi va madaniy tadbirlar tashkiloti kabi sohalarda yangiliklar kiritishni talab etadi. Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni kengaytirish va virtual sayohatlarni tashkil etish, turizm sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu nafaqat madaniy obidalar va yodgorliklar bilan tanishishni osonlashtiradi, balki turistik tajribaning sifatini ham oshiradi. Turistlar va sayyohlar uchun mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali madaniy tadbirlar, festivallar va arxitektura yodgorliklari haqida ma'lumotlarni tez va samarali olish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, O'zbekistonning madaniy merosini saqlash va yangilash borasida amalga oshirilgan tashabbuslar va loyihalar ham juda muhim. Turizmni rivojlantirish bilan birga, mamlakatning tarixiy yodgorliklari va madaniy merosini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish, bu yo'lda innovatsion yondashuvlarni qo'llash kerak. O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy va madaniy obidalari, masalan, Samarqandning Registon maydoni, Buxoroning Ark qal'asi, Xivaning Ichan-Qala shahri, shuningdek, Shahrisabz va Merv kabi qadimiy shaharlar turizmga jalb etilayotgan sayyohlar uchun juda katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu joylarda o'ylab chiqilgan turistik dasturlar, sayohat paketlari va madaniy tadbirlar, sayohatchilarni nafaqat tarixiy yodgorliklar bilan tanishtiradi, balki ularni o'ziga xos mahalliy urf-odatlar va san'atlarga ham jalb qiladi. Bundan tashqari, madaniy turizmni rivojlantirishda mahalliy aholi bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy xalqlar, ularning urf-odatlari, amaliy san'ati va kashtachilik, qurilish va gilam to'qish kabi hunarlarni sayohatchilarga taqdim etish, turizmni yanada rang-barang qilishga yordam beradi. Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab

chiqarish va ularni sayyohlar uchun sotish orqali, mahalliy aholi iqtisodiy jihatdan ham foyda ko'radi. Bundan tashqari, mahalliy an'anaviy taomlar va oziq-ovqat madaniyatini tanishtirish, sayyohlarning madaniy tajribasini yanada boyitadi va O'zbekistonning gastronomik turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Madaniy turizmning rivojlanishi uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasida mustahkam hamkorlik ham zarur. O'zbekiston hukumati madaniy turizmni qo'llab-quvvatlash va bu sohadagi infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Turizmni rag'batlantirish va yangi turistik yo'nalishlarni yaratish uchun davlat tomonidan grantlar, subsidiyalar va turistik tadbirlar tashkil etilishi kerak. Xususiy sektor esa mehmonxona xizmatlarini yaxshilash, yangiliklar kiritish va sayohatchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirishi zarur. O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishda, shuningdek, ekologik turizmni hisobga olish muhimdir. Ekoturizm va madaniy turizmni birlashtirish orqali tabiat va madaniyatni saqlab qolish mumkin. O'zbekistonning tabiiy landshaftlari, masalan, Chimgan tog'lari, Nurata tog'lari, Zarafshon va boshqa tabiiy go'zalliklar, sayyohlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin. Bu soha, tabiiy resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarishni talab qiladi va madaniy obidalarni saqlash bilan birga ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Yana bir muhim jihat, madaniy turizmni faqat tarixiy va arxitektura obidalariga qaratmasdan, kengroq madaniy merosni, shu jumladan, xalq san'ati, milliy musiqalar, raqslar va urf-odatlarini o'z ichiga olgan dasturlarni tashkil qilishdir. Bu orqali sayohatchilar nafaqat tarixiy yodgorliklar bilan tanishadilar, balki O'zbekistonning jonli madaniy merosini ham o'z ko'zlari bilan ko'rishadi. O'zbekistonning madaniy turizmga qaratilgan yangi strategiyasi jahon miqyosida sayyohlarni jalb qilish, o'zbek madaniyatini butun dunyoga tanitish va xalqaro turizm bozori o'rnini mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning madaniy turizm sohasidagi muvaffaqiyati xalqaro miqyosda o'zining imijini yaxshilashga yordam beradi, mamlakatni tarixiy va madaniy merosini saqlashga intilayotgan zamonaviy mamlakat sifatida tanitadi. O'zbekistonning madaniy turizm sohasidagi kelajagi istiqbolli va yangi imkoniyatlar bilan to'la. Agar davlat va xususiy sektor birgalikda ishlasa, O'zbekiston nafaqat turistik sayohatlar uchun mashhur yo'nalishlarga aylanadi, balki madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va o'z madaniyatini butun dunyoga tanitishda etakchi mamlakatlardan biriga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Madaniy turizmning rivojlanishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati haqida turli mamlakatlardan olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarga asoslanib, bu sohaning global miqyosda qanday o'rin tutishi haqida aniq tasavvur hosil bo'ladi. Adabiyotlarda madaniy turizmning turli tomonlari, jumladan, uning tarixiy merosni saqlashdagi roli, iqtisodiy ta'siri va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida ko'plab izlanishlar mavjud. Birinchi o'rinda, madaniy turizmning global va mahalliy miqyosdagi o'rni to'g'risidagi ilmiy ishlar ko'rsatiladi. Masalan, **Richards (2001)** madaniy turizmni, o'z navbatida, iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi bilan birga, madaniy merosni saqlashda va xalqlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, madaniy turizmning asosiy maqsadi — turistlarga yangi madaniy tajribalar taqdim etishdan tashqari, ularning o'zaro tushunishlarini oshirishdir. **McKercher va Du Cros (2002)** o'zlarining tadqiqotlarida madaniy turizmni kengroq ma'noda, madaniyatni qo'llab-quvvatlash va jahon bo'ylab madaniy aloqalarni mustahkamlashning bir vositasi sifatida ko'rib chiqadilar. Ular, shuningdek, madaniy turizmni rivojlantirishda turizm infratuzilmasining, ayniqsa, mehmonxona va transport tizimlarining ahamiyatini ta'kidlashadi. Ular o'z tadqiqotlarida madaniy merosni asrab-avaylashni va o'zgarishlarga qaramay, unga tegishli an'analarning saqlanishini ko'rsatadilar. O'zbekiston kontekstida, **Sadikova (2010)** tomonidan olib borilgan tadqiqotda, madaniy turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning ahamiyati va xalqaro turizm bozorida ta'siri o'rganilgan. Sadikova madaniy turizmni mamlakatning jahon iqtisodiyotida faollashuvi uchun yangi imkoniyat sifatida ko'radi va uning rivojlanishiga ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan e'tibor qaratadi. **Sharifova (2017)** o'z maqolasida O'zbekiston madaniy turizmining global turizm bozorida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqadi. U madaniy turizmning O'zbekistonda turistik joylar va obidalarga bo'lgan qiziqishni oshirganligini va bunday turizm turlarining turizm sanoatining muhim tarmog'iga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Metodologiya

Mazkur maqolada madaniy turizmning rivojlanishi va uning O'zbekistondagi o'rni to'g'risidagi ilmiy-ommabop tahlilni olib borish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi.

Tahliliy metod — Madaniy turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganish uchun statistik ma'lumotlar va ilmiy izlanishlardan foydalangan holda mavjud

adabiyotlar tahlil qilinadi. O'zbekistonning turizm sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, davlat va xususiy sektorning madaniy turizmga qo'ygan hissa va mamlakatning global turizm bozoridagi o'rni tahlil qilinadi.

Deskriptiv metod — Madaniy turizmning rivojlanish jarayonlari va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta'siri haqida batafsil tasavvur hosil qilish maqsadida, mamlakatdagi tarixiy yodgorliklar, madaniy meros va turistik infratuzilmaning holati tasvirlanadi. Shu bilan birga, madaniy turizmning ahamiyati va uning iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi haqidagi misollar keltiriladi.

Komparativ metod — O'zbekiston va boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilib, madaniy turizmni rivojlantirishdagi o'xshashliklar va farqlar o'rganiladi. Bunday yondashuv, O'zbekistonning madaniy turizm sohasidagi muvaffaqiyatlarini baholashda va uning global turizm bozoridagi o'rnini aniqlashda yordam beradi.

Empirik metod — O'zbekistonning turistik hududlarida olingan amaliy tajriba va ma'lumotlar asosida madaniy turizmning rivojlanish jarayonlari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu metod orqali madaniy turizmning ta'siri haqidagi so'rovlar va ekspert fikrlaridan foydalaniladi.

Intervyu va so'rovnoma — Mahalliy sayyohlar, turistlar, mehmonxona va turizm sohasidagi mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervyu va so'rovnomalar yordamida, madaniy turizmning O'zbekistondagi joriy holati va istiqbollari haqida aniq ma'lumotlar yig'iladi.

NATIJALAR

Madaniy turizmning rivojlanishi, ayniqsa, O'zbekiston kabi boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatlarda, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning madaniy turizm sohasida erishilgan eng muhim natijalardan biri — mamlakatning jahon turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashdir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi qadimiy shaharlar o'zining tarixiy obidalari va arxitektura yodgorliklari bilan sayyohlarni jalb etishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. O'zbekistonning "Silk Road"ning muhim markazlaridan biri sifatida tanilishi, mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlar sonining ortishiga olib keldi. Natijada, 2018-yildan boshlab O'zbekistonga kelgan xalqaro sayyohlar soni yil sayin o'sib bormoqda. Turizm sohasining o'sish sur'ati har yil o'rtacha 5-7 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va

ta'mirlash borasida amalga oshirilgan ishlar samarali bo'lib, bu sayyohlar uchun yanada jozibador sharoitlarni yaratdi. Masalan, Registon maydoni, Buxoro va Xiva shaharlaridagi arxitektura yodgorliklari, shuningdek, Shahrisabzdagi Amir Temurning yodgorlik majmuasi butun dunyodan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Iqtisodiy Ta'sir va Turizm Sanoatining Rivojlanishi

Madaniy turizmning O'zbekistondagi iqtisodiy ta'siri sezilarli bo'ldi. O'zbekistondagi turizm sohasining rivojlanishi, mahalliy iqtisodiyotga qo'shadigan hissa nuqtai nazaridan muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbekistonning turizm sektoriga investitsiyalar miqdori ortganligi va yangi turistik infratuzilmalarning yaratilib, mehmonxonalar, transport tizimi va sayohat xizmatlarining sifatini yaxshilashga imkon berishi, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqda. Sayyohlarning xarajatlari, asosan, mehmonxona xizmati, transport va oziq-ovqat xizmatlariga sarflanadi. Bu o'z navbatida, mahalliy sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining o'sishiga yordam beradi. Misol uchun, Samarqand va Buxorodagi mehmonxonalarning va restoranlarning bandligi yil sayin oshmoqda, va bu shaharlar hududida yangi ish o'rinlari yaratishga olib keladi. Shuningdek, turizmni rivojlantirish uchun yaratilgan yangi infratuzilma, shu jumladan, temiryo'l va havo yo'llarining modernizatsiyasi, hamda tarixiy yodgorliklar atrofida tashkil etilgan yangi turistik xizmatlar, sayyohlarning ko'proq mablag' sarflashi va O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam bermoqda.

Madaniy Turizmning Ta'rifi va Ahamiyati

Madaniy turizm — bu sayohatchilarning o'zaro madaniy va tarixiy merosni o'rganish, o'z madaniyatini namoyish etish va turli xalqlar orasida madaniy aloqalarni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Madaniy turizmning asosiy jihatlari orasida tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, xalq san'ati, musiqasi, raqslari va an'analari bilan tanishish bor. Madaniy turizmning ahamiyati shundaki, u iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi, turizmni diversifikatsiya qilish orqali yangi ish o'rinlari yaratadi va turizm sohasida barqaror o'sishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, madaniy turizm xalqaro miqyosda davlatlarning imijini yaxshilaydi, ularni jahon madaniyati uchun qimmatli hissalar kirituvchi mamlakatlar sifatida tanitadi.

O'zbekistonda Madaniy Turizmning Rivojlanishi

O'zbekiston tarixiy obidalari va madaniy merosiga boy bo'lib, bu mamlakatning madaniy turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari juda kengdir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda joylashgan tarixiy yodgorliklar va me'morchilik yodgorliklari butun dunyodan sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. O'zbekistonning har bir burchagida o'ziga xos madaniy xususiyatlar mavjud bo'lib, ularning har biri madaniy turizm uchun noyob imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning an'analari va urf-odatlarini, masalan, xalq musiqasi va raqs san'ati, kashtachilik, gilamchilik va o'ziga xos oshxona madaniyati turizmni yanada jozibador qilishga xizmat qiladi. O'zbekiston hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar, masalan, Afrasiab, Shahrisabz va Merv kabi joylar ham madaniy turizm uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Madaniy Turizmning Ijtimoiy va Iqtisodiy Foydalari

Madaniy turizmning rivojlanishi ijtimoiy jihatdan turli xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni yaxshilaydi. Boshqa xalqlarning madaniyatini o'rganish, ular bilan aloqalar o'rnatish va bir-biriga o'xshashliklarni topish sayohatchilarga o'zaro hurmatni oshiradi. Madaniy turizm shuningdek, mahalliy aholi uchun ham foydalidir. Sayyohlarning kelishi mahalliy sanoat, restoranlar, mehmonxonalar va qo'lda ishlangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. O'zbekistonda madaniy turizm sohasida amalga oshirilgan investitsiyalar, masalan, tarixiy joylarning ta'mirlanishi va yangi turistik infratuzilmalarning yaratilishi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada foyda keltirmoqda. Sayyohlar tomonidan xarid qilingan mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari, xalq san'ati va an'anaviy kiyimlar ham iqtisodiy ahamiyatga ega.

Madaniy Turizmning Kelajagi

O'zbekistonning madaniy turizm sohasida kelajakda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Yangi turistik yo'nalishlar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, raqamli turizm va virtual muzeylar yaratish orqali sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Shuningdek, madaniy festivallar, xalqaro san'at ko'rgazmalari va an'anaviy madaniy tadbirlar orqali O'zbekistonda madaniy turizmni yanada ommalashtirish mumkin.

Muammolar va Kengaytirish Imkoniyatlari

Biroq, madaniy turizmning rivojlanishi ba'zi muammolarni ham keltirib chiqardi. Masalan, ba'zi tarixiy yodgorliklarning haddan tashqari ziyorat qilinishi va natijada ularning ta'sirga uchrashi — bu muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, madaniy turizmni rivojlantirish uchun kerakli infratuzilmaning etishmasligi, ayniqsa kichik hududlarda va chekka joylarda hali o'zining to'liq salohiyatiga erishmagan. Shuningdek, turistlar uchun xizmat ko'rsatish sifati va mahalliy aholi bilan aloqalar o'rtasidagi noaniqliklar ba'zan muammolarga olib kelmoqda. Biroq, bu muammolarni hal qilish uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi turizm strategiyalarini ishlab chiqish, ekologik va madaniy saqlashni yaxshilash orqali O'zbekistonda madaniy turizmni yanada rivojlantirish mumkin. Ekoturizm va madaniy turizmni birlashtirish orqali, tabiiy va madaniy resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish va barqaror turizmni rivojlantirishga imkon yaratish mumkin.

Xulosa

O'zbekistonda madaniy turizmning rivojlanishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. O'zbekistonning boy madaniy merosi va tarixiy obidalari, mamlakatni global turizm bozorida mashhur va jozibador yo'nalishlardan biriga aylantirishga yordam bermoqda. Madaniy turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki xalqaro aloqalarni mustahkamlash, madaniyatlarni o'rganish va mahalliy aholini qo'llab-quvvatlashga ham katta hissa qo'shmoqda. Bu boradagi kelajakdagi istiqbollar muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqish va yanada barqaror turizm rivojlanishiga yo'l ochadi. Madaniy turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi, balki jamiyatlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim soha hisoblanadi. O'zbekistonda madaniy turizmning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Tarixiy merosni saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish, shuningdek, jahon madaniyati bilan aloqalarni rivojlantirish O'zbekistonning strategik vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Madaniy turizmning ijtimoiy va madaniy ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonga kelgan sayyohlar nafaqat tarixiy obidalar bilan tanishib, balki mahalliy xalqlarning urf-odatlarini, xalq san'ati, milliy musiqasi va raqslarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'zaro madaniyatlarni o'rganish, odamlar o'rtasida yanada ko'proq o'zaro hurmat va tushunishni shakllantiradi. Sayyohlar uchun madaniy merosni o'rganishning nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy qiymati ham bor. Madaniy turizm, ayniqsa, yoshlar o'rtasida global madaniyatni anglash va tarixiy ildizlarni his qilishni rivojlantiradi. Mahalliy aholi uchun esa madaniy turizmning ijtimoiy ta'siri shundaki, bu soha mahalliy san'at va hunarmandchilikni jonlantiradi. Xalq amaliy san'ati, kashtachilik,

gilam to'qish, pichoqchilik va boshqa an'anaviy hunarlarni saqlash va rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Bu nafaqat mahalliy xalqning madaniy merosini saqlashga yordam beradi, balki turizm sohasining rivojlanishi natijasida mahalliy aholining daromadlarini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McKercher, B., & Du Cros, H. (2002). *Cultural Tourism: The Partnership Between Tourism and Cultural Heritage Management*. Routledge.
2. Richards, G. (2001). *Cultural Tourism: Global and Local Perspectives*. The International Journal of Tourism Research, 3(5), 365-376.
3. Sadikova, R. (2010). *O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanish imkoniyatlari*. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Sharifova, N. (2017). *O'zbekiston madaniy turizmi: rivojlanish istiqbollari*. Turizm tadqiqotlari markazi.
5. Shukurov, D. (2015). *O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va madaniy merosni saqlash*. O'zbekiston Milliy Universiteti.
6. Tashkent City Tourism Development Agency. (2019). *Madaniy turizmni rivojlantirish va uning ijtimoiy ta'siri*. Tashkent City Publishing.
7. Pardaev, S. (2018). *Turizm sohasida marketing va madaniy turizmning o'rni*. O'zbekiston Turizm va Sport Akademiyasi.
8. Gulomov, A. (2016). *Madaniy turizm va iqtisodiy o'sish: O'zbekiston tajribasi*. Journal of Tourism and Economics, 4(2), 22-30.
9. Abdullaeva, M. (2019). *O'zbekistonda turizm va madaniy merosni rivojlantirish strategiyalari*. Tashkent State University Press.
10. Khaydarov, F. (2020). *Barqaror turizm va madaniy merosni saqlash: O'zbekiston misolida*. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va turizm sohasidagi innovatsiyalar.

**TIBBIYOTGA DOIR TERMINLARNING MORFOLOGIK, SINTAKTIK VA
ABREVIATURA USULIDA YASALISHI.****Mamarajabova Dilbar Allanazar qizi**

Termiz iqtisodiyoti va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ma'lumki, bugungi kunda tilshunoslikda nihoyatda dolzarb, murakkab shu bilan birga nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish bu terminalogiyadir. Albatta terminlarning rivojlanishi, shakllanish jarayonlari ma'lum qonun qoidalar yuzasida sodir bo'ladi. Ushbu tezisda, tibbiyotga oid terminlarning morfologik, sintaktik va abreviatura usulida yasalishini bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: Terminalogiya, morfologiya, sintaksis, abreviatura, prefiks, ildiz, atama, o'simta, kasalliklar, nefralogiya, nevralogiya, hepatoma, hematoma.

Terminologiya - ilm, ilmiy adabiyot tilining muhim ajralmas qismidir. Lotin tili tibbiyotda an'anaviy ravishda anatomiya, klinika va farmakologiya uchun xalqaro terminologiya, shuningdek, retseplar tayyorlashda qo'llaniladi. Lotin tilini bilish turli mamlakatlar shifokorlariga bir-birlarini osongina tushunish imkonini beradi.

Zamonaviy tibbiyotning terminologik tizimi ko'plab quyi tizimlardan iborat bo'lib, ular orasida uchta etakchi: anatomik va gistologik terminologiya, farmatsevtik terminologiya va klinik terminologiya. Funktsional buzilishlarning nomlari odatda **prefiks** va **ildiz atama** elementlarining kombinatsiyasi yordamida tuziladi. -Prefiksli TE lardan **dys-** prefiksi ko'pincha **TE** yakuniy ildizi bilan birgalikda qo'llaniladi: diskineziya, ae f - diskineziya, muvofiqlashtirilgan harakat **harakatlarning buzilishi**. -Dysfunctio **onis** f - disfunktsiya va nomi. ma'lum bir organ ham ishlatiladi: dysfunction renum - buyrak funksiyasining buzilishi. -Ayrim funktsiya yoki fiziologik jarayonning to'liq **to'xtab qolishi** yoki yo'qligi **a** - (an-unli tovush oldidan) prefiksi yordamida ifodalanadi: **afagiya**, ae f - **afagiya**, **yuta olmaslik**; **anuriya**, ae f - **anuriya**, siydik pufagiga siydik tushmasligi **-Nimanidir yo'qotish** yoki **ajratish** ma'nosini bildirmoqchi bo'lsak **des-** prefiksini ishlatamiz: des-infectio (dezinfeksiya yani infeksiyani yoqotish, zararsizlantirish) **-osis** suffiksi ham **surunkali kasallanish** yoki **normadan oshib ketish** yoki **ko'payish** manosida keladi: masalan hepatosis (jigarning surunkali kasallanishi), acidosis (kislota

moqdorining oshib ketishi)-**itis suffiksi yalliglanish** ma'nosida keladi. Masalan: arthritis (bo'gim yalliglanishi), stomatitis (og'iz bo'shligi yallig'lanishi) Klinik terminologiya (yunoncha klinike (**techne**) - **yotqizilgan bemorlarni parvarish qilish**) tibbiy terminologiyaning eng keng qamrovli bo'limidir. Bu erda turli kasalliklar va ularning nomlari, tekshirish va davolash usullari, klinik mutaxassisliklar va mutaxassislar keltirilgan. Bu nomlarning barchasi asosan otlardir. Bunday otlar bir ildizli so'zlar bo'lishi mumkin (asthma, atis n - astma; hernia, **ae f** - churra). Biroq, ko'p hollarda ular tarkibi murakkab bo'lib, asosan yunoncha so'z yasovchi elementlardan yoki atama elementlaridan (TE) iborat: hyperaesthesia- yuqori sezuvchanlik Affiksial va ildiz TE mavjud. Affiksial TElar prefiks va qo'shimchalardir. Masalan, **hypo-** **prefiksi "normadan past"** ma'nosi bilan atamalarni hosil qiladi: hypotermia - gipotermiya, haroratni pasaytirish; hypothyreosis - hipotiroidizm, qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi; hypoxia - gipoksiya, to'qimalarda kislorod darajasining pasayishi. **-oma** qo'shimchasi odatda "**o'simta**" degan ma'noni anglatadi: lipoma, yog 'to'qimalarining shishi; odontoma - odontoma, tish to'qimalarining shishi. Ildiz **TE** - yunoncha va ba'zan lotincha otlar, sifatlar yoki olmoshlarning ildizlari yoki o'zakkari. Ildiz TE larni boshlang'ich va oxirgilarga bo'lish odatiy holdir. Dastlabki TE qo'shimchalar yoki oxirgi TE bilan bog'lanadi. Masalan, TE angi - "tomir" ma'nosi bilan angioma (angioma, qon tomirlari to'qimasidan o'sma) va angiitis (angiit, qon tomirlari devorlarining yallig'lanishi) nuqtai nazaridan – it is yoki - oma qo'shimchalari bilan birlashtirilishi mumkin). Shu bilan birga, bu TE ildiz uchi TE bilan birlashtirilishi mumkin: **angiosclerosis (angioskleroz, qon tomirlari devorlarining qattiqlashishi)**, angiospasmus (angiospazm, qon tomirlarining spazmi). Boshlang'ich TE odatda boshqasiga, shu jumladan oxirgi TE ga bog'lovchi unli - o - yordamida birlashtiriladi: bronchospasmus- bronxospazm, bronxlarning torayishi. Agar boshlang'ich TE qo'shilgan TE unli bilan boshlansa, u holda bog'lovchi - o-, qoida tariqasida, olib tashlanadi: **nephrectomia - nefrektomiya, buyrakni olib tashlash operatsiyasi** Biroq, ba'zida bu qoidaga rioya qilinmaydi. va bog'lovchi - o - saqlanib qoladi: acroaesthesia – tananing **distal** qismlarining **yuqori sezuvchanligi**. Ildiz TE ko'pincha boshlang'ich va yakuniy terminologik elementlar sifatida harakat qilishi mumkin, masalan: **nos-** va **-nosis** (kasallik), qarang: **nosologia**, **ae f** - nozologiya, kasalliklarning shakllari va ularning tasnifi haqidagi **ta'limot**; zoonosis, **is f** - **zoonoz**, **hayvonlardan odamga yuqadigan yuqumli kasalliklar**. Bunday hollarda talabalar ushbu ikkala variantni ham bilishlari va ularga og'zaki yoki yozma javob berishlari kerak: kasallik - **nos-**, **-nosis**. Ildiz TE lar bir-biri bilan bog'lanib, ko'p komponentli tuzilmalarni hosil qilishi mumkin: chole (safro) + **cyst (quviq)** – > **cholecyst- xoletsist – (o't pufagi)**: – cholecystographia -xoletsistografiya – o't pufagining rentgenografiyasi. Tibbiyot

fanlari, mutaxassisliklari va **bo'limlarining nomlari** ko'pincha yakuniy **TE** - logia: ophthalmologia ae f - oftalmologiya yordamida shakllanadi. Klinik tibbiyot bo'limlarining ayrim nomlari **yakuniy TE - iatria** yordamida shakllanadi: geriatria, ae f - geriatriya, klinik tibbiyotning keksa yoshdagi kasalliklarga va ularni davolash usullariga bag'ishlangan bo'limi Bugungi kunda lotin tili nafaqat Qadimgi Rim faylasuflari, notiqchilari, shoirlarining xotirasi, balki zamonaviy dunyoning ajralmas atributidir. Lotin tili ko'plab bilim sohalarida, xususan, tibbiyot, biologiya va huquqshunoslikda ilmiy terminologiyada mustahkam ildiz otgan. Tibbiyotda deyarli barcha tibbiy atamalar lotin-yunon tilidan kelib chiqqan.

Ingliz tili o'qituvchisi ingliz tilidan tashqari yunon-lotin terminologiyasini ham bilishi kerak. Tibbiyotda aniqlik juda ham muhim hisoblanadi, chunki tarjimadagi har qanday xato juda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, hatto ingliz tilini biladiganlar uchun ham tibbiyotga doir tibbiy asbob-uskunalar va yangi dori vositalari bo'yicha maqola, kitob yoki ko'rsatmalarni to'g'ri tushunishlari uchun o'z ustida ishlashlari zarur. Bundan tashqari, ingliz tilidagi tibbiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish ham juda muhimdir. Shuningdek, ko'p so'zlar bir xil talaffuz qilinadi, lekin mazmuni jihatidan boshqacha va bir-biridan butunlay farq qilishi mumkin. Masalan, **ileum [iliəm]** – ingichka ichakning bir qismi, **illium [iliəm]**-chanoqning bir qism, ya'ni yonbosh suyagi. Tibbiyotda nafaqat so'zning noto'g'ri talaffuzi, balki noto'g'ri yozilishi ham tibbiyot xodimlari uchun bemorga to'g'ri tashxis qo'yishda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xatoliklar, o'z navbatida, nafaqat bemorni noto'g'ri davolashga, balki uning o'limiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, **hepat/oma** so'zi jigar raki va **hemat/oma** so'zi esa qon raki degan ma'noni anglatadi. Yoki aksincha, agar so'z to'g'ri yozilgan bo'lsayu, lekin talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, uning ma'nosini tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, **urethra [juə'ri:θrə]** so'zi O'zbek tiliga siydik pufagidan tashqi yuzaga olib keluvchi siydik nayi ma'nosini anglatasa, ammo **ureter [ju'ri:trə]** so'zi esa buyrakdan siydik pufagiga olib keluvchi naylardan biri degan ma'noni bildiradi.

Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tillarida tibbiyot terminologiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, morfologiyagik, sintaktik va abreviatura usulida yasalishi chuqur o'rganildi. Terminologiya va termin tushunchasi talqini ko'rib chiqildi. Ingliz va o'zbek tillarida terminologiyaning farqlari va o'xshashliklari tahlil qilindi, bu esa tibbiyot sohasida aniq va samarali muloqot o'rnatish uchun zaruriy bilimlarni taqdim etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ольга Сергеевна Ахманова: очерк жизни и науч. творчества. М.: КомКнига, 2007. 206 с.
2. Ахманова О.С. : очерк жизни и науч. творчества. М. : Ком Книга, 2007. – С. 206.
3. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. Изд . 2-е, испр и доп М : Ком Книга, 2006.
4. Новодранова.В.Ф Именное словообразование в латинском языке и его отражение в терминологии. – М.: Языки русской культуры, 2008 /Серия: Studia philologica/. – 328 с. – ISBN 978-5-9551-0282-5
6. Barbara Janson Koen (muallif). Lippincott Williams and Wilkins; Tibbiyot terminologiyasi: tasvirlangan qo'llanma. 7-nashr (2016 yil 27 yanvar).
7. Э. Дрезен; За всеобщим языком. (Три века исканий) / С предисл. академика Н. Я. Марра; Главнаука НКП РСФСР. – Москва; – Ленинград: Гос. изд-во, 1928 (Л. : тип. Печатный двор). – 269 с.
8. Реформатский А. А. Введение в языковедение: Учебник для вузов. – М., 1947. – 544 с.
9. Florenskiy.P.A., Tatarinov.V.A. Termin / P. – М.: Moskovskiy Litsey, 1994. – S.24.
10. Bolliyev.M.N, Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi – Toshkent: Ilm ziyo, 2005. – 256 b.

**ELEKTRON TIJORATNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI
OMILLAR: O'ZBEKISTON MISOLIDA**

Nazarova Shaxodat Ravshan qizi

Termiz davlat universiteti iqtisodiyot talim yo'nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada elektron tijoratning jahon bozorida tez sur'atlarda rivojlanayotgani va bu jarayon savdo samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda xizmatlar doirasini kengaytirish kabi afzalliklarni ta'minlashi yoritilgan. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston misolida elektron tijoratga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – texnologik, iqtisodiy, geografik va tashkiliy jihatlar tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba asosida olib borilgan tahlillar orqali mamlakatimizda raqamli savdoning salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida elektron tijoratga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni kuchaytirish va salbiy jihatlarni bartaraf etish orqali O'zbekistonda elektron tijoratni yanada jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar

Raqamli iqtisodiyot, e-tijorat, elektron savdo, texnologik omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, samaradorlik, raqamli savdo.

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ
КОММЕРЦИИ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА****Аннотация**

В данной статье рассматривается стремительное развитие электронной коммерции на мировом рынке и её преимущества в повышении эффективности торговли, снижении издержек и расширении спектра предоставляемых услуг. В частности, на примере развивающихся стран, включая Узбекистан, анализируются факторы, влияющие на электронную торговлю — технологические, экономические, географические и организационные аспекты.

На основе зарубежного опыта выявляется потенциал цифровой торговли в нашей стране и возможности её дальнейшего развития. В результате исследования разработаны практические рекомендации по активизации электронной коммерции в Узбекистане за счёт усиления положительных факторов и устранения негативных.

Ключевые

слова:

цифровая экономика, электронная коммерция, e-commerce, электронная торговля, технологические факторы, экономические факторы, организационные факторы, эффективность, цифровая торговля.

Factors Influencing the Efficiency of E-Commerce: The Case of Uzbekistan

Abstract

This article discusses the rapid development of e-commerce in the global market and its advantages in improving trade efficiency, reducing costs, and expanding the range of services. In particular, it analyzes the factors affecting e-commerce — technological, economic, geographical, and organizational aspects — using the example of developing countries, including Uzbekistan. Based on international experience, the potential of digital trade in Uzbekistan and its development prospects are identified. As a result of the study, practical recommendations are proposed to accelerate the growth of e-commerce in Uzbekistan by strengthening positive factors and eliminating negative influences.

Keywords:

digital economy, e-commerce, electronic trade, technological factors, economic factors, organizational factors, efficiency, digital trade.

Kirish.

Globalashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimiga tubdan o'zgarishlar olib kirdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda Internet tarmog'i orqali mahsulot va xizmatlarni sotish, ularni targ'ib qilish, xarid qilish, yetkazib berish va hisob-kitobni amalga oshirish imkonini beruvchi *elektron tijorat (e-commerce)* iqtisodiy faoliyatning strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, elektron tijorat nafaqat savdo jarayonlarini optimallashtiradi, balki xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yangi bozor

segmentlarini ochib beradi, marketing va logistika xarajatlarini kamaytiradi, xaridorlar bilan bevosita muloqotni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, elektron tijoratdan kutilgan iqtisodiy samaraning ro'yobga chiqishi ko'plab ichki va tashqi omillar bilan chambarchas bog'liq. Ular qatoriga raqamli infratuzilma rivojlanish darajasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qamrovi, elektron to'lov tizimlarining funktsionalligi, foydalanuvchilar ishonchi va iste'mol madaniyati, shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional muhit kabi jihatlar kiradi. Mazkur omillarning har biri elektron tijorat samaradorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar elektron tijoratni qo'llagan va qabul qilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar hali uni qabul qilishga to'liq moslashmagan. Shu jihatdan axborotlashtirish va raqamlashtirish asnosida elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiyotning xususiy yo'nalishi sifatida bir qator omillarga borib taqaladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron tijoratni qabul qilish va rivojlantirishda rol o'ynaydigan omillarni o'rganishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Internet yutuqlari biznesga joriy etila boshlagach, mutaxassislar va tadqiqotchilar e-tijoratning rivojlanishi va keng tarqalishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sirini anglashga katta qiziqish bildira boshladilar. Bugungi kunda ham elektron tijoratni ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki u doimiy ravishda rivojlanib, yangi shakl va yo'nalishlarda kengayib bormoqda. Bu borada o'zbek olimlaridan Samarqand davlat universiteti professor-o'qituvchilari Sh.Q. Yuldashev, D.Q. Usmanova, L.N. Xalikova chet el olimlaridan M.V. German tadqiqotlarini o'rganish asosida "Elektron tijorat asoslari" [2] nomli o'quv qo'llanma yaratishgan. Toshkent Moliya instituti professor-o'qituvchilari U.Q. Yakubov, M.I. Azizova, M.Y. Jumaniyozova "Elektron tijorat" fanidan o'quv-uslubiy majmua [3] tayyorlashgan. Undan tashqari, bir qator o'zbek olimlari [10] va davlat xodimlari [6] elektron tijoratning O'zbekistondagi holati, ishlab chiqilayotgan qarorlar [1] va qonunlarni o'rganib, o'z fikrlarini e'lon qilishgan. Yuqoridagi ishlarda keltirilgan e-tijoratga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlar nisbatan cheklangan.

Xorijlik olimlar ham elektron tijoratga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqishgan. Ulardan R.R. Salixova [4], G.A. Rijkova [5], Christian Mbayo Kabango, Asa Romeo Asa [7], Oludare Gabriel, Awe, K. Sushil, and Jeff Zhang [8], Rodriguez-Ardura Inma, Antoni Meseguer-Artola, Jordi Vilaseca Requena [9], A. Waseem, Y.

Rashid, M.A. Warraich, I. Sadiq, Z. Shaukat [11] kabi tadqiqotchilarning ishlarini o'rganib chiqdik. Ularning aksariyati [4, 5, 7, 8, 10] muayyan davlat miqyosidagi omillarning ta'sirini o'rgangan bo'lsa, [9] va [11] da dunyo mamlakatlari uchun umumlashtirgan omillar o'rganib chiqilgan.

“E-tijorat” atamasining ta'rifi. Elektron tijorat yoki elektron savdo (e-commerce) – bu elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda mahsulotlar, xizmatlar va ma'lumotlarni sotib olish, sotish, o'tkazish yoki almashtirish jarayoni [2]. Elektron tijoratning boshqa ta'riflari mavjud, masalan, bu foyda olish maqsadida tijorat faoliyati va kompyuter tarmoqlaridan foydalanish orqali tijorat siklni kompleks avtomatlashtirishga asoslangan. Iqtisodchilar elektron tijoratni “kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalar, moliyaviy va savdo operatsiyalari bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni qamrab oladigan milliy iqtisodiyot sohasi” deb ta'riflaydilar. “Elektron tijorat to'g'risida”gi qonunning 3-moddasiga (385-O‘RQ, 22-may 2015-yil) muvofiq “Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir”.

Yuqorida keltirilgan va turli adabiyotlardagi ta'riflardan shuni anglash mumkinki, internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida har bir sohaning “elektron” ko'rinishi paydo bo'lib takomillasha boshladi, jumladan, tijoratning ham “elektron” ko'rinishi yuzaga keldi. O'z navbatida, elektron tijorat bir qator afzalliklarini namoyon qilishga ulgurdi va an'anaviy savdo bilan shug'ullanuvchi subyektlar ham o'zlarining global tarmoqda o'rnashishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda tijorat bilan shug'ullanuvchi subyektlarni internet bilan faoliyati bog'langanlik darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'lishimiz mumkin (1-rasm):

An'anaviy savdo bilan shug'ullanuvchi subyekt – o'zining tijoriy faoliyatini yuritish uchun jismoniy manzilga ega.


Ham an'anaviy, ham internetda faoliyat yurituvchi subyekt – o'zining jismoniy va internetda manziliga ega.

Faqat elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi subyekt – o'zining internetda manziliga ega.

Bugungi kunda faqatgina an'anaviy usulda tijorat bilan shug'ullanadigan subyektlar zamon talablariga javob berish maqsadida o'zlarining internetdagi faoliyatini yo'lga qo'yish va auditoriya yig'ishga harakat qilmoqdalar. Internetda tijorat bilan shug'ullanuvchi subyektlar asosan o'z websaytlarini ishga tushirish,

shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini doimiy ravishda yuritish va ommalashtirishga harakat qiladilar.

1-rasm. O'zbekistonda tijorat bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatining internet bilan bog'langanlik darajasiga ko'ra bo'linish



Bir nechta davlatlar misolida elektron tijoratning rivojlanishini o'rganib chiqishimiz davomida shuni aniqladikki, jarayonda bir qator omillar mavjud. Bizning olimlarimiz [2] dastlab elektron tijoratning paydo bo'lishi uchun iqtisodiy va texnik shart-sharoitlar mavjud bo'lganini ta'kidlashgan. Vaqt o'tishi bilan esa, elektron tijorat tushunchasi ham, uning faoliyati, amaldagi ko'lami va imkoniyatlari ham rivojlanib, murakkablashib bordi, mos ravishda, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham yuzaga keldi. Olimlar, dastlab nazariy jihatdan tadqiqot qilib, PEST tahlil asosida, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni aniqlashgan [12]. Biroq Ansar Waseem va boshqalar [11] o'tkazgan tadqiqot mamlakatda elektron tijoratning o'sishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos omillarni aniqlashga qaratilganligi bois, boshqa empirik tadqiqotlardan farq qilib, firma va mijozning o'ziga xos omillarini aniqlashga emas, balki onlayn biznes faolligini oshirishi mumkin bo'lgan milliy omillarni o'rganishgan va ularni uch guruhga bo'lishgan: texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy Ular regression tahlil asosida kishi boshiga YaIM, tayyorlik sub-indeksi, urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy tarmoqlar katta ta'sir ko'rsatishini, qolgan omillar esa juda kam yoki umuman ahamiyatsiz ekanini aniqlashdi.

“Экономика и жизнь” jurnalida e'lon qilingan maqolada [15] esa barcha mamlakatlarda elektron tijorat dinamikasining muhim omillari deyarli bir xil – bozorga kirish, xaridorlarning veb do'konlarga kirishning texnik qobiliyati, yuqori darajadagi

professionallik va texnik innovatsiyalar bo'lib, farqi onlayn chakana savdo aylanmasi va o'sish sur'atlari ulushida deyiladi.

Yuqorida adabiyotlarni o'rganib chiqish davomida elektron tijoratga ta'sir etuvchi omillar zamon va makonga qarab ta'sir ko'lami turlicha ekanini aniqladik. Turli adabiyotlarda turlicha tasniflangan omillarni umumiy lashtirish ehtiyojini aniqladik va barcha zamonlar hamda makonlar uchun nazariy jihatdan umumiy bo'lgan omillarni kategoriyalarga bo'lib chiqdik (2-rasm).

2-rasm. Elektron tijoratga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi³



Siyosiy omillar. Har bir mamlakatning siyosati uning har sohada rivojlanish yo'l xari tasini ko'rsatib beradi. Aynan mana shu omil siyosiy jihatdan ichki va tashqi e-tijorat subyektlarini qo'llab-quvvatlash, yaratish, davlat imkoniyat tomonidan zaruriy chora tadbirlar, sarmoya singari masalalarni hal qilib beradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda hukumat siyosatining roli juda muhim, chunki aynan hukumat mustahkam xavfsiz onlayn to'lov tizimlarini ta'minlash, barqaror AKT infratuzilmani shakllantirish, ta'lim dasturlarini amalga oshirish hamda media va ta'lim institutlarisingari vositalarni ishga solish orqali aholini xabardor qiladi [12]. Huquqiy omillar. Normativ-huquqiy asoslar ning nomukammalligi, albatta, elektron tijoratning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu omilning mavjudligi elektron tijorat subyektlari tomonidan sezilarli ishonchsizlikni keltirib chiqaradi (firib garlik, soliq to'lashdan

bo'yin tovlashning rivojlanishi uchun imkoniyatlar mavjud). Bu, birinchi navbatda, B, C, G tarmoqlarining barchasiga tegishli [4].

Bugungi kunda internet tarmog'idagi faoliyatni tartibga solish uchun qonunlar, eng avvalo, elektron tijoratni standartlashtirish, uni birlashtirish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar zarurligiga hech kim shubha qilmaydi. Soliq solish va soliqlarni to'liq to'lash masalalari qonunchilik darajasida tartibga solinadi; elektron imzo va bitimlarni uchinchi shaxslar aralashuvidan himoya qilish; iste'molchilar huquqlarini himoya qilish; firibgarlikdan himoya qilish va boshqalar shular jumlasidandir [5].

Biroq elektron tijoratning normativ-huquqiy bazasi takomillashtirilganiga qaramay, aholi ning elektron tranzaksiyalarga ishonchsizlik ulu - shi ancha yuqoriligicha qolmoqda. Visa's Every where Initiative ma'lumotlariga ko'ra, elektron tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi iste'molchi larning 53 foizi to'lov xavfsizligidan xavotirda[17].

Iqtisodiy omillar. Bozorda mavjud iqtisodiy sharoitlar elektron tijorat natijalariga ta'sir qiluvchi kuchlarni tushuntirishga yordam beradi. Iqtisodiy kuchlar inflyatsiya, foiz stavkalari, mehnat va davlat pul-kredit siyosati kabi ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlarga talab darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir. Ushbu omillar ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va arzonligini, shuningdek, iste'molchilarning yakuniy mahsulotingizni olish qobiliyatini belgilaydi. Elektron tijorat biznesni avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari ilovalaridan foydalanish orqali amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Elektron tijorat faoliyati natijalariga iqtisodiy kuchlar bevosita ta'sir qiladi, bu global pandemiya davrida o'z isbotini topdi [15].

Ijtimoiy omillar. Ijtimoiy-demografik omil - larga aholining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligi; axborot savodxonligi; xodimlarning kasbiy malakasi darajasi; Internetdagi tranzaksiyalarga aholining ishonch darajasi; aholining axborotdan foydalanish imkoniyatini oshirish singari ko'r satkichlar kiradi. Ularning ijobiy ta'siri natiijasida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli aholining turli xarakterdagi va maqsadli ma'lumotlarga, shu jumladan, reklama va spamlarga kirish imkoniyati oshadi [17].

Texnologik omillar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi, mobil tele fonlariga ulanish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabilar texnologik omilga kiradi. Olimlar AKTni "yaratish, tarqatish, saqlash, qo'shimcha qiymat yaratish va axborotni boshqarish uchun turli xil texnologik vositalar va resurslar to'plami" - deya ta'rif beradilar. Bugungi kunda elektron tijoratning rivojlanishini AKT sohasidagi

inqilob bilan bog'lash mumkin, chunki elektron tijorat AKT taraqqiyotning an'anaviy institutsional asos bilan uyg'unlashuvdir. Mobil telefonlarining keng tarqalishi va takomillashuvi natijasida elektron tijoratning yana bir ko'rinishi – mobil tijorat (M-tijorat) ommalashib bormoqda. Mos ravishda onlayn do'konlar ham o'zlarining mobil ilovalarini ishga tushirib ommaga taqdim etishmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ham eng ommalashayotgan onlayn platforma hisoblanadi. O'zbekistondagi aksariyat kichik va o'rta onlayn do'konlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyaga minimal xarajatlar bilan erishish mumkin. Bu esa xususiy veb sayt yoki mobil ilovaga nisbatan qulay va arzonidir.

Geografik omillar. Turli mamlakatlar va ularda elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganar ekanmiz, biz tadqiqotchilar ba'zi mamlakatlarda (sohilbo'yi va yaqin portlar) suv transporti orqali xalqaro tovarlar va savdogarlarning o'tishlari tufayli elektron tijorat rivojlangani o'rtasida ijobiy bog'liqlik borligini aniqlashga erishdik. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasining elektron tijoratiga asosan geografik omillar ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda bu mamlakat moliyaviy texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari va elektron tijorat bo'yicha ko'plab yuqori darajalarni qo'lga kiritdi. Bunda O'zbekiston farqli ravishda ikki karra dengiz yoki suv transporti yo'llariga ega bo'lmagan davlat sifatida, geografik omillar yurtimizda e-tijoratning rivojlanishiga nol yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tish joiz.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada asosan raqamli iqtiso diyo't sharoitida O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoning rivojlanish dinamikasini o'rganildi va tahlil qilindi, an'anaviy savdoga nisbatan afzalliklarini ko'rsatildi. Tadqiqot jarayonida elektron savdoni rivojlantirish jihatlarini o'rgangan turli xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilingan. Jahon elektron savdo rivojlanishini baholashda turli xalqaro eksperlar hisoboti ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduk siya, tahlil va sintez, miqdor va sifat, taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.


4. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR. Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan.

Jaonning rivojlangan mamlakatlari kabi, O'zbekistonda ham raqamli savdo va elektron tijorat yil sayin rivojlanib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish doirasida keng miqyosdagi chora tadbirlar kompleksi rejalashtirilgan[1].

Jahonning ko'plab mamlakatlarida COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli iqtisodiy munosabatlar rivojlandi va iqtisodiyotning turli sohalarida elektron tijoratning ahamiyatining oshishiga olib keldi.

2021-yilda dunyo buylab chakana savdolarining qiymatining qariyb 19 foizi elektron tijoratga to'g'ri keldi. Tahliliy bashoratlarga qaraganda, 2026- yilga kelib dunyo buyicha chakana savdo-sotiqning onlayn (internet) segmenti savdo aylanmaning chorak qismini ya'ni 25 foizini tashkil etadi. Jumladan, o'zbekistonda ham savdo sohasida electron tijoratning salmog'i keyingi yillarda ancha yuqori suratlarda rivojlanmoqda. Davlat statistika qo'mitasi malumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda Elektron tijorat savdo hajmi (yillik) 13263,8 mlrd. so'mni tashkil etib bu 2017-yilga nisbatan 1000 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari mamlakatimizda Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik) 2023- yilda 1.23 foizni tashkil etganligi inobatga olsak bu ham oldingi yillarga nisbatan sezilarli rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. (3- rasm)



O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud (1-jadval). Mazkur omillar sifatida, elektron tijorat tizimini rivojlantirish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ular orasida

bog'lanishlar ko'rinishini tadqiq qilish va shu asosda kelgusi davrlarga prognozlash zarur.

Tegishli omillar ta'sirida amalga oshirilgan prognoz natijalaridan ma'lum bo'ladiki, elektron tijoratda tovarlar savdosi hajmi 2023-yildagi 13263800mln. so'mdan 2030-yilgacha bo'lgan davrda, 50152000,6 mln so'mga yetishi, tahlil yillari qariyb 3,1 marta o'sishi kuzatiladi. Axborot va aloqa korxonalari soni ham tegishli davrlarda, 1,5 marta oshadi.

Davr	Elektron tijoratda tovarlar savdosi hajmi, mln.so'm	Axborot va aloqa korxonalari soni, birlik	Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, yil oxiriga; ming birlik	Korxonalar va tashkilotlarda internetga ulangan kompyuterlar soni, yil oxiriga, birlik
2010	3834,4	206	4111	97811
2011	5658,4	932	4895	127600
2012	7482,4	1658	5641	154741
2013	6651,1	2384	6541	188411
2014	8981,1	4110	7814	201541
2015	9962	4836	8339	223907
2016	6033,1	6370	9626,8	271 357
2017	12123,7	6427	11168	310 459
2018	40861,1	6403	13321,7	358 003
2019	273310,7	6975	16386,2	413 417
2020	1002481	7901	19981	441 913
2021	5978660,2	9517	22987	538 933
2022	10886800	10587	26723,6	667 842
2023	13263800	12204	30061	727999

Elektron tijoratda tovarlar savdosining hajmi korxonalar soniga nisbatan yuqori bog'liqlikda o'sish tendensiyasi kuzatilmaydi. Elektron tijoratda tovarlar savdosining hajmining o'sishiga eng yuqori ta'sir etuvchi omil sifatida *internet tarmog'iga ulangan abonentlar soniga bog'liqligi aniqlandi*. Natijalar shundan dalolat beradiki, aholining internet savodxonligini oshib borishi, keng polosalik internet tarmoqlarining rivojlanishi va aholini internet bilan ta'minlash borasidagi ishlarga yuqori e'tibor qaratilishi asosida elektron tijoratda tovarlar savdosining yuqori o'sishi kuzatiladi. Yuqori va quyi ishonch chegaralari ushbu prognozlarning diapazonini ko'rsatadi va prognozlardagi noaniqlik darajasini belgilaydi. Biroq, tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha amalga oshirilgan prognozlarning ichonch chegaralari "Pvalues"ning 0,005 ishonch darajasida olinganligi prognoz natijalarining ishonchli ekanligini asoslaydi.

Xulosa.

Ushbu maqolaning maqsadi elektron tijoratning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashdan iborat edi. Tadqiqotimiz davomida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida empirik tahlillarni va nazariy qarashlarni o'rganib chiqdik. Bu borada izlangan olimlarning ishlarini umumiy lashtirib, elektron tijoratning rivojlanishiga turli xil siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnik omillar ta'sir ko'rsatishini tasnifladik. Bu omillar zamon va makon kesimida ahamiyatlilik darajasi turlicha bo'lishini o'rganib chiqqan tadqiqotlarimiz natijalari ko'rsatmoqda. O'rganilgan omillar asosida aynan O'zbekiston sharoitida e-tijoratning rivojlanishiga ijobiy hamda salbiy ta'sir etgan omillarni ajratib ko'rsatildi va statistik ma'lumotlar asosida kelgusi davrlar uchun prognoz natijalari ma'lum qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni
2. Yuldashev Sh.Q., Usmanova D.Q., Xalikova L.N., German M.V. Elektron tijorat asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2021. <http://new.samdu.uz/public/images/ELEKTRON%20TIJORAT%20VA%20BIZNES%20ASOSLAR.pdf>
3. Yakubov U.Q., Azizova M.I., Jumaniyozova M.Yu. "Elektron tijorat" fanidan o'quv-uslubiy majmua. TMI, 2019. <https://tfi.uz/storage/doc-pages/70/original/cbb0552b51750df771d8daf3745c1ae6993d12bf.pdf>

4. Wigand, Rolf. (1997). Electronic Commerce: Definition, Theory, and Context. *Inf. Soc.* 13. 1-16. 10.1080/019722497129241. 2022-yil
5. Салихова Р.Р. Сущность, факторы и проблемы развития электронной торговли в Рос сии. *Вестник экономики, права и социологии*, 2020, № 2. – Стр. 34–38. <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-factory-i-problemy-razvitiya-elektronnoy-torgovli-v-rossii/viewer>
6. Рыжкова Г.А. Предпосылки и факторы развития электронной коммерции в Украине. ISSN 2074-5370. *Бюлетень Міжнародного Нобелівського економічного форуму*. 2012. № 1 (5). Том 2 – 48 48 RAQAMLI
7. Artikov B. Elektron tijoratni rivojlantirishning dolzarb masalalari. *Infocom.uz*, 2016-yil, <http://uz.infocom.uz/2016/05/26/elektron-tijoratni-rivojlantirishning-dolzarb-masalalari/>
8. Christian Mbayo Kabango, Asa Romeo Asa. “Factors influencing e-commerce development: implications for the developing countries” ISSN 1849-7551 (online) <http://researchleap.com/category/international-journal-of-innovation-and-economic-development-issn-1849-7020-print-issn-1849-7551-online/>
9. Folorunso, Olusegun, Oludare Gabriel, Awe, K. Sushil, and Jeff Zhang. «Factors affecting the adoption of e-commerce: a study in Nigeria». *Journal of applied sciences* 6.10 (2006): 2224-2230. <https://scialert.net/fulltext/?doi=jas.2006.2224.2230>
10. Rodriguez-Ardura Inma, Antoni Meseguer-Artola, Jordi Vilaseca-Requena. “Factors Influencing the Evolution of Electronic Commerce: An Empirical Analysis in a Developed Market Economy”. *J. Theor. appl. electron. commer. res.* [online]. 2008, vol.3, n.2, pp.18-29. ISSN 0718-1876. <http://dx.doi.org/10.4067/S0718-18762008000100003>.
11. Karimov F.P. “Factors Influencing E-Commerce Growth: A Comparative Study of Central Asian Transition Economies”, *International Journal of E-adoption (IJE)* 3(4) – 2011. DOI: 10.4018/jea.2011100103.
12. Waseem A., Rashid Y., Warraich M.A., Sadiq I., Shaukat Z. “Factors affecting e-commerce potential of any country using multiple regression analysis”. *Journal of Internet Banking and Commerce*. ISSN: 1204-5357. <https://www.icommercentral.com/open-access/factors-affecting-ecommerce-potential-of-any-country-using-multiple-regression-analysis.php?aid=87651#1>

13. [http://www.simplynotes.in/e-notes/mbabba/electronic-commerce/factors-affecting-e-commerce-key-drivers-of-e-commerce-forces-fueling-ecommerce/#:~:text=Some%20common%20factors%20are%20political,\(known%20as%20PEST%20analysis\).&text=It%20includes%20the%20role%20of,can%20affect%20e%2Dcommerce%20business.](http://www.simplynotes.in/e-notes/mbabba/electronic-commerce/factors-affecting-e-commerce-key-drivers-of-e-commerce-forces-fueling-ecommerce/#:~:text=Some%20common%20factors%20are%20political,(known%20as%20PEST%20analysis).&text=It%20includes%20the%20role%20of,can%20affect%20e%2Dcommerce%20business.)

14. https://www.wto.org/english/tratop_e/ecom_e/mindec1_e.htm

15. <https://www.eg-online.ru/article/307775/>

16. <https://smallbusiness.chron.com/economic-forces-affect-ecommerce-organizations-76681.html>

17. Official site of Association of the Russian Banks. – URL: www.arb.ru (дата обращения: 26.07.2016).

THE ROLE OF SELF-EDUCATION IN MODERN STUDENT LIFE

Eshqobilova Nozanin

Amanova Sevinch

Salomova Sevara

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Faculty of Philology,
Foreign Language and Literature (English Language Department),
Group 308 students

Annotation

This article explores the increasing significance of self-education for students in the 21st century. It discusses how the rise of digital resources and online platforms has made self-directed learning a crucial supplement or alternative to traditional education. The benefits of self-education, such as flexibility, personalization, and the development of autonomy and confidence, are highlighted. The article also addresses the challenges of self-education, including the need for discipline and the ability to evaluate information. Finally, it considers the future of education, where the boundaries between formal and self-education are becoming increasingly blurred, and the value of self-taught skills in the academic and professional worlds.

Keywords:

Self-education, modern students, digital resources, online learning, flexibility, personalization, autonomy, confidence, challenges, information overload, future of education.

Аннотация

Данная статья исследует растущее значение самообразования для студентов в XXI веке. В ней обсуждается, как развитие цифровых ресурсов и онлайн-платформ сделало самостоятельное обучение важным дополнением или альтернативой традиционному образованию. Подчеркиваются преимущества самообразования, такие как гибкость, персонализация и развитие самостоятельности и уверенности. В статье также рассматриваются проблемы самообразования, включая необходимость дисциплины и умение оценивать информацию. Наконец, рассматривается будущее образования, где границы

между формальным и самостоятельным образованием становятся все более размытыми, а также ценность самостоятельно приобретенных навыков в академической и профессиональной сферах.

Ключевые слова

Самообразование, современные студенты, цифровые ресурсы, онлайн-обучение, гибкость, персонализация, автономность, уверенность, вызовы, информационная перегрузка, будущее образования.

Annotatsiya

Ushbu maqola XXI asrda talabalar uchun o'z-o'zini o'qitishning ortib borayotgan ahamiyatini o'rganadi. Unda raqamli resurslar va onlayn platformalarning rivojlanishi o'z-o'zini boshqaruvchi ta'limni an'anaviy ta'limga muhim qo'shimcha yoki alternativa sifatida qanday shakllantirgani muhokama qilinadi. O'z-o'zini o'qitishning moslashuvchanlik, individuallashtirish, mustaqillik va ishonchni rivojlantirish kabi afzalliklari ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, o'z-o'zini o'qitishning qiyinchiliklari, jumladan, intizomga bo'lgan ehtiyoj va axborotni baholash qobiliyati ham ko'rib chiqiladi. Nihoyat, unda formal va o'z-o'zini o'qitish o'rtasidagi chegaralar tobora xiralashib borayotgan ta'limning kelajagi, shuningdek, akademik va professional sohalarda o'z-o'zini o'rgatish orqali olingan ko'nikmalarning qiymati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar

O'z-o'zini o'qitish, zamonaviy talabalar, raqamli resurslar, onlayn ta'lim, moslashuvchanlik, individuallashtirish, mustaqillik, ishonch, qiyinchiliklar, axborotning haddan tashqari ko'pligi, ta'limning kelajagi.

In the 21st century, the world of education is undergoing rapid transformation. While formal education still plays a significant role, students today are increasingly turning to self-education as a powerful supplement—or even an alternative—to traditional learning. With the rise of digital resources, online platforms, and easy access to global knowledge, self-education has become an essential skill for students striving to stay ahead. Self-education refers to the process of learning independently, outside the boundaries of structured classroom teaching. This practice allows students to explore their interests, improve specific skills, and learn at their own pace. It fosters curiosity, critical thinking, and problem-solving abilities—qualities that are highly valued in both academic and professional environments.


In many cases, traditional education systems are unable to keep up with the fast-paced changes in technology, science, and global markets. As a result, students must take the initiative to keep their knowledge up-to-date. Whether it's learning a new language through apps, studying programming via YouTube tutorials, or reading research articles online, self-education helps students stay relevant and competitive. One of the major benefits of self-education is **flexibility**. Students can choose what, when, and how they learn. This is especially useful for those with tight schedules or part-time jobs. Another key benefit is **personalization**. Unlike a one-size-fits-all curriculum, self-education allows learners to tailor their journey based on their individual strengths, weaknesses, and interests. Moreover, self-education boosts **confidence** and **autonomy**. When students learn something by themselves, they not only understand the topic better but also develop a sense of achievement that motivates further learning.

However, self-education is not without its challenges. A major issue is **lack of discipline**. Without a fixed schedule or guidance, some students may struggle to stay motivated. Setting clear goals, creating a study routine, and using productivity tools can help overcome this. Another challenge is the **overload of information**. The internet is full of content—some useful, some not. Students must learn how to evaluate sources and choose high-quality material. Developing good research skills and digital literacy is crucial in this regard. In the future, the line between formal education and self-education is expected to blur even further. Many universities already offer hybrid courses that combine classroom learning with online self-study modules. Employers too are beginning to value self-taught skills, especially in fields like IT, design, and entrepreneurship. In conclusion, self-education is no longer just an option—it is a necessity for modern students. Those who embrace it will not only perform better academically but will also become more adaptable and prepared for the ever-changing demands of the future world.

References

1. "Mindset: The New Psychology of Success" by Carol S. Dweck
2. "Deep Work: Rules for Focused Success in a Distracted World" by Cal Newport
3. "Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones" by James Clear

4. "The 4-Hour Workweek: Escape 9-5, Live Anywhere, and Join the New Rich"
by Timothy Ferriss
5. "Lifelong Learning: How to Stay Relevant in an Age of Transformation" by
Karl Albrecht
6. Journal of Self-Directed Learning and Education
7. Computers & Education
8. British Journal of Educational Technology
9. Educational Psychology Review

**DAVLAT – XUSUSIY SHERIKCHILIGI FAOLIYATIDA XORIJ TAJRIBASI
VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI****Ilmiy rahbar:****i.f.f.d.(PhD) Ollokulova Feruza Mansurovna***Termiz Davlat Universiteti
Universiteti Iqtisodiyot fakulteti,***Amirova Dilshoda***Termiz Davlat
Magistratura bo'limi Iqtisodiyot yo'nalishi*dilshodaamirova9@gmail.com**+998947883110**

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) modelining xorijiy tajribalari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llanilishi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Xususan, so'nggi yillarda amalga oshirilgan DXSh loyihalari, ularning moliyalashtirish mexanizmlari va davlat tomonidan belgilangan qarz chegaralari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sherikchilik (DXSh), investitsiya, xorij tajribasi, infratuzilma loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, sog'liqni saqlash, energetika, DXSh qonunchiligi, xususiy sektor ishtiroki.

Abstract: This article analyzes the foreign experiences of public-private partnership (PPP) models and explores their applicability in Uzbekistan's economy. Specifically, it examines recent PPP projects, their financing mechanisms, and the debt limits set by the government.

Keywords: Public-Private Partnership (PPP), investment, international experience, infrastructure projects, financing mechanisms, healthcare sector, energy projects, PPP legislation, private sector involvement.

Аннотация: В данной статье анализируются зарубежные практики модели государственно-частного партнерства (ГЧП) и рассматриваются возможности их

применения в экономике Узбекистана. Особое внимание уделяется недавним проектам ГЧП, механизмам их финансирования и установленным государством лимитам долговой нагрузки.

Ключевые слова: Государственно-частное партнёрство (ГЧП), Инвестиции, Международный опыт, Инфраструктурные проекты, Механизмы финансирования, Здравоохранение, Энергетика, Законодательство ГЧП, Участие частного сектора.

Kirish:

DXSh modeli, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalarda samarali va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita sifatida qabul qilinmoqda. Xorijiy tajribalar, ayniqsa, Yevropa va Osiyo DXSh loyihalari, O'zbekistonda DXSH faoliyatlarini rivojlantirish uchun na'muna qilib olishimiz mumkin. O'zbekiston hukumati 2021-yilda DXShni rivojlantirishga qaratilgan qonun qabul qilib, bu sohada sezilarli islohotlarni amalga oshirdi. So'nggi yillarda esa, turli sohalarda DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar soni ortib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan omillar transport, energetika, ijtimoiy infratuzilma va telekommunikatsiya sohalari infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligidandir. Ko'pincha xavf va xarajatlarni etarli darajada aniqlash va baholash yo'q, bu esa loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishining yomonligiga va yirik loyihalarni qabul qilishdan voz kechishga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilishda Jahon amaliyotining eng samarali usullardan biri DXSh munosabatlari asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston yaqin 5 yillikda davlat infratuzilmasini, xususan, energetika va transport sohasini rivojlantirish uchun DXShdan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga kirishdi.

Asosiy qism:

Xorijiy tajribalarda DXShning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Muvaffaqiyatli model: Helios Towers kompaniyasining Afrika bozorida telekommunikatsiya minoralari bo'yicha amalga oshirgan DXSh loyihasi, davlat tomonidan ajratilgan kichik mablag'lar orqali xususiy sektorni jalb qilishda muvaffaqiyatli misol bo'la oladi.

Samarali moliyalashtirish: Loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi balansli hamkorlik, xususan, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar taqdim etilishi, investorlar ishonchini oshiradi.

Texnologik innovatsiyalar: Yangi texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv tizimlarini yaratish orqali loyihalarning muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin.

Rossiya olimlari asarlarida S. V. Shishkina, M. Ya. Mirkina va boshqalar "DXSh" atamasini quyidagicha izohlaydi: "Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan shaklidir. Davlat va xususiy mulk, muassasalar va korxonalar tomonidan iqtisodiy faoliyatning keng doirasi bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan va ko'rsatiladigan xizmatlar". V. G. Varnavskiy davlat-xususiy sheriklik ta'rifini quyidagicha beradi: - "DXSh – bu davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek davlat va munitsipal organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan bajariladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ta'sir shaklini birgalikda moliyalashtirish va xatarlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan ma'lum muddatga qonuniy ravishda mustahkamlangan". Umumiy olib aytganda, Davlat-xususiy sherikchilik bu – Davlat va muayyan sektor tomonidan davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda yoki modernizatsiya qilish uchun ikki tomonlama tuzilgan aniq muddatli shartnomadir.

O'zbekistonda DXSh asosida amalga oshirilgan ba'zi loyihalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sog'liqni saqlash sohasi: IFC bilan hamkorlikda Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida yangi ko'p tarmoqli shifoxonalar qurilishi rejalashtirilgan. Bu loyiha, davlatning sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Energetika sohasi: Qoraqalqog'istonda 200 MW quvvatga ega shamol elektr stansiyasining qurilishi, Saudiya Arabistoni kompaniyasi ACWA Power tomonidan amalga oshirilmoqda. Loyiha, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Suv ta'minoti va kanalizatsiya: Namangan viloyatida kuniga 100,000 kub metr hajmga ega bo'lgan kanalizatsiya tozalash inshooti qurilishi, Metito kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Loyiha, suv ta'minoti va sanitariya sohasida davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat tomonidan DXSh loyihalarini moliyalashtirish uchun \$5.5 milliard miqdorida yillik qarz chegarasi belgilangan. Bu, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora sifatida ko'rilmogda. Iqtisodiy o'sish va aholining o'sishi davlatdan yo'l tarmog'ini tegishli ravishda rivojlantirishni, energiya quvvatini oshirishni, yangi suv ta'minoti va chiqindilarni qayta ishlash ob'ektlarini qurishni, bu sohalarda turli xil imtiyozli kriditlar joriy qilishni va boshqalarni talab

qildi. Shu o`rinda DXSh tizimi eng yaxshi rivojlangan davlatlarning faoliyatini ko`rib o`tamiz. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlari dunyoning ko'plab mamlakatlari, jumladan Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Australia, Germaniya va Rossiya tomonidan keng qabul qilingan. Ushbu mamlakatlar modelni o'zlarining individual iqtisodiyoti va ehtiyojlariga moslashtirdilar, ammo DXSh ortidagi umumiy tushuncha bir xil bo'lib qolmoqda. DXSh tizimining samaradorligi tahlili Buyuk Britaniyada 1980-yillarda qabul qilingan xususiy moliya modeli 2018-yilda bekor qilinmaguncha, o'z faoliyati davomida 56 milliard funt sterlingga yaqin xususiy investitsiyalar bilan 700 dan ortiq DXSh loyihalarini jalb qildi. Mamlakat G'aznachiligi 2028 yilgacha infratuzilma rejasini tasdiqladi, unda 600 milliard funt sterling miqdoridagi investitsiyalar ko'zda tutilgan, shundan 50 foizi DXSH orqali jalb qilinishi kerak. 2017-2021 yillarda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya 2000 dan ortiq loyihalarga ega bo'lgan infratuzilmada loyihalar soni va jalb qilingan mablag'lar hajmi bo'yicha Yevropa bozorida yetakchilardan biri hisoblanadi.

Bu davrda umumiy qiymati qariyb 7,5 milliard yevroga teng 30 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Qo'shma Shtatlarda Federal hukumat DXShlarni rivojlantirishda faol rol o'ynadi. Masalan, AQSh transport departamenti shtat hukumatlariga ham, mahalliy hokimiyatlarga ham transport DXShlarini rivojlantirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, u transport loyihalarini amalga oshirishga yordam beradigan qo'shma korxonalar yaratish uchun xususiy kompaniyalar bilan ishlaydi. Barcha darajadagi DXShlarni samarali rivojlantirish uchun yaratilgan Milliy Kengash ma'lumotlariga ko'ra, AQShning DXSh mexanizmi orqali amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari 200 yildan oshgan. Hozirda 1000 ga yaqin loyiha ishlamoqda. Kanadada DXSh turli sxemalar bilan ifodalanadi, ularga ko'ra joriy davrda umumiy qiymati qariyb 110 milliard AQSh dollariga teng 250 dan ortiq yirik infratuzilma loyihalari boshlangan va bu loyihalardan davlat g'aznasiga byudjet daromadlari har bir investitsiya qilingan dollar uchun Loyiha 3,6 AQSh dollarini tashkil etadi. Hozirda Kanadaga investitsiya qilish bo'yicha yirik infratuzilma rejasi amalga oshirilmoqda, kelgusi 12 yil ichida ijtimoiy infratuzilmaga jami 187 milliard dollar sarmoya kiritiladi. Xitoyda 2014 yildan 2022 yil aprel oyigacha ma'lumotlar bazasiga jami 10304 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularda 16,4 trillion yuan sarmoya kiritildi, jami 7835 ta loyiha imzolandi, 12,9 trln. 8,3 trillion yuan sarmoyasi bilan qurilishni boshladi va ish stavkasi (qurilish loyihalariga investitsiyalarning kutubxonaga kiritilgan loyihalarning umumiy investitsiyalariga nisbati 50,6% ni tashkil qiladi. Frantsiyada faqat "Sheriklik shartnomasi"(Marché de partenariat) sxemasi bo'yicha loyihalarga kiritilgan sarmoyalar miqdori 40 milliard evrodan oshadi va turli xil shakllar soni imtiyozlar va

shunga o'xshash tuzilmalar ("délégations de service public") 15000 dan oshadi. Evropa DXSh rivojlanish markazining hisob-kitoblariga ko'ra, DXSh loyihalarining Frantsiyadagi infratuzilma investitsiyalarining umumiy hajmidagi ulushi 12% ga etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yildan 2021 yilgacha Frantsiyada 80 ga yaqin PPP loyihalari amalga oshirilgan umumiy qiymati 13 milliard evrodan ortiq. Shunday qilib, Frantsiya ushbu ko'rsatkich bo'yicha so'zsiz etakchi hisoblanadi

Xulosa va Takliflar:

O'zbekistonda DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar, ayniqsa, muvaffaqiyatli moliyalashtirish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali loyihalarning samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. O'rganilgan ma'lumotlar asosida yetakchi xorijiy davlatlarda DXShning muvaffaqiyatli ishlashi uchun belgilangan mezonlar asosida O'zbekiston Respublikasi DXSh tizimini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish mumkin: 1. Boshqaruv va iqtisodiy mutaxassisliklar va ixtisoslashtirilgan kompetentsiyalar bo'yicha zarur malakaga ega bo'lgan DXSh loyihalarini amalga oshirish va boshqarish sohasida vakolatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash. 2. Loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini oshirish. O'zbekistondagi DXSh tizimi hozirda ko'p jihatdan davlat mablag'lariga tayanadi, xususiy moliyalashtirish manbalaridan kamdan-kam foydalaniladi. DXSh loyihalarini yanada muvaffaqiyatli qilish uchun xususiy moliyalashtirishni rag'batlantirish kerak. 3. Loyihalar bo'yicha mavjud eng yaxshi va maqbul yechimlar asosida DXSh loyihalarini amalga oshirish natijalarini monitoring qilish tizimini yaratish.

Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish: DXSh loyihalarini moliyalashtirishda davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar va kafolatlar miqdorini oshirish, investorlar ishonchini oshirishga yordam beradi.

Texnologik innovatsiyalarni qo'llash: Loyihalarda yangi texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyevning-oliyas>, 28.12.2018
2. Айрапетян М. С. Зарубежный опыт использования государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство в России: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ppp-russia.ru/>
3. analitica/item-1.html.

4. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi" dagi qonun.
<https://lex.uz/docs/-4329270>
5. Global Infrastructure Hub. URL: <https://www.github.org> (Accessed 16.06.2022).
6. "President of Uzbekistan approves PPP projects until 2030." UzDaily. 2024.
Ташкент Таймс+5UzDaily.uz+5UzDaily.uz+5
7. "Uzbekistan secures \$312mn from 25 PPP agreements in 1Q24." Daryo News. 2024. Daryo.uz+1UzDaily.uz+1
8. "Six regional airports to be renovated on a PPP basis by 2030." Kun.uz. 2023.
Daryo.uz+6Kun.uz+6Азизов и Партнеры+6
9. "Uzbekistan announces \$1.3 bln in waste-to-energy projects." Reuters. 2024.
Daryo.uz+3Рейтер+3UzDaily.uz+3
10. "It is planned to draw \$14 billion to PPP projects by 2026, says Deputy Investment Minister." Tashkent Times. 2022. [Газета.уз+2Ташкент Таймс+2Ташкент Таймс+2](#)
11. "PPP project for 2024-2030 in Uzbekistan." Azizov & Partners. 2024.

**O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH.****Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana**

Termiz davlat pedagogika institute

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası

o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar dunyo higozida qanday talqin qilinayotganligi hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog'liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash tizimi islohoti, tibbiy ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilmasi, telemeditsina, profilaktika va sog'lomlashtirish, xalqaro hamkorlik

Abstract: This article provides information on how Uzbekistan's health care, reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.

Keywords: healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы.

Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества. Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Kirish.

Mustaqillik yilarida O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasi va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, tibbiyot

sohasini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan sogliqni saqlash tizimida qilingan ishlar muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli biz mazkur tadqiqotda tibbiyot sohasining muhim va asosiy bo'g'ini hisoblangan qishloq vrachlik punkti va tez tibbiy yordam hodimlari faoliyatini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'ydik. Shuningdek maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridagi respublikadagi aholi salomatligining umumiy holatlarini islohatlardan keyingi jarayonlar bilan aniq tahlillar asosida qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek olingan tahlil natijalari asosida tibbiyot sohasi hodimlarining ish samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

So'ngi yillarda dunyoda atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolar, globallashuv jarayoni, turli xil epidemiya va viruslarning yangi turlari tarqalayotganligi bugungi kunda dunyo mamlakatlarida xususan respublikamizda sog'liqni saqlash sohasiga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Jismonan sog'lom, teran fikrlaydigan fuqarolar mamlakat tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishga jiddiy kirishilgan. Hukumatimiz bu borada ko'plab xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan ko'p yillarga mo'ljallanga dasturlar asosida ish olib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu hamkorlik natijasida qator ijobiy natijalarga erishildi, xususan onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik, sil kasalligigi va boshqa ko'plab kasalliklarga qarshi kurashish yuzasidan qator ijobiy natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng boshqa sohalar kabi sog'liqni saqlash sohasida ham qator ijobiy yangiliklar amalga oshirildi. Tibbiyot sohasida ham yangi davrga qadam qo'yildi. Sho'rolar davridan qolga sog'liqni saqlash tizimi sohada bir qancha muammolar yig'ilib qolganligini ko'rsatdi. Yosh mustaqil davlat o'z oldiga ijtimoiy sohada shu jumladan birinchi galda sog'liqni saqlash sohasidagi nuqson va kamchiliklarga chek qo'yish hamda bu sohani yangi yuqori bosqichga ko'tarish choralarini ko'rishga kirishdilar. Shu sababga ko'ra mazkur sohaga oid jarayonlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga doir qator maqolalar 1 va ilmiy ishlar 2 nashr etildi. Bu davrdagi adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ko'pchilik tadqiqotchilar e'tibori asosan xalq tabobatini o'rganishga qaratilgan. Ushbu soha bir guruh tarixchi olimlar tomonidan tarixiylik nuqtai nazaridan ham tadqiq etildi. Ular tomonidan sohaning XIX asrning oxirgi choragi va sovet davri tarixi bo'yicha izlanishlar olib borgan. Ta'kidlash joizki,

XIX-XX asr tarixi o'rganilib, asosiy e'tibor sog'liqni saqlash tizimining yo'lga qo'yilishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, sanitariya-epidemiya xizmati kabi muassasalarga qaratilgan. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining mustaqillik davri tarixiga doir ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, sohaning sovet davri tarixi o'rganilgan bo'lsada, uning keyingi yillardagi tarixi maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan. Umuman, murojaat etilgan tadqiqotlarda mazkur yo'nalishning u yoki bu jihatlari qamrab olinganligi va ular butun tizim tarixini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ham ta'kidlash lozimdir. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida va keyingi davrlarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tashkil etishning huquqiy asoslarining mustahkamlanib borishi mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: olib borilgan chora tadbirlar natijasida respublikadagi sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyati ko'rsatkichlari yil sayin yaxshilanib borganligi, ayniqsa mustaqillikning dastlabki yillarida kuzatilgan kasallanishlar sonining kamayib, shifoxonalar va poliklinikalar sonining esa ko'payib borganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu sohaning tarixi va nazriyasiga doir ilmiy jihatdan tan olingan qarashlardagi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining mustaqilik davri tarixini tadqiq etishda va o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy-metodik jihatlar aniqlangan. XX asrning 80-yillari oxirlarida mintaqada yuzaga kelgan keskin ekologik vaziyat tufayli mamlakatda o'tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi jarayoni ortdi. Bu davrda o'tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi kengayib bordi. Xususan 1990 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, 100ming aholi soniga nisbatan hisoblaganda qorin tifi kasalligi 7,6, paratiflar 4,8, salmonellez 36,5, poliometit (qoqshol) kasalligi 42, qizamiq 19,1, o'tkir yuqumli ichak kasalligi 604,8, virusli gepatitlar 848,4 tani tashkil etgan edi. Bundan tashqari brutsellez kasalligi bilan og'rish 950 taga, bo'g'ma kasalligining soni 12tani, kuydurgu 13taga oshgan. Bundan tashqari tabiatdagi salbiy o'zgarishlar ta'siri ostida 1980 yildan boshlab 1991 yilga qadar kamqonlik bilan hastalanish 550 barobar ortdi va 10ming

aholi hisobiga 1160 kishi darajasiga yetdi. Bu ko'rsatkich Rossiyada ikki uch xolatgagina to'g'ri kelardi. Qon bosimining oshish kasalligi keyingi yigirma yilda 60 barobar, jigar toshi va siydik toshi bilan kasallanishlar soni 7 barobar oshgan. O'lim va kasalliklar darajasining nihoyatda yuqori ekanligidan ko'rishimiz mumkinki, endilikda inson organizmi ekologik holatlar vujudga keltirayotgan zarbalarga dosh berolmay qoldi. Shu va boshqa sabablar insonlar sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazdi, millat genofondining yomonlashuvini keltirib chiqardi, hamda mamlakatimiz miqyosida sog'liqni saqlash sohasiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Tibbiyot sohasidagi jiddiy kamchiliklardan biri shunda ediki "Sog'liqni saqlash" deb nomlangan eski tizimda tibbiyot xodimlari moddiy manfaatdor emas edilar. Bu holat esa aholiga tibbiy yordam ko'rsatish ishiga salbiy ta'sir etardi. Tibbiyot xodimlari o'zlariga belgilab qo'yilgan maoshdan tashqari hech qanday daromad manbaiga ega emas edilar. Tibbiyot xodimlariga mehnat haqqi to'lashda har bir vrachni tajribasi va bilim darajasi inobatga olinmay, shu vrach ishlayotgan sohadagi tibbiy xodimlar uchun belgilab qo'yilgan darajada maosh to'lanardi. Bu esa shifokorlar orasida loqaydlik va ishchanlik qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Shu sabablar ham bizning tibbiyotimiz G'arbiy Yevropa tibbiyotidan orqada qolishiga olib keldi. Mustaqikkacha bo'lgan davrda mamlakatimizda ilmiy-nazariy tibbiyot ham yetarli darajada rivojlanmagan edi. Biz jahon tibbiyoti yutuqlaridan to'g'ridan to'g'ri tanishish imkoniyatiga ega emas edik.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tibbiyotimiz to'g'ridan to'g'ri chet el tibbiyoti bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Chet el tibbiy muassasalari bilan hamkorlikda ishlay boshladilar. Mustaqillikka erishilgandan keyin hukumatimiz tomonidan ko'plab sohalar singari sog'liqni saqlash sohasida ham qator islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu sohada dastlab, 1992 yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad sanitariya-epidepiya masalalarida aholini muhofaza qilish hamda insonlarni qulay atrof muhitda yashash huquqining kafolati bo'ldi. Shuningdek ushbu qonun sanitariya epidemiologiya sohasini takomillashtirish, sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida muhim qadam bo'ldi. 1996 yil 29-avgustda "O'zbekiston Respublikasi fuqrolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalar belgilab qo'yilgan edi. Xususan ushbu qonunda fuqrolarning sog'ligini saqlashga doir quyidagi asosiy tamoillar keltirib o'tilgan edi.

- Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi

- Profilaktika chora tadbirlarining ustunligi.
- Sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi.
- Tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining strukturasi va vakolatlari ham belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri ushbu sohani isloh qilish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10- noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi maxsus farmoni chiqarildi. Mazkur qonunni respublika sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, huquqshunos, olim va shu sohaga daxldor tashkilotlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash davlat dasturi ishlab chiqildi. Farmonda aytilishicha, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash shuningadek, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash uchun tibbiyot muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash ko'zda tutilgan edi. Dasturda sog'liqni saqlash tizimining quyidagi kondensiyasi tavsiya etilgan edi: bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan hamda byudjetdan moliyalanadigan davolash profilaktika muassasalarini shakllantirish, qishloq vrachlik punktlarining tarmog'ini kengaytirish, tibbiyot hodimlarining malaka va toifalarini oshirib borish, shu maqsadda tibbiyot bilim yurtlarini kasbhunar kollejlariga aylantirish ko'zda tutilgan. Dasturda tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha bir nechta tibbiy tashkilotlar negizida Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatining mintaqaviy filiallarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Farmonda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi va joylardagi filiallari malakali mutahassislar bilan to'ldirilsin deyilgan. So'nggi yillarda tez va shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi: O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 21.05.2009 yil PF1114-sonli "Tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni va 2011 yil 28-noyabrdagi PQ 1652-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Ushbu xujjatlarda shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati samaradorligini, xizmatlar tezkorligi va sifatini oshirish vazifasi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu qaror va farmonlar natijasi o'laroq Respublikamizda shoshilinch tez tibbiy yordam markazlari va bo'limlari faoliyati kengaytirildi, sifati va moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra shoshilinch tez tibbiy yordam markazlarida yotib davolanib chiqqanlar soni ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Bu raqamlar albatta Respublikada shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining takomillashib

borganligi, yangi davolanish binolari va tez yordam brigadalarining tashkil etilganligi, xizmat ko'rsatish sifatining ortib borganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi qaror va farmonlar ijrosi natijasida Respublikada 2012 yil boshiga kelib 3196 ta qishloq vrachlik punktlari faoliyat yuritayotgan 8 bo'lib, ular negizida chekka qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish punktlari ochildi. Mazkur sog'liqni saqlash muassasalarida aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatilib, ular bilan profilaktik jarayonlar ham amalga oshirib borildi. Xulosa va takliflar. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sog'liqni saqlash sohasini isloh qilinishi natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning viloyat shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari binolari qayta ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko'lamlı islohotlar natijasida mavjud qishloq vrachlik punktlari o'rnida qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida shifokorlarning ish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda oltita tor soha mutahasislari pediatr, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta'mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda tez tibbiy yordam shahobchalarining poliklinikalarga ko'chirilganligi ham tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohatlar bugungi kunda o'zining dolzarbligini ko'rsatib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-ro'yxat , 82-yig'ma jild, 11-varaq.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89.
3. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet. 3 O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M372-fond, 1-ro'yxat , 82-yig'ma jild, 11-varaq.
- 4 Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89. 4. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2010 yil. – B.15 6. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi

SANOAT KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA ORQALI MAHSULOT EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI.

Olokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti , i.f.f.d.(PhD)

Omonova Nafisa Qahramon qizi

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot bo'limi magistranti

nafisaomonova0112@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonolari faoliyatini diversifikatsiyalash orqali mahsulot eksportini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil etilgan. Diversifikatsiyalash sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi eksport bozorlariga chiqish va mavjud bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, maqolada eksport salohiyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy sharoitlar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tahlillar asosida korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, mahsulot turlarini ko'paytirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport hajmini oshirishga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Maqolada ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, sanoat korxonolari, diversifikatsiya, eksport salohiyati, mahsulot eksporti, raqobatbardoshlik, strategik rivojlanish, iqtisodiy xavflar.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, ularning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatiga va tashqi bozorlarga moslashuvchanligiga bog'liq. Global iqtisodiy muhitda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar, xalqaro savdo munosabatlarining kengayib borishi hamda iste'molchilar ehtiyojining o'zgarib turishi sanoat korxonalaridan yangi yondashuv va strategiyalarni talab etmoqda. Shunday sharoitda, diversifikatsiyalash – ya'ni ishlab chiqarish va mahsulot turlarini kengaytirish, faoliyat yo'nalishlarini yangilash orqali ichki va tashqi bozor talabiga moslashish muhim

ahamiyat kasb etadi. Diversifikatsiya jarayoni sanoat korxonalariga iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, eksport faoliyatining kengaytirilishi mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda, milliy valyuta barqarorligini saqlashda va yangi ish o'rinlarini yaratishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash orqali mahsulot eksportini oshirish masalasi ko'rib chiqilib, bu boradagi mavjud muammolar, ularni hal etish yo'llari hamda amaliy takliflar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

Sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarda alohida o'rinni egallab kelmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlar sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda diversifikatsiya jarayonining muhimligini ta'kidlab o'tgan. Mahalliy tadqiqotchilar – X. Xakimov, B. Axmedov, M. Narzikulovlar o'z ishlarida diversifikatsiyalash korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa mahsulot turlari ko'pligi eksport bozorlari bilan faol integratsiyalashuvga olib kelishini qayd etishgan. Shuningdek, xorijiy olimlardan M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasi, P. Druckerning strategik boshqaruv tamoyillari va K. Obsfeldning eksportni rivojlantirishdagi monetar siyosatga oid qarashlari diversifikatsiya masalalariga bevosita aloqador. Bu adabiyotlarda korxonalar darajasida bozor ehtiyojlariga moslashish, mahsulot turlarini yangilash va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Shunga qaramay, ushbu mavzu bo'yicha kompleks yondashuv, ayniqsa O'zbekiston sanoat korxonalarining diversifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ularning amaliy natijalarini tahlil qilish borasida ilmiy izlanishlar yetarli emas. Shu bois, ushbu maqola mavjud nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni sintez qilish orqali mavzuni chuqurroq ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida iqtisodiy tahlil, solishtirma tahlil, statistik usullar va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanilgan. Dastlab, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlil qilinib, diversifikatsiya va eksport faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Keyinchalik, ayrim sanoat korxonalarining faoliyat ko'rsatkichlari o'rganilib, diversifikatsiya jarayonining eksport hajmiga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Bundan tashqari, SWOT-tahlil orqali korxonalar faoliyatidagi kuchli va zaif jihatlar, imkoniyatlar va tahdidlar

aniqlangan. Maqolada statistik ma'lumotlardan foydalangan holda eksport ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar dinamikasi va diversifikatsiyaning bu boradagi roliga baho berilgan. Shuningdek, so'rovnoma va intervyu usullaridan foydalanib, sanoat korxonalarini rahbarlari va mutaxassislarining fikrlari o'rganilgan va natijalar asosida tegishli xulosalar chiqarilgan.

Asosiy qism:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash va barqaror daromad manbalarini yaratishda mahsulot eksportining hajmi va sifati muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda, eksport imkoniyatlarini kengaytirishning eng samarali usullaridan biri — korxonalar faoliyatini diversifikatsiyalashdir. Bu strategik yondashuv korxonalariga yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va yangi tashqi bozorlarga chiqish imkonini beradi. O'zbekiston sanoatida bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2024-yilda Respublikada umumiy sanoat ishlab chiqarishi 110,2 trln so'mga yetdi, eksport esa 1,14 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar mahsulot turining kengaygani, ya'ni diversifikatsiyalashganini ko'rsatadi. Xususan, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati kabi yo'nalishlarda mahsulot turlari ko'payib, xorijiy talabga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Diversifikatsiya jarayoni nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sonining ko'payishiga, balki ularning sifati va qo'shimcha qiymatining oshishiga ham sabab bo'ladi. Misol uchun, elektr jihozlari va qurilish materiallarining eksporti 2023-yilga nisbatan 15 foizga oshgan bo'lsa, 2025-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich yana 10-12 foizga ko'tarilishi kutilmoqda. Bu esa sanoat tarmoqlarining eksport salohiyati mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Diversifikatsiyaning iqtisodiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Annotatsiya: Ushbu maqolada nosimmetrik kriptotizimlarda kalitlar xavfsizligini ta'minlashda muhim bosqich bo'lgan tub sonlarni generatsiya qilish muammosi tahlil qilinadi. Tub sonlarning taqsimlanishi va chastotalari matematik jihatdan tadqiq qilinadi hamda bu asosda kalit kriptobardoshligini oshirish uchun rekursiv yondashuvga asoslangan yangi metod taklif etiladi. Fibonachchi ketma-ketligi, primitiv rekursiv funksiyalar va signum funktsiyasi asosida algoritmik yechim ishlab chiqiladi. Taklif etilgan usulning matematik asoslari va nazariy afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: nosimmetrik kriptotizim, tub sonlar, chastota, rekursiv funksiyalar, Fibonachchi, kalit xavfsizligi, kriptobardoshlik.

Nosimmetrik kriptotizimlar – zamonaviy raqamli xavfsizlikning tayanchidir. Bu tizimlarda ishlatiladigan kalitlarning xavfsizligi ko'pincha katta tub sonlarning ishonchli generatsiyasiga bog'liq. Tub sonlarning tabiiy sonlar to'plamida notekis taqsimlanganligi sababli, ularni yaratish jarayoni ehtimolli bo'lib qolmoqda. Shuning uchun matematik asoslangan yangi metodologiyalarni joriy qilish zarur. Ushbu maqolada tub sonlarning chastotasini aniqlash orqali ularni generatsiya qilishda foydalaniladigan matematik model asoslanadi va rekursiv yondashuv orqali kalitning kriptobardoshligini oshirish imkoniyati ko'rib chiqiladi.

Sonni tubligini aniqlovchi ko'pgina usullar va algoritmlarning tadqiqi shuni ko'rsatdiki, tub sonlarni generatsiya qilishda qo'llaniladigan barcha algoritmlar ma'lum ehtimollik bilan tub sonni hosil qiladi va ular hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tub sonlarni generatsiya qilish nosimmetrik kriptotizimlarni loyihalashda asosiy bosqichlardan biri bo'lib, ular asosida modul arifmetikasining hal qiluvchi elementi - moduli shakllantiriladi.

Natural sonlar to'plamida tub sonlar notekis taqsimlangan bo'lib, sonlar qiymati ortib borgan sari u diapazondagi tub sonlar soni kamayib boradi. Quyidagi 1-jadvalda

uzunligi 100 ta sonni o'z ichiga olgan turli diapazondagi mavjud tub sonlarining soni keltirilgan

1-jadval

Turli diapazondagi mavjud tub sonlarning soni

Diapazoni	Tub sonlar soni
1-100	25
100-200	21
200-300	16
300-400	16
400-500	17
500-600	14
600-700	16
700-800	14
800-900	15
900-1000	14
1000-1100	16
1100-1200	12
1200-1300	15
1300-1400	11

Endi tub sonlarning paydo bo'lish chastotasining sonli oraliq uzunligiga bog'liqligini ko'rib chiqamiz. Tub sonlarni paydo bo'lish chastotasini ketma-ket hisoblash sxemasida qaralayotgan oraliq uzunligini o'sha oraliqda uchraydigan tub sonlar soniga bo'lib topiladi. Masalan, 1 dan 100 gacha bo'lgan birinchi diapazonni qaraydigan bo'lsak, bu yerda uchraydigan tub sonlar miqdori 25 edi, demak, chastotani v bilan belgilaydigan bo'lsak, birinchi diapazondagi tub sonning paydo bo'lish chastotasi $v = \frac{25}{100} = 0,25$ ga teng bo'lar ekan. 1-200 gacha bo'lgan ikkinchi sonli

diapazonni ko'radigan bo'lsak, unda tub sonning paydo bo'lish chastotasi $v = \frac{25+21}{100+100}=0,23$ ga teng bo'ladi. 1-300 gacha bo'lgan uchinchi sonli diapazonni ko'radigan bo'lsak, unda tub sonning paydo bo'lish chastotasi $v = \frac{25+21+16}{100+100+100}=0,21$ ga teng bo'ladi va hokazo davom ettirsak, quyidagi 2-jadvalni hosil qilamiz.

2-jadval

Tub sonlarning paydo bo'lish chastotalari

Diapazoni	Tub sonlar soni	Umumiy soni	Chastotasi
1-100	25	25	0,25
1-200	21	46	0,23
1-300	16	62	0,206667
1-400	16	78	0,195
1-500	17	95	0,19
1-600	14	109	0,181667
1-700	16	125	0,178571
1-800	14	139	0,17375
1-900	15	154	0,171111
1-1000	14	168	0,168
1-1100	16	184	0,167273
1-1200	12	196	0,163333
1-1300	15	211	0,162308
1-1400	11	222	0,15871

Yuqorida keltirilgan jadvallarni tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- tub sonlarni paydo bo'lish chastotasining eng katta qiymati 0,25 ga teng bo'lib, unga birinchi diapazonda erishiladi;
- tub sonlarni taqsimlanishida hech qanday qonuniyat ko'zga tashlanmaydi;

- oraliq uzunligi ortib borishi bilan undagi tub sonlar miqdori ham ortib boradi;
- oraliq uzunligi ortib borishi bilan unda tub sonlarni uchrash chastotasi kamayib boradi.

Nosimmetrik kriptotizimlarda kalit generatsiya qilish masalasi katta tub sonlarni generatsiya qilish masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi tufayli, bu natural sonlar to'plamida tub sonlarni taqsimlanishi muammosini o'rganishni talab etadi.

Rekursiv funktsiya (lotincha rekursio - qaytarish) – bu sonli argumentning sonli funktsiyasi bo'lib, funktsiyaning ko'rinishida funktsiyaning o'zidan foydalaniladi. Ya'ni bunda $f(n)$ ni hisoblash uchun $f(n-1), f(n-2), \dots$ dan foydalaniladi. Ixtiyoriy p uchun hisoblash yakunlanishi uchun ba'zi bir p lar uchun funktsiyaning qiymati rekursiv bo'lmasdan aniqlanishi talab qilinadi (masalan $n=0, 1$ uchun).

Rekursiv funktsiyaga misol qilib Fibonachchi sonining n - hisoblovchi quyidagi funktsiyani ko'rish mumkin:

$$F = \begin{cases} F(0) = 1; \\ F(1) = 1; \\ F(n) = F(n-1) + F(n-2), & n > 1. \end{cases}$$

Ushbu keltirilgan formuladan foydalanib $F(n)$ ni qiymatini ixtiyoriy n natural son uchun chekli qadamda topishi mumkin. Bunda kerakli qiymatni topish uchun $F(n-1), F(n-2), \dots, F(2)$ qiymatlarni hisoblash kerak bo'ladi.

Rekursiya - bu funktsiya berishning shunday usuliki, bunda argumentning ixtiyoriy qiymati uchun aniqlanuvchi funktsiyaning qiymati muayyan usulda aniqlanayotgan funktsiyaning kichik argumentlari orqali ifodalanadi. Primitiv rekursiya umumiy rekursiyaning eng oddiy ko'rinishlaridan biridir.

Ta'rif. Faraz qilaylik, $\alpha_1(x), \dots, \alpha_s(x)$ barcha yerda aniqlangan funktsiya bo'lib, x ning barcha qiymatlarida quyidagi shartlarni qanoatlantirsin: $\alpha_i(x+1) \leq x$ ($i=1, \dots, s$).

$f(x_1, \dots, x_{n+1})$ funktsiya $g(x_1, \dots, x_n), h(x_1, \dots, x_n, y, z_1, \dots, z_s)$ funktsiyalardan va yordamchi funktsiya $\alpha_1, \dots, \alpha_s$ dan rekursiya qaytarilishi yordamida hosil qilinadi deyiladi, agar x_1, \dots, x_n, y o'zgaruvchilarning barcha qiymatlari uchun

$$f(x_1, \dots, x_n, 0) = g(x_1, \dots, x_n),$$

$$f(x_1, \dots, x_n, y+1) = h(x_1, \dots, x_n, y, f(x_1, \dots, x_n, \alpha_1(y+1)), \dots, f(x_1, \dots, x_n, \alpha_s(y+1))).$$

Teorema. Barcha yerda aniqlangan $g(x_1, \dots, x_n), h(x_1, \dots, x_n, y, z_1, \dots, z_s)$ funktsiyalardan va yordamchi funktsiya $\alpha_1, \dots, \alpha_s$ dan hosil bo'luvchi f funktsiya yuqoridagi ta'rifda keltirilgan shartlarni qanoatlantirsa, qaytarilish rekursiyasi yordamida o'sha funktsiya $g(x_1, \dots, x_n), h(x_1, \dots, x_n, y, z_1, \dots, z_s)$ funktsiyalardan va yordamchi funktsiya g, h, α_i va sodda funktsiyalar $0, s, I_m^n$ o'rinlashtirishlar operatsiyalari va primitiv rekursiya olinishi mumkin.

Tahlilda ba'zan $sg\ x$ (signum x) funktsiyasidan foydalaniladi. Bu funktsiya x ning haqiqiy musbat qiymatlari uchun $+1$, haqiqiy manfiy qiymatlari uchun -1 ga va $x=0$ uchun 0 qiymatga ega bo'ladi. Bu funktsiyani faqat x ning natural qiymatlari uchun ko'radigan bo'lsak, u quyidagicha aniqlanadi:

$$sg\ x = \begin{cases} 0, & \text{agar } x = 0 \\ 1, & \text{agar } x > 0. \end{cases}$$

Quyidagicha aniqlanuvchi \overline{sg} funktsiyani kiritamiz:

$$\overline{sg} = \begin{cases} 1, & \text{agar } x = 0 \\ 0, & \text{agar } x > 0. \end{cases}$$

\overline{sg} funktsiya $1 - sg$ bilan ustma-ust tushadi.

sg va \overline{sg} funktsiyalar primitiv rekursiv sxemalarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} sg\ 0 &= 0, & \overline{sg}\ 0 &= 1, \\ sg\ (x+1) &= 1, & \overline{sg}\ (x+1) &= 0 \end{aligned}$$

Misol sifatida $0, 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, \dots$ sonli ketma ketlikni keltirish mumkin, bu ketma-ketlik Fibonachchi ketma-ketligi nomi bilan mashhur. Bu ketma-ketlikning uchinchi hadidan boshlab barcha keyingi hadlari undan oldin keladigan ikkita hadning yig'indisiga teng. Agar fibonachchi sonli ketma-ketligining p -hadini $F(p)$ bilan belgilasak, u holda $F(0)=0, F(1)=1, F(p+2) = F(p) + F(p+1)$ yoki $F(0)=0, F(p+1) = F(p) + F(p-1) + \overline{sg}n$ hosil bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, $F(p)$ funktsiya $g(x) = 0, h(x, y, z_1, z_2) = \overline{sg}u + z_1 + z_2$ funktsiyalardan va yordamchi funktsiyalar $\alpha_1(y)=y-1, \alpha_2(y)=y-2$ qaytish rekursiyasi yordamida hosil bo'ladi. Bu yerda qo'llanilgan barcha funktsiyalar primitiv rekursiv bo'lgani uchun F ham primitiv rekursiv bo'ladi.

Tub sonlarning notekis taqsimlanganligi nosimmetrik kriptotizimlarda kalit xavfsizligini zaiflashtiradi. Ushbu maqolada taklif etilgan rekursiv model bu muammoni hal qilish uchun muhim yechim hisoblanadi. Primitiv rekursiv funktsiyalar va Fibonachchi ketma-ketligidan foydalanish orqali ishonchli, barqaror va boshqariladigan kalitlar generatsiyasi mumkin. Kelgusida bu yondashuv real tizimlarda testdan o'tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alferov A.P., Zubov A.Yu., Kuzmin A.S., Cheremushkin A.V. Основы криптографии. Учебное пособие/ Изд.:Gelios ARV, 2001. – 480 s.
2. Akbarov D.Ye., Xasanov P. F., Xasanov X. P., Axmedova O. P. "Kriptografiyaning matematik asoslari" – Toshkent, 2010 – 210 bet.
3. ISO/IEC 11770 -1. "Key management – Introduction".
4. ISO/IEC 11770 -2. "Key management – Symmetric techniques".
5. ISO/IEC 11770 -3. "Key management – Asymmetric techniques".

6. Menezes A., van Oorschot R., Vanstone S. Handbook of Applied Cryptography. - CRC Press, 1996. – 780 rr.
7. Moldovyan A.A., Moldovyan N.A., Guts N.D., Izotov B.V. Kriptografiya. Skorostnye shifry. Sankt – Peterburg «BXV-Peterburg» 2002.
8. Bryus Shnayer. Prikladnaya kriptografiya. Protokoly, algoritmy, isходные tekstы na yazyke SI – Moskva: TRIUMF, 2002.
9. Akbarov D.Ye. «Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi» - T.: «O'zbekiston markasi», 2009. - 424 b.

REKURSIV FUNKSIYA YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRILGAN KRIPTOBARDOSHLI KALIT GENERATSIYALASH ALGORITMI VA UNING DASTURI

Allanazarova Davlatoy Farxod qizi

Termiz davlat universiteti, Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rabin–Miller algoritmgiga asoslangan tublikka sinash metodikasi takomillashtirilib, rekursiv funksiyalar yordamida kriptobardoshli kalit generatsiyasining samaradorligi oshirildi. Taklif etilgan 1*-algoritmda murakkab sonlarni aniqlash aniqligi oshgan bo‘lib, "soxta guvohlar" sonini keskin kamaytirish orqali algoritm xavfsizligini kuchaytirishga erishilgan. Takomillashtirilgan algoritm Microsoft Visual Studio 2008 muhitida, C# dasturlash tilida ishlab chiqildi. Dastur MPFR/MPIR kutubxonasi yordamida katta sonlar ustida amallarni amalga oshiradi. Natijalar takomillashgan algoritmning samaradorligi va xavfsizlik darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Rabin–Miller testi, rekursiv funksiyalar, kriptobardoshlik, kalit generatsiyasi, soxta guvohlar, C# dasturlash tili, MPFR/MPIR kutubxonasi, axborot xavfsizligi

Rabin – Millerning katta sonlarni tublikka sinash testi hozirgi kunda nosimmetrik kriptotizimlarda modul hosil qilishda keng qo‘llaniladi. Bu algoritm kuchli psevdotub sonlarni sinash algoritmi sifatida tan olingan. U $n - 1$ ni, ya'ni modulni bitta kamaytirilgan qiymatini $2^s * r$ ko‘rinishda ifodalashga asoslangan. Bunda $s - n - 1$ ni ikkiga bo‘linishlar soni, $r -$ toq son.

1-algoritm.

Kirish: Toq butun son $n \geq 3$ va maxfiy parametr $t \geq l$.

Chikish: “ $n -$ soni tubmi?” degan savolga, “tub” yoki “murakkab” degan javob.

1. $n - 1 = 2^s * r$ ko‘rinishda yozib olinadi, bunda $r -$ tub son.
2. i 1 dan t gacha o‘zgarganda quyidagilar bajariladi:
 - 2.1. $2 \leq a \leq n - 2$ shartni qanoatlantiruvchi a son tasodifiy tanlanadi.
 - 2.2. $u = a^i \bmod n$ ni hisoblanadi.
 - 2.3. Agar ($u \neq 1$ va $u \neq n - 1$) bo‘lsa, u holda quyidagilar bajariladi:
 $j \leftarrow -1$.

Toki ($j \leq s-1$ va $u \neq n-1$) shart o'rinli bo'lsa, quyidagilar bajariladi:

$$u \leftarrow u^2 \bmod n \text{ hisoblanadi.}$$

Agar ($u=1$) bo'lsa, u holda "murakkab son" qaytariladi.

$$j \leftarrow j+1.$$

Agar ($u \neq n-1$) bo'lsa, u holda "murakkab son" qaytariladi.

3. "Tub son" qaytariladi.

Endi ushbu Rabin-Miller testini ko'rib o'tilgan faktorli rekursiv funktsiyani hisoblash algoritmi asosida quyidagicha takomillashtirish mumkin.

1*-algoritm.

Kirish: Toq butun son $n \geq 3$ va maxfiy parametr $t \geq 1$.

Chiqish: " n - soni tubmi?" degan savolga, "tub" yoki "murakkab" degan javob.

1. $j \leftarrow 1$, $D_1 \leftarrow a$ ni olinadi.

2. $n-1=2^{s^*} r$ ko'rinishda yozib olinadi, bunda r - tub son.

3. $i=1$ dan t gacha o'zgarganda quyidagilar bajariladi:

3.1. $2 \leq a \leq n-2$ shartni qanoatlantiruvchi a sonini tasodifiy tanlanadi.

3.2. $y = a^r \bmod n$ hisoblanadi.

3.3. Agar ($u \neq 1$ va $u \neq n-1$) bo'lsa, u holda quyidagilar bajariladi:

$$r \leftarrow -1.$$

Toki ($r \leq s-1$ va $u \neq n-1$) shart o'rinli bo'lsa, quyidagilar bajariladi:

$$u \leftarrow u^2 \bmod n \text{ hisoblanadi.}$$

Agar ($u=1$) bo'lsa, u holda "murakkab son" qaytariladi.

$$r \leftarrow r+1.$$

Agar ($u \neq n-1$) bo'lsa, u holda "murakkab son" qaytariladi.

3.4 Toki ($D_j \neq n-1 \parallel j \neq k$) shart bajarilganda quyidagilar bajariladi:

$$3.4.1 \quad D1_j \leftarrow D_j+1, \quad a1 \leftarrow j+a,$$

$$D2_j \leftarrow D1_j * a1, \quad D_{j+1} \leftarrow D_j + D2_j.$$

$$3.4.2 \quad D_{j+1} \leftarrow \lfloor D_{j+1} / n \rfloor.$$


$$3.4.3 \quad j++.$$

3.5 $a \leftarrow D_j$

3.6 $i \leftarrow i+j$.

4. "Tub son" qaytariladi.

Takomillashtirilgan 1* algoritm unga tegishli mavjud algoritmgaga nisbatan n soni murakkab son bo'lganda uni avvalroq payqab, tublikka "soxta guvohlar" sonini kamaytiradi. Bu quyidagi Venn diagrammasida tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm. Mavjud va takomillashtirilgan algoritmning n murakkab son bo'lganda "soxta guvohlar"i egallagan sohalari

Unda "soxta guvohlar" egallagan sohalari uchun tegishli algoritm raqami ko'rsatilgan. Bundan ko'rinadiki, takomillashtirilgan 1*-algoritm hozirgacha ma'lum bo'lgan va eng keng qo'llaniladigan va AQSh standarti [15] uchun asos qilib olingan Rabin-Miller algoritmgaga nisbatan ham samaradorlidir, chunki bu algoritm katta tub sonlarni sinashda hosil bo'ladigan "soxta guvohlar" ni keskin kamaytirish imkoniyatini beradi.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida rekursiv funktsiyani qo'llash asosida kriptobardoshli kalit generatsiyalashning takomillashgan Rabin-Miller algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritmning dasturini yozishda hozirda eng keng qo'llanilayotgan C# («Si sharp») dasturlash tilidan foydalanilgan.


C# dasturlash tili 2000 yilda Maykrosoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. U Maykrosoft kompaniyasining yangi .NET («DotNet») texnologiyasining bir qismi bo'ldi. Ushbu texnologiyalar doirasida turli dasturlash tillarida yozilgan dasturlarni bajarilishining yagona muhiti ko'zda tutilgan. C# - sodda, zamonaviy, xavfsiz tip tizimli ob'ektga yo'naltirilgan. Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda taklif etilayotgan kriptobardoshli kalit generatsiyalashning takomillashgan Rabin-Miller algoritmining dasturi Microsoft Visual Studio 2008 muhitida C# dasturlash tilida tuzildi. C# dasturlash tilining boshqa dasturlash tiliga nisbatan tezkor va mobil bo'lganligi sababli algoritm uchun shu dasturlash tili tanlab olindi.

Dastur ilovasini tuzishda MPFR/MPIR kutubxonasidan foydalanildi. MPFR/MPIR kutubxonasi kriptografik protokollar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ochiq kodli kriptografik paket hisoblanadi. Bu paket katta butun tub sonlar va ular ustidagi amallarni o'z ichiga oladi. Bu kutubxona C++ tilida yozilgan bo'lib, bu paketni UNIX oilasiga mansub hamda OpenVMS va Microsoft Windows kabi operatsion tizimlarda ham qo'llash mumkin.

Takomillashgan tublikka sinashning Rabin Miller algoritmi dasturi oynalari quyidagi 2–5-rasmlarda keltirilgan.




2-rasm



3-rasm



4-rasm



```

D:\rabinM\rabinM\Release\rabinM.exe
Tasodifiy a son tanlang:
a=49055675094431249665923774167748958443683193320338068239662781
y=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828678
Tasodifiy a son tanlang:
a=49055675094431249665923774167748958443683193320338068239662781
y=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828678
Tasodifiy a son tanlang:
a=93656132220347843017435182817473194640501148045011916680224575
y=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828678
Tasodifiy a son tanlang:
a=93656132220347843017435182817473194640501148045011916680224575
y=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828678
Tasodifiy a son tanlang:
a=93656132220347843017435182817473194640501148045011916680224575
y=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828678
n=123426017006182806728593424683999798008235734137469123231828679
Soni- ehtimol tub son!
Ketgan vaqt: 0 min:0 sek:47 msek
    
```

5-rasm

Xulosada, Rabin–Miller algoritmining takomillashtirilgan ko‘rinishi asosida kriptobardoshli kalit generatsiyasini amalga oshirish algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritm orqali tublikka sinashda murakkab sonlarni aniqlash samaradorligi oshdi, shuningdek "soxta guvohlar" soni kamaytirildi. Rekursiv funksiyalar asosida ishlovchi algoritm C# dasturlash tilida yozilib, MPFR/MPIR kutubxonasi asosida katta sonlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tadqiqot natijalari yangi algoritmning axborot xavfsizligi sohasida yuqori darajada qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alferov A.P., Zubov A.Yu., Kuzmin A.S., Cheremushkin A.V. Основы криптографии. Учебное пособие/ Изд.:Gelios ARV, 2001. – 480 s.
2. Akbarov D.Ye., Xasanov P. F., Xasanov X. P., Axmedova O. P. “Kriptografiyaning matematik asoslari” – Toshkent, 2010 – 210 bet.
3. ISO/IEC 11770 -1. “Key management – Introduction”.
4. ISO/IEC 11770 -2. “Key management – Symmetric techniques”.
5. ISO/IEC 11770 -3. “Key management – Asymmetric techniques”.
6. Menezes A., van Oorschot R., Vanstone S. Handbook of Applied Cryptography. - CRC Press, 1996. – 780 rr.

7. Moldovyan A.A., Moldovyan N.A., Guts N.D., Izotov B.V. Kriptografiya. Skorostnye shifry. Sankt – Peterburg «BXV-Peterburg» 2002.

8. Bryus Shnayer. Prikladnaya kriptografiya. Protokoly, algoritmy, isходные tekstы na yazyke SI – Moskva: TRIUMF, 2002.

9. Akbarov D.Ye. «Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi» - T.: «O'zbekiston markasi», 2009. - 424 b.

**IJOBIY VA SALBIY XARAKTER XUSUSIYATLARINING FRAZEOLOGIK
IFODASI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA****Boboxonov Muxammadaziz Shavkatovich**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Magistratura Xorijiy til va adabiyoti (ingliz
tili) yo'nalishi 2-bosqich magistrantimuhammad7110560@gmail.com**Annotatsiya**

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida ijobiy hamda salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning tahliliga bag'ishlangan. Frazeologik birliklar xalq mentaliteti, madaniyati va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til vositalaridan biridir. Ushbu maqolada har ikki tildagi o'xshashlik va farqlar, frazeologik birliklarning semantik yuklanishi hamda ularning muloqotdagi funksional roli o'rganilgan. Frazeologik birliklarning xarakter tasviridagi ahamiyati qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Frazeologik birliklar, xarakter xususiyatlari, ijobiy sifatlar, salbiy sifatlar, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya.

Abstract

This article is devoted to the analysis of phraseological units expressing positive and negative character traits in English and Uzbek. Phraseological units are one of the important language tools reflecting the mentality, culture and social values of the people. This article studies the similarities and differences in both languages, the semantic load of phraseological units and their functional role in communication. The importance of phraseological units in character depiction is revealed on the basis of a comparative-analytical approach.

Keywords. Phraseological units, character traits, positive adjectives, negative adjectives, English language, Uzbek language, comparative analysis, linguoculturology.

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining mahsuli sifatida har doim shaxsiy va ijtimoiy xarakter xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Frazeologik birliklar esa tilning eng obrazli qatlamlaridan biri bo'lib, ular inson xarakterining turli qirralarini ifodalashda beqiyos vosita hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari ham bunday obrazli ifodalarga boy bo'lib, har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi va mentaliteti namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklarning xarakter xususiyatlarini ifodalashdagi roli ularning semantik va pragmatik imkoniyatlari bilan bog'liq. Ular nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki insonlarga nisbatan baho berish, ijtimoiy mavqeni belgilash kabi funksiyalarni ham bajaradi. Shu bois, frazeologik birliklar shaxsiy fazilatlarining ijobiy yoki salbiy ko'rinishini yaratishda keng qo'llaniladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish orqali biz nafaqat til, balki madaniyatlararo tafovutlarni ham ko'ra olamiz. Bu tafovutlar xalqona tafakkur, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajribaning tilga qanday singib ketganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv til o'rganuvchilarga va tarjimonlarga ham katta yordam beradi.

Shunday ekan, ushbu maqola frazeologik birliklar orqali xarakter xususiyatlarini ifodalashning asosiy tamoyillarini aniqlash, ularning til va madaniyatdagi o'rnini yoritish maqsadini ko'zlaydi. Tadqiqot davomida ijobiy va salbiy sifatlarning qanday frazeologik vositalar bilan berilishi va ularning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

Frazeologik ifodalar inson fe'l-atvori, odatlari va ijtimoiy qiyofasini ifodalashda rang-baranglik va obrazlilikni ta'minlaydi. Ingliz va o'zbek tillarida ko'plab ijobiy fazilatlar maqtov va tasdiq shaklida, salbiy xususiyatlar esa kinoya va tanqid orqali ifodalanadi. Bu jarayon tahlil qilinar ekan, milliy xususiyatlar va dunyoqarashdagi tafovutlar ko'zga tashlanadi. Shu orqali, frazeologik birliklarning kommunikativ qiymati va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati aniqlashtiriladi.

Maqolada frazeologik birliklarning pragmatik va lingvokulturologik talqinlari ham ko'rib chiqiladi. Xususan, frazeologik vositalar vositasida shaxsiy fazilatlarini baholashda qaysi til qanday tasviriy usullardan foydalanishi tahlil etiladi. Natijada, har ikkala tilda ijobiy va salbiy xarakter xususiyatlarining frazeologik tasviri o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalari, frazeologik birliklarning xalq ruhiyatidagi aks-sadosi va muloqotdagi o'rnini haqida chuqurroq tasavvur beradi. Bu esa til o'rganish, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot jarayonida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Frazeologiyaning nazariy asoslari haqida ko'plab tilshunos olimlar, jumladan, V. V. Vinogradov, A. Kunin va A. M. Mamatov asarlarida to'xtalib o'tilgan. Ularning tadqiqotlarida frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va kontekstda qo'llanilish jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Shu asosda, xarakter ifodasidagi frazeologik vositalarning tilga kiritilish sabablari ham o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar haqida O. Madrahimov, G. Salohiddinov kabi olimlar tomonidan muhim ishlar amalga oshirilgan. Ular o'zbek frazeologizmlarining xalqona mentalitetdagi o'rnini ochib berganlar. Ayniqsa, xarakter

xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar orasida madaniy tafovutlar va ijtimoiy hodisalarning aks ettirilishi ta'kidlangan.

Ingliz tilshunosligida esa A. P. Cowie va J. R. Taylor kabi olimlar frazeologik birliklarning kommunikativ funktsiyalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlari inglizcha ijobiy va salbiy xarakter tasvirining til ifodasidagi o'ziga xosligini ochib bergan. Shu jihatdan ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlarining qiyosiy tahlili zahirida ilmiy asoslar mavjud.

Adabiy manbalarga tayangan holda, frazeologik birliklarning madaniy va lingvokulturologik kontekstdagi rolini ochib berish imkonini beradi. Bu esa, nafaqat tilshunoslik nazariyasini, balki amaliy tillarni o'rganish usullarini ham boyitadi.

Maqolani tayyorlashda qiyosiy-tahliliy metod asosiy metod sifatida tanlandi. Ingliz va o'zbek tillaridagi xarakter ifodalarini aniqlash, ularning ma'no va funktsional jihatdan taqqoslash asosiy tadqiqot yo'nalishi bo'ldi. Har bir frazeologik birlik semantik va pragmatik jihatdan chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun tanlab olingan frazeologik birliklar ingliz va o'zbek badiiy adabiyoti, so'zlashuv nutqi va lug'atlardan olindi. Har bir birlik ijobiy va salbiy xarakter xususiyatini qanday ifodalashi va uning madaniy kontekstdagi ahamiyati aniqlashtirildi. Maqsad shundaki, har ikkala tilning frazeologik boyligini qiyosiy ko'rsatishdir.

Metodologiyada, shuningdek, semantik xaritalash va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu usullar yordamida frazeologik birliklarning muloqotdagi aniq vazifalari va ifodaviy imkoniyatlari o'rganildi. Xususan, pragmatik ta'sir va matn ichidagi nutq aktyalari tahlil qilindi.

Natijada, har ikki tildagi frazeologik birliklar nafaqat ma'no jihatdan, balki kommunikativ strategiya va madaniy kodlar jihatidan ham o'zaro solishtirildi. Bu tadqiqot metodologik yondashuvning aniqligi va ishonchligini ta'minladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarida xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar o'ziga xosliklarga ega ekani aniqlandi. Ingliz tilida ko'proq individual fazilatlar (masalan, "cold fish" — sovuq, befarq odam) aks ettirilsa, o'zbek tilida esa ijtimoiy kontekstga yo'naltirilgan tasvirlar ("ko'ngli ochiq" — samimiy odam) ustunlik qiladi.

Ijobiy sifatlar ingliz tilida ko'pincha nozik kinoya bilan ifodalansa, o'zbek tilida esa ochiq-oydin va iliq ifodalar ustun. Masalan, "as good as gold" (yaxshi bola) va "ko'ngli soflik" kabi ifodalar shaxsiy fazilatlarini maqtashga xizmat qiladi. Salbiy xususiyatlar esa har ikkala tilda ham kinoya va tanqid asosida beriladi.

Frazeologik birliklarning madaniy konnotatsiyasi ham aniqlik kasb etdi: ingliz tilida pragmatizm va individuallik ustun bo'lsa, o'zbek tilida jamiyat manfaatlari va

insoniy munosabatlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, xarakter xususiyatlarining frazeologik ifodasi ikki xalqning ham dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va estetik didini o'zida mujassam etgan. Tadqiqot, shuningdek, madaniyatlararo til o'rganishda frazeologik birliklarning ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning xarakter xususiyatlarini ifodalashdagi o'rni beqiyosdir. Ular tilni yanada boy, ifodali va madaniy ma'noga boy qiladi. Har ikki tilda ham ijobiy va salbiy sifatlarni ifodalashda o'ziga xos madaniy tamoyillar va muloqot uslublari mavjud.

Qiyosiy tahlil natijalari frazeologik birliklarning nafaqat tilga, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va estetik hayot tarziga ham kuchli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu esa frazeologiyaning lingvokulturologik tadqiqotlar uchun o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kelgusida bunday tadqiqotlar frazeologik birliklarni tarjima qilish, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy til o'rganish sohalarida keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, frazeologizmlar orqali milliy tafakkur va hissiy ifoda tarzini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

Natijada, frazeologik birliklarning xarakter xususiyatlarini ifodalashdagi funksional va madaniy ahamiyati tilshunoslikdagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vinogradov V. V. "Ocherki po frazeologii russkogo yazyka." — M.: Nauka, 1947.
2. Kunin A. V. "Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka." — M.: Vysshaya shkola, 1996.
3. Cowie A. P. "Phraseology: Theory, Analysis, and Applications." — Oxford University Press, 1998.
4. Salohiddinov G. "O'zbek tilining frazeologik boyligi." — Toshkent, 2005.
5. Taylor J. R. "Linguistic Categorization: Prototypes in Linguistic Theory." — Oxford University Press, 2003.

GRAMMATICAL PROBLEMS OF TRANSLATION

Supervisor: Egamberdiyeva I.A

Associate professor of ASIFL

Abduganiyeva Azizabonu

Student of ASIFL

Annotation. This article examines the grammatical problems encountered in translation, highlighting the complexities that arise due to differences in syntax, morphology, and sentence structure between the source and target languages. It examines how grammatical inconsistencies can lead to misinterpretation, loss of meaning, and stylistic inconsistencies. These include tense and aspect, conjugation, word order, the use of articles, and prepositions. Ultimately, it emphasizes the importance of a deep understanding of the grammatical system in order to achieve accurate and meaningful translations.

Аннотация. В данной статье рассматриваются грамматические проблемы, возникающие при переводе, и подчеркиваются сложности, возникающие из-за различий в синтаксисе, морфологии и структуре предложений между исходным и целевым языками. В нем рассматривается, приводят ли грамматические несоответствия к неправильному толкованию, потере смысла и стилистической непоследовательности. Включая время и вид, спряжение, порядок слов, артикли и использование предлогов. В конечном итоге, это подчеркивает важность глубокого понимания грамматической системы для достижения точных и содержательных переводов.

Keywords: Translation, grammatical issues, syntax, morphology, tense and aspect, agreement, word order, articles, loading, translation strategies.

Ключевые слова: Перевод, грамматические проблемы, синтаксис, морфология, время и вид, согласование, порядок слов, артикли, загрузка, стратегии перевода.

Translation serves as a vital bridge connecting different languages and cultures, though it presents numerous challenges. Effective translation requires more than basic language knowledge; it demands comprehensive understanding of both source and target languages, including cultural contexts, idioms, and expressions. A primary challenge is maintaining grammatical integrity without distorting the original meaning. Precise translation is essential for effective cross-linguistic communication and preventing misunderstandings. Common translation difficulties arise from language

differences, particularly with idiomatic expressions and linguistic subtleties that require creative adaptation while preserving intended meaning.

Translators face various grammatical hurdles, including tense inconsistencies, gender agreement issues, and word order variations. English, unlike languages with flexible syntax, relies heavily on word order to convey meaning, making proper structure crucial. Incorrect verb tenses can create ambiguity, while misused articles can completely change a statement's meaning. Pronoun usage also varies significantly between languages.

Successful translation requires thorough knowledge of both languages' grammatical rules. Translators must consider not just literal meanings but also cultural nuances and idiomatic expressions to avoid content being "lost in translation"[1;34].

Translators aim to convey the original message completely while maintaining structural similarity between source and target texts. When syntactic similarity cannot be achieved, transformations occur at the syntactic level during translation. This process presents numerous challenges including ambiguity, structural and lexical differences between languages, multiword expressions like idioms and collocations, and various grammatical issues.

At the grammatical level, translators must possess comprehensive knowledge of target language grammar rules. More importantly, they need expertise in comparative grammar of both languages involved, understanding their similarities and differences. A skilled translator can distinguish between obligatory and optional forms in the target language.

The nature and extent of grammatical differences between languages vary significantly. Languages from the same family may share many grammatical features, though physical distance between linguistic regions can influence this similarity. Conversely, languages from different families that share geographical proximity might develop common features through convergence.

Tense and aspect systems differ considerably across languages. While most languages recognize three basic tenses (present, past, future) with some relative tenses (past perfect, future perfect), others feature unique temporal gradations for past or future events. These can range from specifying "a few minutes ago" to "earlier in the day," affecting overall grammar and sentence structure [2;19].

A thorough comparative analysis of two languages' grammatical systems is essential before undertaking translation work. These grammatical differences challenge translators to not only analyze the disparities but also find accurate or appropriate correspondences in the target language to effectively transmit the message.

Grammar plays a crucial role in successful text translation. Grammatical subtleties significantly affect how meaning is conveyed and how the original structure is preserved, making it essential for translators to give special attention to these elements. When grammar receives insufficient focus, translations can lose accuracy and communicate incorrect meanings, reducing overall quality.

Key strategies for addressing grammatical challenges in translation include utilizing contextual information, analyzing grammatical frameworks, and carefully examining sentence structures. Practical examples demonstrate these approaches' effectiveness, encouraging translators to consistently apply grammatical methodology in their work [3;54].

The grammatical dimension of translation holds immense importance. Achieving excellence in translation requires both lexical precision and grammatical accuracy. By systematically implementing these recommended strategies, translators can substantially improve their translation quality and enhance their professional standards to higher levels.

When translating from English to other languages, even high-achieving students face difficulties with less frequently used English words. They particularly struggle with unfamiliar terminology and language/cultural specifics. These findings indicate significant lexical difficulties, which indicate a limited English vocabulary among students.

Students use a variety of strategies to deal with unfamiliar words, including omission, borrowing/loan words, and the use of superlatives. However, these approaches are not always appropriate to the context of the sentence.

Students face two main problems when translating from Indonesian to English: morphology and syntax. Morphological problems focus on inflectional difficulties, while syntactic problems are manifested in two subcategories: modification and predication. Modification problems are particularly common in noun phrases, while predication problems include tense, aspect, voice, and case.

The study shows that students do not have sufficient grammatical knowledge, particularly in terms of noun phrases, tenses, aspects, voices, and status - the key elements of correct English translation.

REFERENCES

1. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
3. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins Publishing.

4. Catford, J. C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics*. Oxford University Press.
5. Nida, E. A., & Taber, C. R. (2003). *The Theory and Practice of Translation*. Brill.
6. Chesterman, A. (1997). *Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory*. John Benjamins Publishing.

**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» NOMLI
KONFERENSIYANING 3-TOM, 4-SON (Aprel)
MUNDARIJA**

1	LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. Qurbanazarova Nilufar	6-9
2	АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ЛЕЧЕНИЯ ОСТРОЙ КИШЕЧНОЙ НЕПРОХОДИМОСТИ У БОЛЬНЫХ ПОЖИЛОГО И СТАРЧЕСКОГО ВОЗРАСТА Худойбердиев Санжар Собирович	10-19
3	IDROK HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING XUSUSIYATLARI Yoqubova Zebiniso Abdurayim qizi, Xo'janova Gulira'no Abduxalil qizi, Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich	20-22
4	OILADA BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISH O'ktamova Mijgona Akmalovna., Olmos Avezov	23-28
5	JIGAR SERROZINI TASHXISLASHDA ELASTOGRAFIK USULNING AXAMIYATI Aytimova G.Yu, Nodirbekova M.U	29-32
6	ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РЕЦИДИВОВ БОЛЕЗНИ КРОНА И ИХ ПРОФИЛАКТИКА Сагтаров Жаъсур Элмуродович	33-41
7	THE CONCEPT OF SOCIAL COMPETENCE AMONG MANAGERIAL STAFF: ESSENCE, STRUCTURE, AND STAGES OF DEVELOPMENT Pokiza Ziyoviddinova	42-47
8	УПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДОЛГОМ И УСТОЙЧИВОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ Азиз Кодиров	48-50
9	ПРИЧИНЫ И ПРОЦЕДУРЫ БАНКРОТСТВА ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА Дильмурод Санаев	51-54
10	STIVEN HOKINGNING QORA TUYNUKLAR NAZARIYASIDA ZAMON- MAKON UYG'UNLIGINING SINGULYAR OG'ISHI MASALASI Sherzod Abdullayev	55-59
11	INVESTITSION AUDITNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI: XORIJIY TAJRIBA VA MAHALLIY AMALIYOT Nargiza Raxmatullayeva	60-65
12	YOSH SPORTCHILAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING METODIK ASOSLARI Ibragimov Sanjar	66-71



13	BARQAROR TURIZM: EKOTURIZM ORQALI TABIIY BOYLIKLARNI ASRASH YO'LLARI Shavkatova Sarvinoz, Yo`ldoshev Abdumalik	72-78
14	TURIZM VA MADANIY MEROS: TARIXIY OBIDALARNI ASRASHDA TURIZMNING O'RNI Esonova Muxlisa , Yo`ldoshev Abdumalik	79-84
15	NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI Bazarbayeva Dinara , Olimova Dono	85-88
16	YURIDIK FAOLIYATDA MANTA RAY FORAGING OPTIMIZATION USULLARINI QO'LLANILISHI Turdiyev Jahongir , Yunusov Oxunbobo	89-95
17	COMPARING THE GRAMMAR-TRANSLATION METHOD AND COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT) IN DEVELOPING WRITING SKILLS IN SECONDARY STUDENTS Otajonova Mukhlisa	96-99
18	MUSIQA TINGLASH, UNI IDROK ETISHNING MAQSADI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI Botirbayev Maxmudjon, Nurullayev Farrux	100-108
19	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI XODIMLARINI MOLIYAVIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH USULLARI Xo`janova Maftuna	109-114
20	BOSHLANGICH SINFLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI Raxmatqulova Nafisa	115-118
21	AGROBIZNESNI TASHKIL QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR Xolboyeva Farangiz	119-122
22	YOSHLAR ORASIDA ICHKI TURIZM O'RNI Ermatova Malika Hikmat qizi, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	123-128
23	SHAXS PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI Sobirov Abdulaziz Abduroziqovich	129-132
24	TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	133-136



	(KAPITALBANK MISOLIDA) Sherdonayeva Gulnoz Isroil qizi, Mamadjanova Tuyg'unoy Ahmadjanovna	
25	TITLE: TRANSLANGUAGING AS A SCAFFOLDING STRATEGY IN MULTILEVEL EFL CLASSROOMS IN UZBEKISTAN Nafosat Mirvafoeva's	137-140
26	DIRIJYORLIK SAN'ATINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA YOSH ISTE'DODLARNI TAYYORLASHDAGI ROLI Farrux G'aybulloyevich Nurullayev, Asadbek Hikmatov	141-147
27	BOSHLANG'ICH SINFLARDA BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI O'STIRISH VAZIFALARI Daminova Dilbar Melimurodovna	148-151
28	BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATI, MUAMMOLARI VA SOHAGA OID ILMIY ISHLAR TAHLILI Abdullayev Mamayusup Kasimovich	152-161
29	O'QUVCHILARNING KITOBXONLIKKA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI Rasulova Mohichehraxon Umidjon qizi	162-165
30	ABU NASR FOROBIYNING "FOZIL ODAMLAR SHAHRI" ASARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI Shahzod Mingto'rayev, Asilbek Ochildiyev	166-174
31	TAFAKKUR PSIXOLOGIYASI Shamsiya Ibodova, Ulug'bek Shomurotov	175-178
32	EVALUATION OF INDUSTRIAL SYSTEM GROWTH IN THE CONTEMPORARY ECONOMY Aziza Egamnazarova Ernazar qizi, Mamatkarimova Charos Baxrom qizi, Turaeva Gulizaxro	179-182
33	ISHLAB CHIQRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR: STATISTIK TAHLIL Rahmonova Mahbuba, Ollokulova Feruza Mansurovna	183-188
34	FALASAFIY FANINING O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARASI Mamatqulova Nilufar Xusanovna, Nazarov Sirojiddin G'ani o'g'li, Yo'ldoshev Azizbek Najmiddin o'g'li, Daminov Samandar Iskandar o'g'li, Ibodullayeva Naxshona Nodirjon qiz	189-196



35	INSON MANFAATLARI, HUQUQ VA ERKINLIKLARI MASALALARI (“ALHIDOYA” ASARI ASOSIDA) Ziyoyev Jamshid Sobirovich, Baratov Qahramon Nuriddin o'g'li	197-200
36	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA STEAM LOYIHALAR YARATISH, KICHIK TAJRIBALAR O'TKAZISH Avvalova Nazokat Tursunmurotovna	201-204
37	LIRIK ASARLARDA OBRAZLILIK. Baratova Hilola, Husniddin Suvanov	205-207
38	MAHALLIY AHOLINING TURIZMGA BO'LGAN MUNOSABATI VA ISHTIROKI Olimova Ruxshona Sanjar qizi, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	208-214
39	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT KORXONALARINING TAHLILI Tursunova Nigora Asatillo qizi	215-221
40	ПАХТАНИНГ МАЙДА ВА ЙИРИК ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ С.У.Патхуллаев1, А.Р.Панжиев1	222-225
41	ПАХТА ТОЛАСИ ПИШГАНЛИК ДАРАЖАСИ БЎЙИЧА БУРАМДОРЛИГИНИНГ ЎЗГАРИШИ С.У.Патхуллаев1, А.Р.Панжиев1	226-230
42	НИКОН VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI, UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI Mamatqulova Nilufar Xusanovna, Jovliyev Samandar Elyor o'g'li, Himmatov Nodir Normamatovich, Navbatov Sardorjon Qurbongeldiyevich	231-235
43	AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTONNING QISHLOQ HUDUDLARIDA YANGI IMKONIYATLAR VA CHIDAMLAR Yaminov Ilhom Rustam o'g'li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	236-244
44	REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ISTIQBOLLARI Jurayev Abdumalik Abdumannop o'g'li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	245-252
45	EKOTURIZM: TABIAT VA TURIZMNING UYG'UNLIKDA RIVOJLANISHI Azimov Muzaffar Nuriddin o'g'li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	253-260



46	GASTRONOMIK TURIZMNING ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI Qobilov Yusufjon Xojiakbar o`g`li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	261-267
47	EKSKURSION TURIZM: MADANIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Islomov Otabek Muzaffar o`g`li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	268-273
48	XALQARO TURIZM: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Israilov Xusan Ravshanbekovich, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	274-279
49	TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SPORT TURIZMINING O'RNINI Johongirov Mirsulton Ibroxim o`g`li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	280-286
50	TURIZM VA IQTISODIYOT: O'ZARO BOG'LIQLIK VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Sotiboldiyev Adham Ikromjon o`g`li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	287-297
51	MADANIY TURIZMNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY, IJTIMOYIY VA MADANIY AHAMIYATI Norboyev Abdulazizbek Usmonqul o`g`li, Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich	298-306
52	TIBBIYOTGA DOIR TERMINLARNING MORFOLOGIK, SINTAKTIK VA ABREVIATURA USULIDA YASALISHI. Mamarajabova Dilbar Allanazar qizi	307-310
53	ELEKTRON TIJORATNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: O'ZBEKISTON MISOLIDA Nazarova Shaxodat Ravshan qizi, Ilmiy rahbar: Ollokulova Feruza Mansurovna	311-323
54	THE ROLE OF SELF-EDUCATION IN MODERN STUDENT LIFE Eshqobilova Nozanin, Amanova Sevinch, Salomova Sevara	324-327
55	DAVLAT – XUSUSIY SHERIKCHILIGI FAOLIYATIDA XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI Ollokulova Feruza Mansurovna, Amirova Dilshoda	328-333
56	O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH. Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana	334-339



57	SANOAT KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA ORQALI MAHSULOT EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI. Ollokulova Feruza Mansurovna, Omonova Nafisa Qahramon qizi	340-345
58	DESTRUKTIV AXBOROTLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR Barakayeva Nilufar Zubaydulla qizi	346-350
59	MAMLAKATIMIZDA SOLIQ SIYOSATI. Ollokulova Feruza Mansurovna	351-355
60	UMUMTA'LIM MAKTABLARNING 1-4-SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY VA HARAKATLI O'YINLARNI O'RGATISH. Abdullayeva Umida, To'raqulova Ruxshona, G'aniyev Suxrob Abduvali o'g'li	356-358
61	ВЫРАЖЕНИЕ МЕЖСТИЛЕВОГО СИНТЕЗА И ПОЭТИКА ХРОНОТОПА В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ РАССКАЗАХ Махмадиева Гулчехра	359-362
62	ADABIY NASR VA PRAGMATIKA. MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY NAZARIY ASOSLAR Turdimurodova Avazgul Xolto'ra qizi	363-366
63	NOSIMMETRIK KRIPTOTIZIMLAR UCHUN KALIT KRIPTOBARDOSHLIGINI OSHIRISH USULINI ASOSLASH Allanazarova Davlatoy Farxod qizi	367-372
64	REKURSIV FUNKSIYA YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRILGAN KRIPTOBARDOSHLI KALIT GENERATSIYALASH ALGORITMI VA UNING DASTURI. Allanazarova Davlatoy Farxod qizi.	373-379
65	IJOBIY VA SALBIY XARAKTER XUSUSIYATLARINING FRAZEOLOGIK IFODASI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA. Boboxonov Muxammadaziz Shavkatovich.	380-383
66	GRAMMATICAL PROBLEMS OF TRANSLATION. Egamberdiyeva I.A, Abduganiyeva Azizabonu.	384-387
	MUNDARIJA	388-393

